

581  
KC-28

KARIMJONOV ALIJON  
JABBOROVA ONAXON MANNOPOVNA  
MAMADALIYEV KAMOLIDIN RAXMATULLOYEVICH  
ESHMANOVA NODIRA NAZARKULOVNA

PEDAGOGIK TIZIMNI  
BOSHQARISHNING  
ME'YORIY ASOSLARI



581  
k-28

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Karimjonov Alijon  
Jabborova Onaxon Mannopovna  
Mamadaliev Kamolidin Raxmatulloyevich  
Eshmanova Nodira Nazarkulovna

**PEDAGOGIK TIZIMNI  
BOSHQARISHNING ME'YORIY  
ASOSLARI**

- 8406 -



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

TOSHKENT  
«ISHONCHLI HAMKOR»  
2021

Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari [Mant]: O'quv qo'llanma. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – 272 b.

*Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'limgardiy, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika fanidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroficha o'rganishni taqozo etadi. Pedagogika fanini o'zlashtirish — ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo'l mish inson kamolotini haqidagi g'oyalarni nihoyatda puxta biliishni talab etadi.*

Mazkur o'quv qo'llanma boshqarishning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalari, boshqarishning me'yoriy turlari, boshqa aqidalari va uslublarini nazariy hamda amaliy asosda yoritishga mo'ljallangan.

«Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari» majmuasi jamiyatimizning yangi rivojlanishi davrdagi ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisda-gi MUROJAATNOMASI asosida bayon etilgan. Xususan ta'limgardiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarining ichki boshqaruv tizimi, ichki boshqaruv tizimida rahbarlik uslubi, madaniyati, fazilat va obru-e'tibori, boshqarishning pedagogik-psixologik yo'naliishlari, rejorashtirish, o'quv-tarbiya, maktab va muktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga va xodimlar bilan ishlashtirish ya'ni me'yoriy asoslari o'z ifodasini topgan.

O'quv qo'llanma pedagogika instituti va universitetlarning maktabgacha ta'limgardiy muassasalaridan, boshlab to «Pedagogika-psixologiya» (V 142400) yo'naliishlari bo'yicha tahsil oluvchi bakalavr, magistrlar, maktab va oliy ta'limgardiy muassasalar boshqaruvlarini ish yuritish faoliyati bo'yicha katta ahamiyatga ega.

**Taqrizchilar:**

M.Tojiyev – Pedagogika fanlar doktori, professor  
F.O.Jumanova – Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

**Mas'ul muharrir:**

Sh.Q.Mardonov – Pedagogika fanlar doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgardiy vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-soni buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-24-329-3

## MUNDARIJA

Kirish.....	5
I BOB. PEDAGOGIK TIZIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI FANINING MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFASI VA METODLARI .....	7
Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining mazmun -mohiyati va ahamiyati .....	7
Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining maqsad va vazifalari.....	7
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM TIZIMI.....	35
O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimi strukturasi.....	35
O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi sistemasi.....	35
III BOB. OLIV TA'LIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI .....	69
Oliy ta'limgardiy tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari .....	69
IV BOB. TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	108
Maktab va o'rta maxsus ta'limgardiy muassasalarining tarkibiy mezonlari.....	108
Maktab va O'rta - maxsus ta'limgardiy muassasalarining nazariy va amaliy metod – vositalari.....	121
V BOB. TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	129
Ta'limgardiy tizimini boshqarishning pedagogik asoslari .....	129
Ta'limgardiy tizimini boshqarishning pedagogik asoslari .....	138
VI BOB. TA'LIM MUASSASALARINI ICHKI BOSHQARISHNING ME'YORIY MASALALARI .....	148
Ichki boshqaruvning taskilayishini masalalari Ichki boshqaruvning asosiy vazifalari .....	148
VII BOB. TA'LIM MUASSASALARI ISH FAOLIYATINI REJALASHTIRISH .....	177
Rejalashtirish va uning takomillashtirish yo'llari. Ta'limgardiy muassasalar ish faoliyatini rejolashtirish va uning ahamiyati.....	177

## **VIII BOB. SINFDAN VA TA'LIM MUASSASALAR DAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISH 184**

Maktab va o'rta maxsus ta'lif muassasalarida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ..... 184
Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda rahbarning vazifalari ..... 188
Ta'lif muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimi ..... 196

## **IX BOB. XODIMLAR TANLASH VA ULARNING MAHORATINI OSHIRISH METODLARI 210**

Ta'lif muassasalarini pedagogik xodimlar bilan ta'minlash va ularning mahoratini oshirish ..... 210
Pedagogik kadrlash malakasini oshirish va rivojlantirish ..... 219
Ilovalar ..... 231
Adabiyotlar ..... 268

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha jahhalari kabi ta'lif sohasida, xususan ta'lif tizimini boshqarishning me'yorida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lif tizimi, uni boshqarishning huquqiy, me'yoriy iqtisodiy — ijtimoiy, ma'naviy asoslari yaratilmoqda. Bu esa pedagogik oliy o'quv yurtlari, o'qituvchilari malakasini oshirish institutlari, muktablar zimmasiga yangi vazifalarni qo'yilmoqda.

Har tomonlama rivojlangan, erkin fikrلaydigan ozod fuqarosi tarbiyasi davlatimizning ustuvor vazifalari sirasiga kiritilgan.

Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari kursi talabalarini ta'lif tizimi va uni boshqarishning me'yoriy muammolari bilan tanishtirish maqsadini ko'zlaydi.

Fanning asosiy vazifalari, talabalarini ta'lif tizimini boshqarishning me'yoriy tamoyillari, shakllari, maqsadlari va vazifalari bilan tanishtirishdan iborat. Fanni o'qish davomida talabalar «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun, hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan yosh avlod tarbiyasiga qo'yilgan talablar bilan ham tanishtiradi.

Shu bo'yicha talabalar bilimlari va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar quyidagicha bo'lib, ular o'qish jarayonida pedagogika fanlari tizimini o'zlashtirish bilan birga pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslарini mukammal o'rganib boradilar.

Mazkur kurs bo'lg'usi o'qituvchilarni ixtisosligi bo'yicha bilimlarni egallash davomida ularning kasbiy malakasini, bilim, ko'nikma va salohiyatini oshirib boradi. Shuningdek, talabalar «Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari» fanidan egallagan nazariy bilimlarni amaliyatida tadbiq etish ko'nikmasi va malakasiga ega bo'ladilar.

Talabalar o'qish natijasida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi zarur sanaladi:

— ta'lif tizimi va uni boshqarishning me'yoriga qo'yilayotgan zamonaliviy talablar;

— yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasini ruhida tarbiyalash, milliy ta'lif — tarbiya an'analari asosida darsliklar, o'quv metodik qo'llanmalarni yaratish talablar;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida shakllangan ta'lif tizimini boshqarishning me'yoriy tamoyillari;
- boshqaruvchning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalari;
- boshqaruvni tashkil etish va rejalashtirish va hokazolar.

Mazkur fanni o'qitish samaradorligini ta'minlash maqsadida turli mavzularga oid tarqatma materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda o'quv muassasalar rahbarlari boshqaruv funksiyalarining integrativ sifatlarini tavsiyalovchi xususiyatlar: boshqaruvni ichki va tashqi o'zgarishlariga moslashtirish; boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash; rahbarlik uslublaridan samarali foydalanish; boshqaruv faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida me'yoriy hujjatlar belgilashni ko'rsatadi.

O'quv muassasalar rahbarlari ya'ni ta'lif jarayonini boshqaruvchilar uchun tayyorlangan ushbu qo'llanmada ta'lif muassasalarida ta'lif tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarishning me'yoriy yo'nalishidagi asosiy tushunchalar va ularning mazmun mohiyati, shuningdek ta'lif tarbiya jaryonini boshqarishning nazariy jihatlari va uning muassasalarini boshqarishning me'yorida qo'llanish uslublari keltirilgan bo'lib, zamonaviy maktab rahbarlari ta'lif muassasasi sharoitining turli jarayonlarida nafaqat boshqarishning me'yoriy sohasi yo'nalishida, balki amaliyotda tadbiq eta olishi ta'lif muassasalari xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirishda va ularni boshqarishning me'yorida to'g'ri va izchil qarorlarini qabul qila olishi zaruriyati ham inobatga olingan.

Muallif O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining ilmiy kengashi, pedagogika – psixologiya fakulteti rahbariyati va xodimlariga hamda maktab rahbarlari va rahbar o'rinnbosarlariga qo'llanmani tayyor bo'lishi uchun berilgan maslahat, taklif va amaliy yordamlari uchun samimiy minnatdorchilik bildiradi.

## I BOB. PEDAGOGIK TIZIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI FANINING MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFASI VA METODLARI

**Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining mazmun– mohiyati va ahamiyati.**

**Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining maqsad va vazifalari.**

**Fanining mazmun– mohiyati** Xalq ta'lif bo'limi ish faoliyati va ahamiyati. pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida maktabshunoslik ta'lif sistemasini tashkil qilish, boshqarishning me'yoriy asosi va ta'lif muassasalarini boshqarishning hujjatlashtirish, undagi o'quv jarayoniga rahbarlik qilishning shakkiali va metodlarini, muassasadagi mas'ul shaxslarning faoliyatini tadqiq qiladi hamda rahbarlik qilish tizimini bayon qiladi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi, shuningdek iqtisodiyotda boshqaruv tizimi va ijtimoiy rivojlanishda keng miqyosli islohotlar o'tkazilishi natijasida respublikada, eng avvalo, ta'lif sohasida zarur shart-sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi. Respublikada tarkib topgan xalq ta'liming yangi tizimi yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Bu esa boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganishni Respublika ehtiyoji va uni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olishni talab qiladi.

Xalq ta'lifi tizimi va umumiy ta'lif maktabini boshqarishning ijtimoiy boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, unga rahbarlik qilish va uni boshqarishning me'yorini takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra bu masala xalq ta'lifi bo'limlarining, ta'lif — tarbiya masalalari rahbarlarining hamda pedagogika fani sohasida xizmat qilayotgan barcha olimlar va ilmiy xodimlarning doimiy diqqat e'tiboridagi bosh masalasi bo'lib qoldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, haqiqatdan ham iqtisodiyotimiz, madaniyat, ijtimoiy va ma'naviy hayotimiz mustaqillikni hozirgi sharoitida umumiy ta'limga ega bo'lgan insonni tarbiyalab yetishtirish darajasi va sifatiga yanada yuksakroq talablar qo'yilmoqda.

Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatlarga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatmiz istiqlolga erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yonetik mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Mazkur fikrga asoslanib aytishimiz zarurki, zamonaviy ijtimoiy – iqtisodiy sharoit ta'lim muassasalari boshqaruvi tizimini ham qayta ko'rib chiqish va uning zamonaviylashtirishni talab qiladi.

Chunki xozirgi kunda oliy ta'lim tizimida, umumiyoq o'rta ta'lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o'zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchan, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya oladigan, o'z ishining ustasi bo'lgan, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur biladigan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola biladigan mutaxassislar va rahbarlarning faoliyat ko'rsatishini talab qiladi.

Diyorimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilishi, uning tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib yangilab borishni ko'zda tutadi. Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirlishi, iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari qo'llamlarining kengayishi, tadbirkorlik, bozor iqtisotiyotining rivojlanishi, shuningdek uzliksiz ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, yoshlarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondoshuvining joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv tarbiya jarayonining didaktik jihatdan masofaviy ta'minlanishi ta'limni boshqarishning me'yoriy tizimini takomillashtirishiga asos bo'la oladi.

Uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan umumiyoq o'rta ta'limni rivojlanish, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini to'la qonli qondirish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilariga zaruriy va yetarli sharoitlarni yaratish maqsadida "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi farmon, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-sون «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sон «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq qabul qilingan qator hukumat qarorlari, me'yoriy asoslari umumiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan rivojlanish va o'zgarishlarga asos bo'lish bilan birgalikda mazkur sohaning rahbar va pedagogik xodimlariga o'ziga xos talablarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da ijtimoiy sohani yanada rivojlanantirish haqidagi MUROJAATNOMASIDA -maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalarni tubdan isloh qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish vazifalarni ta'kidladi;

- ilm-fan, zamonaviy va uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur deb quyidagi vazifalarni qayd qilindi;
- bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini bugungi 34 foizdan 2019 yilda 44 foizga yetkazish;
- umumiyoq o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish;
- farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- xususiy maktablar tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish;
- O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish.
- bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish;
- oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish;
- nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish;
- yoshlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat

Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish munosabatlарининг rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etадиган ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatlarga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatmiz istiqlolga erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yonetik mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Mazkur fikrga asoslanib aytishimiz zarurki, zamonaviy ijtimoiy – iqtisodiy sharoit ta'lim muassasalarini boshqaruvi tizimini ham qayta ko'rib chiqish va uning zamonaviylashtirishni talab qiladi.

Chunki xozirgi kunda oliy ta'lim tizimida, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o'zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchan, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya oladigan, o'z ishining ustasi bo'lgan, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur biladigan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola biladigan mutaxassislar va rahbarlarning faoliyat ko'rsatishini talab qiladi.

Diyorimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilishi, uning tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib yangilab borishni ko'zda tutadi. Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirishi, iqtisodiyotdagi ijobjiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari qo'llamalarining kengayishi, tadbirkorlik, bozor iqtisotiyotining rivojlanishi, shuningdek uzliksiz ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, yoshlarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondoshuvining joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv tarbiya jarayonining didaktik jihatdan masofaviy ta'minlanishi ta'limni boshqarishning me'yoriy tizimini takomillashtirishiga asos bo'la oladi.

Uzlusiz ta'limning poydevori hisoblangan umumiy o'rta ta'limni rivojlanish, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini to'la qonli qondirish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilariga zaruriy va yetarli sharoitlarni yaratish maqsadida "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlanirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi farmon, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq qabul qilingan qator hukumat qarorlari, me'yoriy asoslari umumiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan rivojlanish va o'zgarishlarga asos bo'lish bilan birgalikda mazkur sohaning rahbar va pedagogik xodimlariga o'ziga xos talablarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da ijtimoiy sohani yanada rivojlanirish haqidagi MUROJAATNOMASIDA -maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalarini tubdan isloh qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish vazifalarni ta'kidladi;

- ilm-fan, zamonaviy va uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur deb quyidagi vazifalarni qayd qilindi;
- bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini bugungi 34 foizdan 2019 yilda 44 foizga yetkazish;
- umumiy o'rta ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish;
- farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- xususiy maktablar tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish;
- O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish.
- bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borish;
- oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish;
- nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish;
- yoshlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga hujjat

topshirish imkoniyatini berish;

- oliy ta'lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish;
- bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish.
- OTMlarda ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish zarur.
- Yoshlarning bilim va ma'lumot olishining asosiy manbai Internet ekanini nazarda tutish zarur.
- «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida»gi vazifalarga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi.

1. Mazkur Nizom 2018-2019 o'quv yilida, shuningdek keyingi o'quv yillarida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan talabalarning bilimini nazorat qilish hamda baholashda qo'llaniladi.

2. Mazkur Nizom talablari qonun hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda qo'llanilmaydi.

3. Talabalar oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan Birinchi mashg'ulotda mazkur Nizom talablari bilan tanishtirilishi shart.

4. Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyat, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo'llaniladi.

Bu talablar Oliy ta'lim tizim bakalavriat talabalarini yuqori bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari uchun ko'proq mustaqil ishslash va fikrslash faoliyat bilan shug'ullanishlarini talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasasida nazorat turlarini o'tkazilishi tegishli oliy ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini

o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytdan o'tkazilishi mumkin.

Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash-ta'lim muassasasini baholash va tan olish bo'yicha tadbirlar tizimi, shuningdek, ular tavsiya qilgan tayyorlov dasturlarini mazmuni, to'laqonligicha, o'qitish darajasi va sifatini tan olish.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanish ko'rsatib o'tilgan:

- maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdag'i bolalar qiziqlishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yordarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

- rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

- rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;
- kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

- kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

- bola kompetensiyasi — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlar;

- integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtaqidagi bog'liqlik;

- inkiyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

- «Men» konsepsiyasi — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi;

- refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar aks etilgan.

Tub o'zgarishlar davri hayotimizga yanada chuqur kirib kelmoqda. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash asosiy

vazifalardan biri sifatida ko'rsatilgan. Bu vazifani amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvidagi ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish va kompyuterlashtirish g'oyasi «yangi pedagogik texnologiya» konsepsiyasida o'z aksini topgan. Yangi pedagogik texnologiyaning mazmuni quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimi murakkab tashkiliy tizim ekanligi va shu sababli tizimli tahlil ob'ekti bo'lishi zarurligini anglash;
- tizimli yondashuv zarurati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf qilish asosida ta'lif jarayonini jiddiy loyihalashtirish;
- O'qitishni ishlab chiqilgan loyiha asosida amalga oshirish.

Butun ta'lif muassasalarining hayotini samarali, oqilona tashkil qilish, ta'lif muassasalarining har bir rahbari va o'qituvchilari tomonidan o'z burchlarining sifatlari bajarilishi; o'quv tarbiya ishlarning muvaffaqiyati kelajakda qilinadigan ishlarning aniq – ravshanligiga, hal qilinayotgan masalalarining aniqligiga, vazifalarning to'g'ri taqsimlanishiga va ishni mohirlik bilan bir-biriga muvofiqlashtirib olib borilishiga bog'liq. Bunga faqat ko'p qirrali ta'lif muassasalarini hayotining har bir uchastkasida qilinadigan ishlarning puxta o'ylab tuzilgan reja bo'lsagina erishish mumkin.

Xalq ta'limi muassasasi ichki tuzilishga ega bo'lgan mexanizm bo'lib, uning har bir bo'g'ini faqat tartibli va samarali ishlaganida hamda o'quv – tarbiya jarayoni samarali boshqarilganida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Xalq maorifini boshqarishning asoslari tahlil qilinar ekan, ta'lif muassasalarining barcha jamoat, davlat va nodavlat tashkilotlarning rahbar himoyasi bo'lgan hukumatimizning rolini his etishimiz zarur. Xalq maorifining barcha sohalarini va o'qituvchilar armiyasini boshqarishning me'yoriy ishlari kengashlar orqali amalga oshiriladi.

Mustaqillik jamiyatimizning eng muhim aqidasi bu demokratik tamoyilidir. Bu tamoyil sotsializmdan mustaqillikka o'tish davrida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lif muassasalarida rahbarlik qilishda yakka boshchilik tamoyiliga tayanish zarurligini bir necha marta ta'kidlab o'tgan. Muassasalarimizni boshqarishning me'yoriydagisi yakka boshchilik tamoyili masalalarni muhokama qilish va ularni tayyorlashda jamoa bo'lib ishlash tamoyili bilan birga qo'yib

olib boriladi.

Buyuk mutafakkir, pedagog A.S.Makarenko aytganidek: «Jamoada ahil-ittifoqlig tashkil qilingan bo'lsa, bu jamoada har qanday qiyinchilikni bartaraf qilishi oson bo'ladi!»<sup>1</sup>.

Tashkiliy rahbarlikning juda ham muhim masala ekanligini barcha qonun va direktiva (dastur) larda ta'kidlab o'tilgan.

Ta'lif muassasalarini pedagogikaning bir qismi bo'lib, xalq maorif tizimini boshqarishning me'yoriy vazifalarini, uning mazmun va metodlarini belgilab metodologik nuqtai nazardan asoslanib beradi, rahbarlik qilish tartibini aniqlab beradi.

Maktab va o'rta maxsus ta'lif muassasalarining metodologik asosi,

**Birinchidan** — milliy tarbiyaning maqsad va vazifalari to'g'risidagi ta'lilotga;

**Ikkinchidan** — O'zbekiston xalq maorif tizimini boshqarishning me'yoriy haqidagi milliy istiqlol va g'oya ta'lilotiga asoslanish masalalaridir.

Xalq maorifi sistemasidagi muassasalarni boshqarishning me'yoriy va unga rahbarlik qilish mustaqillik davlati siyosatining to'g'ridan – to'g'ri va bevosita ifodasidir.

Mustaqillik jamiyatimizda boshqaruvchilar oldiga hukumat tomonidan qo'yilgan vazifalar quyidagicha: «O'qituvchilar jamoasi bu jamiyatimizning armiyasi bo'lib, birinchi navbatda xalq maorifning asosiy armiyasi bo'lmog'i lozim. Boshqaruvchilarning vazifalari — o'qituvchilik faoliyatini jamiyatni demokratik asosda tashkil etish vazifasi bilan bog'lashdan iboratdir».

Prezidentimiz aytganidek: «O'z-o'zini el ishiga bag'ishlagan inson tarbiyasiga jon tikkan oliyjanob o'qituvchilarni, mo'tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko'taramiz».

Orzu qushi u daraxtdan bu daraxtga sakrayotgan o'smir e'tirofi ham to'g'ri — muallimning ishi og'ir, u fidoiy inson. Bu masalalarni joy-joyiga qo'yib ish faoliyatni yuritish boshqaruvchidan katta mas'uliyat talab etadi.

O'quv — tarbiya ishini yaxshi yo'lda qo'yish uchun quyidagi sharoitlar muhayyo bo'lishi kerak:

<sup>1</sup> А.С.Макаренко. «Педагогическое поэма». Москва. 1978 г. С. 286

- o'quv xonalarni yaxshi jihozlash;
- texnika vositalar bilan ta'minlash;
- o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash;
- didaktik materiallar bilan ta'minlash;
- qulay va sof psixologik iqlim taminlash;
- o'qituvchi kollektivini ahil — inoq tashkil qilish.

Ta'lim muassasasi rahbarlari o'quv — tarbiya ishlarni boshqarishning me'yoriy asosi va rahbarlik qilish hamda nazoratni amalgalashishga o'quvchilarining o'z — o'zini boshqarishning me'yoriy bo'g'inalri, o'quvchilar komitetini yaxshi tashkil qilish yaxshi natijalar beradi. Ta'lim muassasasida agar o'quvchilar komitetini yaxshi yo'lga qo'ysak, ta'lim muassasasida har qancha ishlarni tashkil qilish oson bo'ladi.

Tarbiyaning maqsadi — uning ko'zlangan natijasidir.

Ta'lim muassasasiga ta'lim — tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish masalasi maktab va o'quv muassasasi ichki boshqaruv tizimida muhim o'rinni egallaydi. Uning maqsadi ta'lim — tarbiya ishlarni hozirgi davr talablari asosida tashkil qilish va bu boradagi ilg'or pedagogik tajribalarga asoslanish, samarali yo'llar bilan uni yanada takomillashtirishdir.

Ta'lim — tarbiya ishlariga rahbarlik qilish asosi bu birinchi navbatda ta'lim muassasasida sof psixologik iqlimi vujudga keltilish, o'qituvchilar jamoasining bir yoqadan bosh chiqarib, o'quv — tarbiya ishlarni hozirgi zamon talablariga javob beradigan holda tashkil qilishdan iboratdir. Shuni alohida qayd qilish kerakki, Respublikamizda yuz berayotgan o'zgarishlar va fan — texnika taraqqiyoti, ta'lim muassasasining ta'lim — tarbiya ishini qayta ko'rishning asosiy yo'nalishlari maorifning yuqori bo'g'inalri tomonidan belgilab berilgan.

Binobarin, ta'lim jarayonining takomillashuvi ta'lim — tarbiya nazariyasidagi barcha masalalarni: ta'lim muassasadagi ta'limning mazmuni (o'quv reja, o'quv dasturi, darsliklar), ta'lim prinsiplari, o'qitishning shakli, uslubi va vositalari, ta'limni tashkil qilish shakllarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Muassasa rahbarlari agar ta'lim — tarbiya ishlariga rahbarlik qilishda o'quv qo'llanmalari, ilmiy, nazariy, metodik va umum-pedagogik adabiyotlardan foydalansa, bu ishda yaxshi natijaga

erishishi mumkin.

Ta'lim ishini qayta ko'rish sharofati bilan ta'limning o'quv rejalariga yangi fikrlar kiritildi.

**Loyihalashtirish** — ta'limning mazmuni qismini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ta'limning umumiyligi va konkret maqsadlari, o'qitiladigan fanlar majmuasini aniqlash, har bir fanning mazmuni, soatlar hajmi va boshqalarni taxmin qiladi.

Yangi pedagogik texnologiya ta'limni amalgalashish qismida o'qituvchi ishining uslub va shakllarini chegaralamaydi, biroq davlat ta'limi standartlari orqali o'qituvchining ta'lim jarayonini tashxis qilishga va umuman o'qitish jarayonini boshqarishning me'yoriy samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatini jadallashtiradi. Shunday qilib, ta'limning mazmuni qismida ma'lum ma'noda reglamentatsiya mavjud bo'lsada, protsessual qismni joriy etishda bir muncha erkinligi borligida yangi pedagogik texnologiyaning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida boshqaruv (**axborot texnologivalari**) quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayoni joriy holatini kuzatish, muammolarini tahlil qilish, rejalashtirish va nazorat qilish;
- o'quv — uslubiy va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashi hamda ularga bo'lgan zaruratni aniqlash;
- o'qituvchi, talaba va boshqa xodimlar kontingentini kuzatish;
- o'quv — uslubiy va ilmiy — texnik adabiyotlar bilan ta'minlashini avtomatlashtirish;
- ilmiy — tadqiqot ishlarni kuzatish va natijalarini tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va moliyaviy — iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish, boshqarishning me'yoriy va nazorat qilish masalalari bo'yicha boshqaruv tavsiyalarini ishlab chiqadi. Bu tizimlarning yana bir muhim vazifasi — har bir boshqaruv yo'nalishi bo'yicha tegishli ma'lumotlar bazasini yaratishdan iboratdir.

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasasi xodimlariga yuklanadi.

Bu o'z navbatida ishini maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bog'liqidir. Qaysi maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalarda ichki va tashqi nazorat ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha maktab va

o'rta maxsus ta'lim muassasalardagi ta'lim- tarbiya ishlari ham yaxshi bo'ladi.

Pedagogik tizim har qanday jamiyatga, hayotning barcha sohaliga xos bo'lgan narsadir. Hozirgi sharoitdagi boshqarishning me'yoriy ijtimoiy va xususiy mulkka asoslangan. Pedagogik tizim oldiga qo'yilgan asosiy maqsad shaxsnинг moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tobora to'la qondirish va rivojlantirishdan iborat.

Jamiyatni ishchilar, dehqonlar va ziyorolar boshqaradilar. Boshqarishning me'yoriy ularning manfaatlarini ko'zlagan holda amalgamoshiriladi.

Jamiyatimizning rivojlanishi a'zolarning ongi, ma'naviy madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik muvaffaqiyatli amalgamoshiriladi.

Jamiyatni ma'naviy hayotini boshqarishning asosiy maqsadi — ilm- ma'rifatli, madaniyatli, har tomonlama kamol topgan shaxs, yuksak darajadagi pok va axloqli kishilarni tarbiyalashdan iborat. Biroq, uyushqoqlik tartib, mehnat taqsimoti bo'lmasa, mehnat ja'moasi bo'lishi mumkin emas. Tabiiyki, boshqaruvsiz, muayyan taribni o'rnatmasdan turib, mehnat faoliyatini keng miqyoslarda amalga oshirib bo'lmaydi.

Idora qiluvchi kishilarni bir-biriga muvofiqlashtirish uchun organizm harakatidan kelib chiqadigan umumiy vazifalarni bajarilishi lozim.

Masalan: yakka skripkachi skripka chalganda o'zini idora qila oladi. Lekin orkestr esa dirijorga muhtojdir. Demak, boshqaruvning muhim sharti boshqaruvchi rahbarning ishidir.

Maktab va ta'lim muassasalarni ichki nazoratining bir qancha yo'l-yo'riqlari mavjuddir. Ularning asoschisi maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar direktori va ilmiy bo'lim mudirlarining darslarga kirib, mashg'ulotlarning har xil turlarini tahlil qilishdan iborat.

Rahbarlik qilishda uchraydigan har qanday masalani to'g'ri hal qilmoq uchun boshqarishning me'yoriy asoslari, pedagogika fanini metodologiyasini va yangi pedagogik texnologiya asoslarini yaxshi bilib olish zarur. Ya'ni ta'lim muassasa sohasida yuz bergen har qanday muammolarni yaxshi anglay olish zarur: busiz rahbarlik qilishda uchraydigan masalalarni to'g'ri yechish yo'lini topib bo'lmaydi.

Muassasalar haqidagi qonunlar, direktivlar va qarorlar mustaqillik sistemasini ifodalaydi, bu sistema ta'lim muassasalarini boshqarishning me'yoriy asosidir.

Ta'lim muassasalari boshqarishning me'yoriy asoslar va unga rahbarlik qilishning eng muhim qoidalarini belgilashda «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur» ni qabul qilingan qarorlarining tarixiy rolini alohida ko'rsatib o'tish kerak.

Hukumatimizning demokratik davlatni boshqarishning me'yoriy to'g'risidagi ta'limoti mustaqillik jamiyatimizning ma'muriy huquqining negizidir.

Ta'lim muassasalarini boshqarishning me'yoriy O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunning 28- moddasiga asosan ko'satilgan talab asosida bo'lishi lozim.

Jumladan: ta'lim muassasalarida qonun hujjaligiga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin. (qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin).

- 8406 -

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining mazmun va mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari fanining ahamiyati nimada?
3. Pedagogik tizim asoslari va tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Boshqarishning me'yoriy faoliyati haqidagi tushunchalaringiz.

#### Tayanch so'zlar:

Pedagogik tizim, hujjalashtirish. boshqarishning me'yoriy asosi, mohiyat, tushuncha, daraja, tarkib, ob'yekt, sub'yekt, shakl, usullar, uslub qo'llanish, abstrakt, birikma va boshqalar.

o'rta maxsus ta'lim muassasalardagi ta'lim- tarbiya ishlari ham yaxshi bo'ladi.

Pedagogik tizim har qanday jamiyatga, hayotning barcha sohaliga xos bo'lgan narsadir. Hozirgi sharoitdagi boshqarishning me'yoriy ijtimoiy va xususiy mulkka asoslangan. Pedagogik tizim oldiga qo'yilgan asosiy maqsad shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tobora to'la qondirish va rivojlantirishdan iborat.

Jamiyatni ishchilar, dehqonlar va ziyorolar boshqaradilar. Boshqarishning me'yoriy ularning manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi.

Jamiyatimizning rivojlanishi a'zolarning ongi, ma'naviy madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik muvaffaqiyatlama amalga oshiriladi.

Jamiyatni ma'naviy hayotini boshqarishning asosiy maqsadi — ilm- ma'rifatli, madaniyatli, har tomonlama kamol topgan shaxs, yuksak darajadagi pok va axloqli kishilarni tarbiyalashdan iborat. Biroq, uyushqoqlik tartib, mehnat taqsimoti bo'lmasa, mehnat ja'moasi bo'lishi mumkin emas. Tabiiyki, boshqaruvsiz, muayyan tartibni o'rnatmasdan turib, mehnat faoliyatini keng miqyoslarda amalga oshirib bo'lmaydi.

Idora qiluvchi kishilarni bir-biriga muvofiqlashtirish uchun organizm harakatidan kelib chiqadigan umumiy vazifalarni bajarilishi lozim.

Masalan: yakka skripkachi skripka chalganda o'zini idora qila oladi. Lekin orkestr esa dirijorga muhtojdir. Demak, boshqaruvning muhim sharti boshqaruvchi rahbarning ishidir.

Maktab va ta'lim muassasalarni ichki nazoratining bir qancha yo'l-yo'riqlari mavjuddir. Ularning asoschisi maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar direktori va ilmiy bo'lim mudirlarining darslarga kirib, mashg'ulotlarning har xil turlarini tahlil qilishdan iborat.

Rahbarlik qilishda uchraydigan har qanday masalani to'g'ri hal qilmoq uchun boshqarishning me'yoriy asoslari, pedagogika fanini metodologiyasini va yangi pedagogik texnologiya asoslarini yaxshi bilib olish zarur. Ya'ni ta'lim muassasa sohasida yuz bergen har qanday muammolarni yaxshi anglay olish zarur: busiz rahbarlik qilishda uchraydigan masalalarni to'g'ri yechish yo'lini topib bo'lmaydi.

Muassasalar haqidagi qonunlar, direktivlar va qarorlar mustaqillik sistemasini ifodalaydi, bu sistema ta'lim muassasalarini boshqarishning me'yoriy asosidir.

Ta'lim muassasalari boshqarishning me'yoriy asoslari va unga rahbarlik qilishning eng muhim qoidalarini belgilashda «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur» ni qabul qilingan qarorlarining tarixiy rolini alohida ko'rsatib o'tish kerak.

Hukumatimizning demokratik davlatni boshqarishning me'yoriy to'g'risidagi ta'limoti mustaqillik jamiyatimizning ma'muriy huquqining negizidir.

Ta'lim muassasalarini boshqarishning me'yoriy O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunning 28- moddasiga asosan ko'satilgan talab asosida bo'lishi lozim.

Jumladan: ta'lim muassasalarida qonun hujjalari muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin. (qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin).

-8406-

### Takrorlash uchun savollar:

1. Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining mazmun va mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari fanining ahamiyati nimada?
3. Pedagogik tizim asoslari va tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Boshqarishning me'yoriy faoliyati haqidagi tushunchalaringiz.

### Tayanch so'zlar:

Pedagogik tizim, hujjalashtirish. boshqarishning me'yoriy asosi, mohiyat, tushuncha, daraja, tarkib, ob'yekt, sub'yekt, shakl, usullar, uslub qo'llanish, abstrakt, birikma va boshqalar.

## Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining maqsad, vazifalari va uning metodlari.

**Pedagogika** fanining maqsad, Maktab o'rtalik maxsus ta'limga muassasalarini vazifalari va uning **mazmun** mamlakat hayoti bilan mustaqillik qurishdagi amaliy ishlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, mustaqillik davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy vazifalariga xizmat qiladi.

Bu esa muassasalar zimmasiga madaniyatli, ma'lumotli, har tomonlarga yetuk, yuksak sifatlar egasi bo'lgan barkamol avlod yetishtirish vazifasini izlaydi.

O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi ta'limga muassasalarini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, milliy tizimni yaratishdir.

Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslarini asosiy maqsadi – ta'limga muassasalarida tashkil etiladigan ta'limga tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda, muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda ta'limga tarbiya jarayonini ishtirokchilari bo'lgan rahbarlar, mutaxassislar va ijrochilarining munosabatlari va faoliyatlarini muvoifiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashdan iborat.

Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslarini fani ta'limga muassasalarini rahbarlarining boshqaruv faoliyati, mas'uliyati va madaniyati, boshqaruv funksiyalari va metodlari, boshqarishning qonun qoidalari va tamoyillari, rahbar va lider fazilatlari, muassasalarini boshqarishning me'yoriyida axborot va kommunikatsiya, innovatsion faoliyati tarbiyaviy munosabatlari va rahbarlik uslublari, ta'limga muassasalarining tashkiliy tuzilishi, strategik boshqaruv va rejulashtirish, rahbarning ish vaqtini undan foydalanish, persional boshqarishning me'yoriy hamda motivlashtirish nazariyalarini tadqiq etishdir.

Me'yoriy asoslar boshqarishning maqsadi zamonaviy ijtimoiy – iqtisodiy shart sharoitlarda rahbarlik qila oladigan malakali boshqaruvchilarini tayyorlash, ya'ni rahbarlar va xodimlar malakasini oshirish ularni rahbarlik va tashkilotchilik san'ati sirlarini o'rgana

oladigan darajada nazariy va amaliy bilimlar berishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutiladi: «Ta'limga to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq ta'limga tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'limga muassasalarini hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitni shakllantirish negizida ta'limga tizimini yagona o'quv ilmiy ishlari bo'yicha – ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash:

- ta'limga va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilish jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'limga oluvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'limga va kadrlar tayyorlash, ta'limga muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimni joriy qilish;

- yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarda ta'limga talab qilinadigan darajasi va sifatini ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'limga, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlangan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini mexanizmlarini ishlab chiqarish;

- uzluksiz ta'limga va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'larning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Pedagogik ta'limga tizimini kengroq ma'noda olganda, barcha tipdagi maktablar, oliy va o'rtalik maxsus, kasb – hunar o'quv yurtlari,

maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari tarbiya muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar, pedagogik xodimlarni, ota – onalarni, barcha kasb egalarini pedagogik bilimlar bilan, ya'ni barkamol insonni shakllantirish qonuniyatlari, tarbiya va ta'limgardagi tamoillari mazmu-ni, shakl va usullari bilan qurollantirishdan iborat.

**Pedagogik tizimni vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

1. O'qituvchilar va boshqa pedagogik xodimlarni tayyorlashda ishini jahoning rivojlangan mamlakatlari darajasida tashkil etish.

2. Ota – onalar, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanadigan jamoat tashkilotlari xodimlari orasida pedagogik bilimlarni yoyish.

3. Amaliy faoliyatda odamlar bilan muloqotda bo'ladigan kasb egalarini tayyorlashda ta'limgardagi tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ruhshunoslik, pedagogikaga doir bilimlarni berish.

4. Pedagogik xodimlar va xalq xo'jaligining barcha sohalarida mehnat qiladigan mutaxassislarining malakasini oshirish jarayonida ularni pedagogik bilim va malakalar bilan qurollantirish.

Turli yo'nalishda va turli darajada xodimlar tayyorlash va ularning yuqori malakali sifatida voyaga yetkazish pedagogik tizimning bosh vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'limgardagi muassasalarida ishlash uchun tayyorlanayotgan kadrlar: pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon; umuminsoniy va milliy – madaniy qadriyatlarni, dun-yoviy bilimlarni mukammal egallagan, shuningdek umuminsoniy qadriyat sifatida ilohiy ishlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol, fuqarolik burchini anglagan, ixtisosiga doir bilim, ko'nikmalarni, psixologo – pedagogik, metodik bilimlarni egallangan; kasbi va bolalarni yaxshi ko'radigan, talabchan,adolatli, pedagogik odobli bo'lib yetishishlariga ko'maklashadigan kishi bo'lmog'i kerak.

Yuqoridaqgi vazifalarni bajarish uchun o'qituvchilar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

Buning uchun:

– davlat jamoatchilikning, ota – onalarning kuch – g'ayrati: pedagogika o'quv yurtlari va pedagogika universitetlari uchun ajratilgan mablag'larni ko'paytirish orqali ularning o'quv – moddiy bazasini mustahkamlash; o'qituvchining maoshini jumhuriyatda o'rtacha maoshdan yuqori bo'lishini ta'minlab, ularning ishslash va yashash sharoitlarini yaxshilashga erishib, jamiyatdagi mavqeini

oshirish;

– pedagogika o'quv yurtlari qabul qilish mexanizmini takomillashtirish, pedagogik faoliyatga qobiliyatli, qiziqishi bor, bilimdon kishilarni o'qishga qabul qilish;

– pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, shartnoma asosida maqsadli tayyorlash tizimiga o'tish;

– bo'lajak o'qituvchilar, pedagogik xodimlarni kichik mutaxassis, bakalavr va magistr darajalarida tayyorlashni yo'lga qo'yish zarur.

**Pedagogik tizimni boshqarishning me'oriy tuzilmalari.**

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'limgardagi ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan tizimni boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bog'liqdir. Qaysi o'quv muassasalarda ichki va tashqi nazorat ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha muassasadagi ta'limgardagi tarbiya ishlari talabga muvofiq bo'ladi. Maktab ichki boshqaruvi bir qancha uslubiy ishlarga mansub.

Boshqaruvchi endigina ish faoliyatni boshlaydigan xodimlarga hamisha e'tibor bilan qarashni talab qilinadi. Biroq tajribali va malakali pedagoglar ham tekshirishga ehtiyoj sezadilar. Bunday tekshirish o'qituvchilarni rag'batlantiradi hamda direktorga eng yaxshi tajribani o'rghanishga imkon beradi.

Direktor va uning o'rning bolalar bilan olib boriladigan o'quv va o'quvdan tashqari ishlarning barcha shakllariga rahbarlik qiladilar va ularni tekshirib turadilar.

Direktor va uning o'rning tadbirlarni g'oyaviy yo'nalishini tashkil etishning ilmiy – metodik darajasi, talabalarning qiziqishlari va ularning faolligi, mashg'ulotning o'quv – tarbiyaviy qiymatiga alohida e'tibor qaratadilar.


Shu holatlarda boshqaruvchining boshqaruvi metodlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ular boshqaruvi jarayonida xodimlar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining yig'indisi hisoblanadi. Boshqaruv metodlari asosini mazkur ta'sir ko'rsatish usullari majmui, ya'ni ta'sir ko'rsatish mexanizmi tashkil etadi.

Lekin shuni e'tiborga olish lozimki, metod bu tamomila obektiv,

rahbarga bog'liq bo'lgan va mustaqil tushunchadir.

Boshqaruv metodlari asosan 4 guruhga bo'linadi:

1. iqtisodiy metodlar
2. tashkiliy – ma'muriy metodlar
3. ijtimoiy – psixologik metodlar
4. axborotlar to'plash metodlari



**Iqtisodiy metodlar** – bu metodlar o'zaro bog'liq bo'lган iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'idisini tavsiflab, har bir ishchi va butun muassasa uchun talablar belgilash bilan birlgilikda faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi.

Ta'limga ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'limga oluvchi ong shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'z munosib o'rmini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchi yoshlarning ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir.

**Tashkiliy – ma'muriy metodlar** – ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni bajaradi, faqat ularning ta'sir ko'rsatish usullari va shakllari o'zaro farq qiladi. Barcha jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olgan holda ularni qiziqishi, manfaatlari, bilimi, qobiliyatlarini va shu kabilarga xizmat qiladi.

Ta'limga sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalgalashishiga yordam beruvchilari va erishilgan qator ijobjiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'limga sifat samaradorligi rivojlanishi dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Ijtimoiy – psixologik metodlar – muassasa jamoasida sog'lom muhitni yaratishdan iborat. U o'z ichiga ijtimoiy – me'yoriy ishlar, ijtimoiy – siyosiy usullar, tartibga solish yo'llar va ma'nnaviy rag'batlantirish ishlarini oladi. Ta'limga tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy tuzilishi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi. Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, yoki maktabdagi, ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning sub'yekti hisoblanadi va kishining ijtimoiy mohiyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

"Ijtimoiy tarbiya" iborasidan ancha tor ma'noda shaxsga ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof ijtimoiy muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniлади.

**Axborotlar to'plash metodi** – ta'limga muassasaning faoliyatini takomillashtirish uchun rahbarlarning faoliyatini ilmiy asosda axborotlar to'g'risida, amalgalashishda xizmat qiladi.

Respublika Ta'limga muassasaini yagona axborot maydoniga birlashtirish, elektron hujjat almashinuv elementlarini joriy etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va ta'limga muassasa orasidagi o'zaro aloqalarni ta'minlaydigan Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi vazirligi korporativ axborot tarmog'i yaratildi.

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi vazirligi portalida 8798 elektron o'quv manbalarning matnli bazasi yaratildi. Vazirlik korporativ axborot tarmog'iga o'quv-tarbiyaviy jarayonni doimiy monitoringini olib borishni ta'minlovchi barcha ta'limga muassasa elektron pasportlari va barcha o'qituvchilar, bakalavriyat, magistratura va aspiranturada o'qiyotgan talabalar (shuningdek o'zlashtirish ko'rsatkichlari) haqida ma'lumotlar kiritilgan.

... Ta'limga muassasa fundamental kutubxonalari axborot almashish va yetkazish vositalari kompyuterlar va ko'paytirish texnikalari bilan jihozlandi. Ularda fondni shakllantirish va ma'lumot qidirishningi avtomatlashtirilgan tizimi "Irbis" joriy etilgan. Zamonaliv kutubxonalar an'anaviy qog'ozdagi fond bilan bir qatorda kitoblarning elektron versiyalari, shaxsiy yaratilgan, shu bilan birga chetdan keltirilgan elektron darsliklarga ega.

O'quv muassasasida har bir talaba jiddiy hisobga olib boriladi. Alfavit daftar, shaxsiy delo (papka) bo'ladi. Bolalarni boshqa muassasaga o'tishi nazoratda bo'ladi. Muassasa esa XTB ga yillik statistik hisobot taqdim qiladi.

O'quv yilining yakuniga ota – onalar yig'ilishi chaqiriladi. Muassasalarning ta'lim – tarbiya natijalari hisoboti beriladi.

Har bir o'qituvchi o'z vazifalarini bajarish, maktab va ta'lim muassasa mulkini belgilangan tartibda o'z joylarida saqlashga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishi kerak. O'quv – tarbiya ishlari ustidan kundalik maktab va muassasa ichki nazorati muassasaning barcha ishlarining yuksak darajasini ta'minlashga, o'quvchi – tala-balarning qiziqarli tajribalarini ma'qullash va yoyishga, ba'zi o'qituvchilar ishidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi. Tekshirish natijalari metod birlashma va direktor qoshidagi kengashlarda, pedagoglar jamoasida va ishlab chiqarish kengashlarida muhokama qilinadi.

**Boshqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ichki ish uslubi rejasi quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:**

1. Ta'lim muassasalarining hamma ko'rsatkichlari bo'yicha rejaning bajarilishi.
2. O'quv – tarbiya ishlarining ahvoli.
3. O'qishdan va o'qishdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar.
4. Muassasadagi jamoatchilik hamda otalik tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.
5. Muassasalarda pedagog xodimlar bilash ishslash masalasi.
6. Muassasa hujjatlarini yuritish holati.
7. O'quvchi yoshlar tashkilotlarining ishlari.
8. Muassasaning moliya xo'jalik ishlari.
9. Muassasa, oila va jamoatchilik hamkorligi.
10. Guruh rahbarlarining ishlari va hokazo masalalar.

## 1. HUQUQIY-ME'YORIY HUJJATLARNI O'RGANISH, UNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH VA O'QITUVCHILARGA TUSHUNTIRIB BORISH

Nº	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati
1	Ta'lim muassasasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim –tarbiya jarayonini tashkil etish va ijrosini ta'minlash.	Muntazam
2	Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek o'zoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni uysa o'qitish" to'g'risida yo'riqnomasi asosida ishni tashkil etish.	2018 yil avgust va o'quv yili davomida
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish haqidagi MUROJAATNOMASIDA -maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalarini tubdan isloh qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish vazifalarni ta'kidladi	2018 yil avgust
4	Vazirlar Mahkamasi 2005 yil 21 dekabrdagi 275-sonli "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 275-qarorlarining ijrosini ta'minlash	2018-2019 o'quv yili dekabr, iyun
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlash	2018-2019 o'quv yili davomida
6	Xalq ta'limi vazirligining 2013 yil 30 avgustdag'i "Zamonaviy axborot kommunikatsiya va interaktiv pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha maktab-laboratoriylarini tashkish etish to'g'risida" gi 280-sonli buyrug'i asosida ishlarni tashkil etish	2018-2019 o'quv yili davomida
7	"Ustoz-shogird", "O'rgan-o'rgat", "Dars muqaddas", "Mahorat maktabi" tadbirlar majmualari asosidagi ishlarni davom ettirish	2018-2019 o'quv yili davomida

8	Iqtidorli o'quvchilarni "Bilimlar bellashuvi" va "Fan olimpiadalarini"da ishtirokini ta'minlash, shahar, viloyat va respublika bosqichi natijalarini chuqur tahlil etish orqali fan o'qituvchilarining mas'uliyatini yanada oshirish.	2018 yil oktyabr oyidan 2019 yil may oyiga qadar
9	Chirchiq shahar XTB tomonidan taqdim etilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida faoliyatni yuritish.	2018-2019 o'quv yili davomida

## II. O'QUV- TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Nº	Bajariladigan ishlар mazmuni	Muddati
1	O'quv jarayonini tashkil qilish, ta'lim standartlariga muvofiq o'quv-tarbiyaviy rejalar va dasturlarning bajarilishini ta'minlash.	Muntazam
2	Pedagogik kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etish.	August-sentyabr, o'quv yili davomida
3	O'quv-metodik ishlarga rahbarlik qilish.	O'quv yili davomida
4	O'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishni tashkil etish.	Muntazam
5	Pedagogik xodimlarga metodik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilishni tashkil etish va amalga oshirish.	O'quv yili davomida
6	O'qituvchilar faoliyatining yillik, choraklik, oylik rejalarini tasdiqlash, bajarilishini nazorat qilish, o'qituvchilar faoliyatining tasdiqlangan rejalarga mos ravishda ish vaqtি hisobini olib borish.	August va o'quv yili davomida
7	Dars mashg'ulotlari, imtihonlar jadvali va boshqa o'quv tadbirlarni ishlab chiqish.	August, may oylari va o'quv yili davomida
8	Muassasada nazorat ishlарini tashkil etish, ta'lim standartlari talablari bajaralishi hamda o'quvchilarning o'zlashtirishi monitoringini olib borish.	Har chorakda
9	Fakultativ mashg'ulotlar va fan to'garaklarining ishlashini tashkil etish.	15 sentyabrgacha
10	Ko'zgi sinovga qoldirilgan o'quvchilar uchun imtihonlar jadvalini tashkil etish.	August oyining 4-haftasi

11	Fan xonalarini namoyish va texnik ta'lim vositalari bilan jihozlanishiga rahbarlik qilish	Muntazam
12	Fanlar bo'yicha metodik materiallar ishlab chiqilishini nazorat etish	Muntazam
13	Yosh o'qituvchilarga metodik yordam berish, o'qituvchilar malakasini, kasbiy mahoratini oshirish ishlarini olib borish, o'quvchilar o'quv yuklamasini takomillashtirish.	O'quv yili davomida
14	Sinf jurnallarini yuritilishi va saqlanilishini ta'minlash.	O'quv yili davomida
15	O'quv ishlari holati va natijalari to'g'risida hisobotlarni tuzish va yuqori tashkilotlarga topshirish.	Har chorakda
16	Monitoring xonasini tartibga keltirish.	August-sentyabr
17	Uyda ta'lim tashkil etilishi lozim bo'lgan nogiron bolalarni aniqlash, ularga o'qituvchilar biriktirish va mashg'ulotlar olib borilishini nazorat qilish.	Sentyabr va o'quv yili davomida

## III. MUASSASANING PEDAGOGIKA KENGASHIGA KIRITILADIGAN MASALALAR

Nº	Bajariladigan ishlар mazmuni	Muddati
1	1. 2018-2019- o'quv yilidagi o'quv tarbiyaviy ishlар tahlili va yangi o'quv yiliga qo'yilgan vazifalar. 2. Muassasaning 2018-2019 o'quv yili ish rejasini va ichki mehnat tartibini, dars jadvalini tasdiqlash to'g'risida. O'qituvchilarning ped yuklamalarini tasdiqlash. Sinf rahbarlarni tayinlash, metod birlashma va mikrouchastka rahbarlarini saylab olish. O'qituvchi imidji. 3. O'quvchilarni 1-sinfga qabul qilish. Maktabda ta'lim olayotgan kam ta'minlangan o'quvchilar haqida va boshqalar.	2018 yil avgust 4-hafta

2	<p>1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirzieev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish haqidagi MUROJAATNOMASI.</p> <p>2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 26-avgustdagи "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 451-sonli qarorining ijrosi to'g'risida.</p> <p>3. 1 chorakda DTS talabalarining bajarilishi monitoringi. O'quvchilar bilimlarida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha olib borilgan ishlар to'g'risida</p>	2018 yil noyabr 1-hafta	<p>5</p> <p>1. 4-8 sinf o'quvchilarini bosqichli nazorat imtixonlari va 9 sinf o'quvchilarini yakuniy davlat attestatsiyaga kiritilishi to'g'risida</p> <p>2. 4 chorakda DTS talabalarining bajarilishi monitoringi. O'quvchilar bilimda aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish ishlар hisoboti</p> <p>3. O'quvchilarining yozgi sog'lomlashtirish mavsumiga tayyorgarlik, mакtab qoshida faoliyat ko'rsatadigan oromgoh va sport sog'lomlashtirish maydonchalarida o'quvchilarining dam olishlari hamda yozgi mehnat amaliyotini tashkil etilishi haqida</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagи "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3434-sonli farmoni doirasida amalga oshirilayotgan ishlар haqida</p>	2019 yil may 1-hafta
3	<p>1. 2 chorakda DTS talabalarining bajarilishi monitoringi. O'quvchilar bilimlarida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha olib borilgan ishlар to'g'risida. Fan olimpiadalari natijalari to'g'risida. Boshlang'ich va yuqori sinflar o'rtasidagi uzviylik. "Ustoz-shogird" an'anasi.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 275-sonli qarorda belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risida.</p>	2019 yil yanvar 1-hafta	<p>6</p> <p>1. Bosqichli nazorat imtihonlari natijalari asosida 4-8 sinf o'quvchilarini sinfdan-sinfga ko'chirish to'g'risida</p> <p>2. Bitiruvchi 9 sinf o'quvchilariga shahodatnomalarni berish to'g'risida</p> <p>3. 2019-2019 o'quv yili yakunlari to'g'risida hisobot. O'B rahbarlari taqdimoti</p>	2019 yil may 4-hafta
4	<p>1. 2018-2019 o'quv yilda bitiruvchilarining to'g'ri kasb tanlashlarida maktab, AL va KXXKlari hamkorligida olib borilayotgan ishlар to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagи "Ijtimoiy ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparstlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori asosida tashkil etilayotgan ishlар haqida</p> <p>2. 3 chorakda DTS talabalarining bajarilishi monitoringi.</p> <p>3. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichli nazorat imtihonlari va yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi Nizom haqida</p>	2019 yil mart 4-hafta	<p>7</p> <p>2019-2019 o'quv yilda 9-sinf bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari va ularga shahodatnomalarni berish haqida</p>	2019 yil iyun 2-hafta

**RAHBAR HUZURIDAGI ISHLAB CHIQARISH  
YIG'ILISHIDA KO'RILADIGAN MASALALAR**

<b>Nº</b>	<b>Bajariladigan ishlar mazmuni</b>	<b>muddati</b>
1	<p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish haqidagi MUROJAATNOMASI.</p> <p>2.O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 26-fevraldag'i "Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3857-tonli Farmoni va Prezidentining 2007-yil 29-martdag'i "Umumta'lim maktablarining na'munaviy shtatlarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 609-tonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 30-martdag'i "Xalq ta'limi muassasalarining moliyaviy-iqtisodiy ta'minoti takomallashtirish chora-tadbirlari"ni amalga oshirish</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2006-yil 16-iyundagi "Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun shahodatnomalarni berish ishlarini tashkil etish to'g'risida" gi 161-tonli buyrug'inining ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida</p>	2019 yil iyul, avgust
2	<p>1. O'quvchilarning darsliklar bilan ta'minlanish holatini o'rganish</p> <p>2. O'quvchilar va o'qituvchilar navbatchiligini tashkil etish</p> <p>3. Sinf jurnallarini tekshirish</p>	2019 yil Sentyabr
3	<p>1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Voyaga etmagan ishlari bo'yicha" komissiyasining 360-tonli qarorining ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar</p> <p>2. 2-4 sinflarda o'quvchilarning o'qish texnikasini tekshirish.</p> <p>3. Sinf jurnallari yuritilishini nazorat qilish</p>	2019 yil oktyabr
4	<p>1. 9-sinflarda umumiyy tekshiruv</p> <p>2. Maktabda fanlar olimpiyadasi</p> <p>3. O'qituvchilar darslarini kuzatish</p>	2019 yil noyabr

5	<p>1. 1-sinf o'quvchilari savodxonligini tekshirish</p> <p>2. 1-4 sinflarda tarbiyaviy soatlar o'tkazilishi ahvolini tekshirish</p>	2019 yil dekabr
6	<p>1. 1 yarim yillik dasturlarining bajarilishini o'rganish</p> <p>2. Usuliy birlashmalarning ishlari reja asosida olib borilganligini tahlil etish.</p>	2019 yil yanvar
7	<p>1. 8-9 sind o'quvchilarining kundalik daftarlari yuritilishi ahvolini tekshirish</p> <p>2. Bilimlar bellashuvni natijalari haqida</p>	2019 yil fevral
8	<p>1. Sinf jurnalari yuritilishi axvolini tekshirish</p> <p>2. Fan o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali qurollarning dars jarayonida qo'llanilishi, "Ko'rgazmali qurollar" tanloving shahar bosqichi natijalari.</p>	2019 yil mart
9	<p>1. 1-4 sinflarda tasviriy san'at, 8-9 sinflarda chizmachilik fani o'qitilishi ahvoli hamda o'quvchilar bilimining DTS talablariga moslik darajasini o'rganish</p> <p>2. 2018-2019 o'quv yili yakuniy davlat attestatsiyasi va bosqichli nazorat imtihonlarini o'tkazish tartibi to'g'risida</p>	2019 yil aprel
10	<p>1. Yillik o'quv dasturlarining bajarilishini o'rganish</p> <p>2. 2018-2019 o'quv yili yakuni hisobotlari to'g'risida</p>	2019 yil may

Hozirgi davrda ta'lif muassasalari tizimida muhim tarixiy vazifani amalda to'laroq hal etish – mamlakatimiz xalq ta'lif tizimiga yuqori malakali va bilimdon mutaxassislar yetkazib berish masalasi hal etilmoqda ya'ni oliy ta'lif tizimini rivojlanib borayotgan talabini va kelajagini hisobga olib, oliy o'quv yurtlarining professor – o'qituvchilari asosan to'rt shartga javob berishlarini talab etmoqda:

1. O'z fanini a'lo darajada bilish.
2. O'z kasbini jon – dilidan sevish.
3. Talabalarda fanga nisbatan muhabbat uyg'otish.
4. Amaliy ishlarni hozirgi davr talablari asosida uyushtirish va chuqur bilimga ega bo'lish.

Buning uchun o'qituvchi didaktik qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Ya'ni ta'lif jarayonida; a). talabalarga mukammal bilim berish; b).berilgan bilimga nisbatan talabalardan talab qilish; v).talabalarni bilim darajasiga to'g'ri baho berish zarur.

Undan ma'lum bo'ladiki, mutaxassislarining sifatini yanada yaxshilashga, ularning ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga erishishdan iboratdir. Bu o'z navbatida talabalarga ta'lim berishni tubdan yaxshilash va ularga zamon talablari darajasida ta'lim – tarbiya berishni talab qiladi.

Talabalar o'quv muassasalarga qadam qo'yishlari bilan o'zlarini tanlagan sohalari bo'yicha fanlarning sirlarini sabr – toqat va matonat bilan o'zlashtiradilar.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o'zlashtirishini xolis (ob'ektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi,

Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi bilan kelishilgan.

Ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiya ishlaridagi asosiy kamchilik sifatida ulgurmochilik ko'zga tashlanadi. Chunki ayrim talabalar o'z qobiliyatlariga mos keluvchi kasbni to'g'ri tanlay olmasdan

tasodify ravishda boshqa mutaxassislikka joylashib olib, so'ngra o'qishni tashlab ketishga majbur bo'ladilar yoki uni bir amallab bitiradilar. So'ngra ular belgilangan joyga ishga bormasdan yengil va «yog'li» ish axtaradilar...

Demak, maktabda ham, kasb – hunar maktablarida va oliy maktabda ham fanlarni to'la o'zlashtirish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Buning uchun muassasalarda boshqarishning me'yoriy uslubini to'g'ri yo'lga qo'yib hamma ishlarni ilmiy asosda tashkil etish zarur.

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek hech bir kishini ko'rmaysizki u boshqa kishi bilan bir xil bo'lsin. O'shangan o'xshagan rahbarlik ham har xil xususiyatlarga egadir. Xususan, rahbarlar uslubiy nuqtai nazarda bir biridan farq qilinadi. Har bir rahbar – tarbiyachi hisoblanadi. U pedagogik jamoani har tomonlama tarbiyalaydi.

Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar ishini boshqarishning me'yorida huquq va etika mezonlari asosiy rol o'ynaydi. Maktab o'rta maxsus ta'lim muassasalar rahbarlari bu ikki mezonga to'liq amal qilishlari lozim. Ular o'z rahbarlik ishlarida huquq va etikani gumanizm muloyimlik o'zaro yordam kabi mezonlariga tayanadilar.

Boshqarishning me'yoriy madaniyatini takomillashtirish uning barcha sohalariga e'tiborni kuchaytirish deganidir.

Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasa direktori ustoz sifatida jamoa ishida o'quv – tarbiya jarayonini tashkil qilishda pedagogik mahoratini ko'rsatishi zarur. Ana shuning uchun ham maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar ishini boshqarishning me'yoriy tizimida rahbarlik uslubi va madaniyatini to'g'ri tashkil qilish va uni munta-zam ravishda takomillashtirib borish zarur.

Hamma ishni, jumladan, o'quv jarayonini ilmiy nuqtai nazarda tashkil etish murakkab bir jarayon bo'lib, uni amalga to'la oshirish uchun fan va texnikadagi so'nggi yangiliklar bilan bevosita qiziqish, madaniyat, san'at va ularning kelajak taraqqiyoti bilan muntazam ravishda tanishib borish, mutaxassislarini o'rinli foydalanish va talabalarining ish sharoiti, dam olishi va har xil jamoat ishlariga ishtirotini mukammallashtirib borish kabilarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy mero simiz, milliy an'analarimizga, umumiyl – insoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida keng fikrli,

sog'lom, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tadbiq eta oladigan shaxslarni shakllantirish boshqaruvchilarning asosiy ish uslubini tashkil etadi.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari fanining maqsadi haqida ma'lumot bering.
2. Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari fanining vazifalarini tushuntirib bering.
3. Ta'lim sohasidagi huquqiy, iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlar o'tkazishning zarurati.
4. Boshqarishning me'yoriy tizimining ish uslubi haqida ma'lumot bering.
5. Boshqarishning me'yoriy uslubida huquq va etika mezonlarini asosiy mohiyatini aniqlang.

#### Tayanch so'zlar:

Tizim, boshqarishning me'yoriy, asos, vazifa, rivojlantirish, madaniyat, ma'lumot, yo'nalish, ishlab chiqirish, metodbirlashma, pedagoglar jamoasi, direktor, kengash va boshqalar.

## II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM TIZIMI

### O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini strukturası.

#### O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini tamoyillari va sistemasi

Xalq ta'lim tizimi va uning ko'zlab mamlakat yoshlariga ta'lim-tarbiya beradigan muassasalarini tushunamiz. Har bir mamlakatda ta'lim tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini va munosabatlarining rivojlanishiga ta'sir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berib kelmoqda.

Bunga hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror qonunlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Xususan, o'quvchi yoshlar umumiyl insoniy va milliy qadriyatlarini o'rganish va uni e'zozlashga o'rgatish oliv ta'lim sohasida va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiyaviy ishlari tizimidagi eng muhim masalalarni belgilaydi. Haqiqatan ham iqtisodiyotimiz, madaniyat, ijtimoiy va ma'naviy hayotimiz mustaqillikning hozirgi sharoitida umumiy ta'limga ega bo'libgina qolmay, muayyan ma'naviy axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan insonni tarbiyalab yetishtirishda yanada yuksakroq talablar qo'yilmoqda.

Mazkur ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarini to'g'ri va to'liq ma'noda amalga oshirish xalq ta'lim tizimini umum-pedagogik asosda to'g'ri boshqarishning me'yoriga ko'p jihatdan bog'liqidir. Bu esa har bir rahbardan boshqaruv nazariyasini chuqur va keng darajada egallab olishni talab qiladi.

Xalq ta'lim tizimi va umumta'lim maktabini boshqarishning me'yoriy ijtimoiy boshqaruvning ayrilmas qismi bo'lib, unga rah-

barlik qilish va uni boshqarishning me'yorini takomillashtirish ho-zirgi davrning dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra xalq ta'limi bo'g'inlarining hamda pedagogika fani sohasida xizmat qilayotgan barcha olimlar va ilmiy xodimlarning doimiy diqqat e'tiborida turadi.

Boshqaruvchi muassasadagi butun ta'lim-tarbiyani tashkil etishda va uning sifati uchun davlat oldida javobgar shaxs hisoblanadi.

Bizningcha, har bir rahbar xodim o‘z ishini to‘g‘ri boshqarishning nazariy va pedagogik asoslarini yaxshi bilib olishi, boshqaruvning eng samarali yo‘li va usullarini qidirib topishi maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlari yuqori o‘rinli qilib borishga asos bo‘ladi.


Mazkur kurs umumiy ta'lim maktablar va o'rta maxsus ta'lim muassasalari rahbarlari, nohiya, shahar va viloyat xalq ta'lim bo'lim-larinining inspektor metodistlari, viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari va muktabshunoslik kursi ishlarini qaysi yo'l- yo'riqlar orqali tashkil qilishni nazarga oladi. Har bir ijtimoiy tizimda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishi talab etiladi.

Istiqlol davrida barcha sohalarida o'zgarish bo'lgani kabi xalq ta'limi sohasida ham katta o'zgarishlar bo'ldi. Modomiki, zamon-jadal sur'atlarda o'zgarayaptimi, demak pedagogika tizimini boshqarishning me'yori va uning asoslari ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lishi kerak.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritishi, shuningdek iqtisodiyotda boshqaruv tizimi va ijtimoiy rivojlanishda keng miqyosda islohotlar o‘tkazilishi natijasida ta’lim sohasida zarur shart - sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Respublikada tarkib topgan xalq ta’limi yangi tizimni yangicha yondoshuvni taqozo etmoqda.

Yaqinda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni milliy istiqlol masfurasi ruvida tarbiyalash, darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar milliy ta’lim-tarbiya an’analari asosida ko‘rish masalalari ko‘tarilgan va shu muammoni hal qilish yo‘l-yo‘riglari ko‘rsatilgan.

#### **Ta'lim prinsipining modeli**



Shu nuqtai nazarda mazkur «Pedagogik tizimni boshqarishning me’yoriy asoslari» fani boshqarishning yangicha usullari va metodlarini ishlatib borishi o’z ifodasini topadi.

Ta'lim sohasida huquqiy, iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlarning zaruriyati respublikada ijtimoiy rivojlanishning yuzaga kelgan ahvolni har taraflama va chuqur tahlil qilish masalasini ko'rmoqda. Bu borada pedagogik oliv o'quv yurtlari, o'rtalik maxsus o'quv yurtlari, o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari, xalq ta'lim bo'g'inalari, umumiy ta'lim maktablari oldida ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik vazifalar turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqillik va oshkoraliq tufayli jamiyatimiz ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga, inson va insoniyatga, din va e'tiqodga daxldor bo'lgan hamma masalalarni chuqur o'rganish lozim.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi va Hukumat qarorlariga asoslangan holda hozirgi vaqtida xalq ta’limining quyidagi tamoyillari qaror topdi:

- **O'zbekiston fuqarolarining millatidan, jinsidan, ijtimoiy ahvoldidan qat'iy nazar ta'limga olishga teng huquqliligi tamoyili.** Xalq maorifining demokratik ruhidan darak beradi.

- **Hamma maktab yoshdag'i yoshlari uchun bilim olish majburiy ekanligi tamoyili.** Bu tamoyil yoshlarnizni ma'lumotli bo'lishi, zamon talabiga javob beradigan ilmiy bilimlarni egallashi, hayotda o'z o'mini topa olishlari davlatimiz g'amxo'rligidan darak beradi.

- **Barcha ta'limga muassasalari davlat va ijtimoiy xususiyatga ega ekanligi tamoyili.** Bu O'zbekistondagi barcha ta'limga tarbiya muassasalari davlat ixtiyorida ekanligini, bu tashkilotlarni davlat mablag' bilan ta'minlashini nazarda tutadi.

- **Qaysi tilda o'qitish ota-onalarining istagiga bog'liqligi tamoyili.** O'z farzandlarini qaysi tilda o'qitishini davlatimiz baynalmannlik, insonparvarlik siyosatining erkin na'munasidir. O'zbekistonda har bir millat a'zosi xohlagan tilda o'qish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 4-moddasi. Respublikada davlat tili o'zbek tili deb belgilangan. Ammo boshqa millatlar uchun o'z tilida o'qish va ularni hurmat qilish imkoniyatiga sharoit yaratgan.

- **Ta'limga bepullik tamoyili.** Konstitutsiyada Respublikamiz har bir fuqaroning bepul ta'limga olish huquqini bergen. Ta'limga davlat nazoratida ekanligi kafolatlangan.

Ta'limga olib boriladigan til.	Maktablar soni		O'qituvchilar soni	O'quvchilar umumiyligi soni nis. Foiz.
	Mustaqil	Aralash		
O'zbek tili	6661	1055	3855977	82,0
Rus tili	222	778	459753	12,2
Qozoq tili	266	339	144970	2,9
Qoraqalpoq tili	218	127	125060	2,6
qirg'iz tili	26	32	11569	0,2
Tojik tili	260	61	129971	2,8
Turkman tili	39	31	19221	0,3
Boshqa tillarda	2	1	327	

- **Ta'limga ilmiylik va dunyoviylik tamoyili.** Bilimlarning ilmiy xususiyatga ega bo'lishi va bu fan texnika yutuqlarini hisobga olgan holda doimo o'zgarib, yangilanib borishi ilmiylik tamoyili

deyiladi. O'zbekiston hududidagi barcha ta'limga muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limga muassasa (tashkilot)larning turlari.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'limga to'g'risidagi qonuni» (2020 yil 23 sentyabr). «Ta'limga turlari» xususidagi 10 moddasida shunday deyiladi:

O'zbekiston Respublikasida ta'limga quyidagi turlarda amalga oshiriladi.

- Maktabgacha tarbiya;
- Umumiy o'rta ta'limga;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limga;
- Oliy ta'limga;
- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga;
- Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- Maktabdan tashqari ta'limga;

#### 1. Maktabgacha tarbiya.

Xalq ta'limga tizimida Birinchi bosqich hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi bolalarni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalash, ularni maktabga ham pedagogik, ham psixologik tarbiyalashdan, ularni shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

«Bu ta'limga 5-6 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'limga muassasalarida olib boriladi.

#### 2. Boshlang'ich ta'limga (1-4 sinflar)

Umumma maktab ta'limga boshlang'ich maktabning ahamiyati muhimdir. Chunki boshlang'ich maktab umumiy o'rta ta'limga olish uchun zarur bo'lgan bilim, o'quv ko'nikmalari bilan qurollantiriladi. Boshlang'ich sinflar alohida maktab turi sifatida, ayniqsa qishloq joylarda ko'p tarqalgan.

#### 3. Umumiy o'rta ta'limga maktablari (5-9 sinflar).

Umumiy o'rta ta'limga maktablari o'rta ma'lumot olishni ta'minlaydi. Zamonaviy bilimlar beradi. Bolani fikrlash qobiliyatini o'stirib, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga o'rgatadi. Bu esa o'z bilimlarning qobiliyatini qo'llashga yo'naltiradi, biror bir kasb egallashga imkoniyat beradi.

#### 4. O'rta maxsus kasb hunar ta'limga.

O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limga asosiy maq-

sadi yoshlarni mehnat va kasb-kor ko'nikmalariga o'rgatish, ishchi xodimlar tayyorlash, ularni malakasini oshirish va qayta tayyorgarlikdan o'tkazishdir. Hunar-technika ta'limi malakali ishchilar tayyorlashda, respublikaning o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari, o'quv ishlab chiqarish, o'quv kurs korxonalari, markazlari o'quv muassasalarida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriv ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqlashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir nechta ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quy yurtidir. (13 modda).

## **5. Oliv ta'lim**

Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv bilan shug'ullanuvchi shaxslarga yuksak darajadagi mas'uliyatlilik, vakolatlilik hamda tartib, ma'muriy qoidalarni ichki va tashqi vositalar yordamida muntazam samarali baholash qobiliyati xos bo'lishi lozim.

1. Oliy ta'lim muassasalari. Davlat OTM bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan boshqariladi. Davlatga aloqadorsiz OTM da rektor ta'sischi (mulk egasi) tomonidan tayinlanadi.

Rektor «Oliy ta’lim to‘grisida»gi nizomga muvofiq ta’lim muassasasining ish natijalari uchun mas’uldir.U O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta’lim muassasasining ish natijalari uchun mas’uldir.U O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ta’lim muassasasi nomidan faoliyat ko‘rsatadi, barcha idoralar, muassasalar va korxonalar bilan uni namoyon etadi, mulkni tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnoma beradi, bankda ta’lim muassasasining

hisob raqamini ochadi, kreditlarni taqsim qiluvchi hisoblanadi.

**Rektor o‘z yakolati doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:**

- barcha xodimlar, talabalar va boshqa ta'lim oluvchilar uchun buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.
  - bosh munosibni ishga tayinlaydi va undan bo'shatadi;
  - ilmiy-tadqiqot, tajriba-eksperiment va boshqa ta'lim muassasasi tarkibiga kiruvchi tashkilotlar, bo'linmalar vakolatini belgilaydi;
  - ishchi, xizmatchilar, shuningdek ilmiy-pedagog xodimlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan va mehnat qonunchiligidagi belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatishni amalga oshiradi;
  - ta'lim muassasasi xodimlari lavozim maoshiga ustama va qo'shimchalar belgilaydi;
  - ichki tartib qoidalarini kasaba uyushmasi yoki boshqa vakolatlari bilan kelishib tasdiqlaydi;
  - qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq, muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz. Hozirgi kunda, umumta'lim maktablarida ta'limni sinf-dars shaklida olib bolish keng tarqalgan. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.



Xalq ta'lim tizimida muhim o'rinni egallab, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotni belgilab beradi. Xalq xo'jaligi va madaniyatining turli sohasini oliv ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Respublikada oliy ta'lim o'z ichiga universitetlarni, pedagogika, qshloq xo'jaligi, tibbiyat, iqtisod, yuridik, politexnika va boshqa institatlarni qamrab oladi.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlari-da (universitet, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga:

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi BAKALAVRIAT VA MAGISTRATURAga ega.

Respublikada oliy ta'lim universitetlar, akademiyalar va institutlarda amalga oshiriladi.

**BAKALAVRIAT**- oliy ta'lim yo'naliishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar. (14 modda).

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

**MAGISTR** darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir .

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar (14 modda).

**Universitet:**

- oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasbdasturini ta'limning turli sohalari va tayyorlashning yo'naliishlari bo'yicha amalga oshiradi;

- Fan turli sohalari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- fanlarning tegishli sohalarida ilmiy va metodik markaz hisoblanadi;

**Institut:**

- oliy va oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim-kasbdasturini, qoidaga ko'ra bilimning bir sohasidagi tayyorlov yo'naliishi bo'yicha amalga oshiradi;

- iqtisodiyotning muayyan sohalari uchun mutaxassislarini qayta tayyorlaydi va malakasini oshiradi;

- Amaliy ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstrukturlik ishlari olib boradi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni samarali hal etish oliy ta'lim tizimi va uning tarkibiy bo'linmalari( universitet, akademiya, institut va b'lar) uchun tizim barcha darajadagi rahbariyati boshqaruvni amalga oshirishining mazmuni, tamoyil va usullariga sezilarli daramada bog'liq.

#### **6.Oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim.**

Institut, universitetlar uchun yuqori darajali ilmiy kadrlar tayyorlashni nazarda tutadi. Bu aspirantura, doktorantura orqali amalga oshiriladi. Aspiranturaga oliy ma'lumotli, ilmiy tadqiqot ishlariiga moyil shaxslar imtilon topshirib, tanlov asosida qabul qilinadi.

Dissertatsiya himoyasidan keyin bunday shaxslarga fan nomzodi ilmiy darajasi beriladi. O'z sohasida chuqur izlanishlar olib borgan, monografiyalar yozgan va doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga fan doktori ilmiy darajasi beriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura, adyunktura va mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. (15 modda)

Boshqa davlatlarning tashkil etilgan yetakchi oliy o'quv yurtlari bo'limlari qatorida Xalqaro Vestminstr universiteti, G. Plexanov nomidagi Rossiya Akademiyasi bo'limi, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bo'limi, Toshkentda Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz instituti filiali ochilgan, Samarcand davlat universitetida Boloniya (Italiya) universiteti bilan birgalikda magistratura ochilgan. Yaponiya, Gollandiya va Ispaniya bilan birgalikda kadrlar tayyorlash bo'yicha shart-sharoitlar tashkil qilish yuzasidan

ishlar olib borilmoqda.

Masalan, Ispaniya tomoni O'zbekistonning Juhon tillari universiteti bilan birgalikda kadrlar tayyorlash shaklini rivojlantirish uchun 25 mln. yevro. miqdorida imtiyozli kredit ajratdi. Juhonning bir qator yetakchi universitetlari, Kembrij, Sorbon, Oxford, Garvard va boshqalar bilan yaqindan samarali hamkorlik o'rnatilgan. Yapon hukumi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti kafedralarini zamonaviy laboratoriya qurilmalari bilan jihozlash uchun 440 mln. ion miqdorida beg'arez yordam ko'rsatdi. MassaChuset texnologiya universiteti ta'lim dasturlarini masofadan turib o'rganish yo'iga qo'yilgan.

Respublika oliy o'quv yurtlarida 200 dan ortiq Chet-el fuqarolari ta'lim olishmoqda. Barcha bu va boshqa tashabbuslar O'zbekistonning milliy uzlucksiz ta'lim tizimini xalqaro ta'lim maydoniga qo'shilishga ruxsat beradi.

#### **7. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. (16 modda)

#### **8. Maktabdan va o'quv muassasalardan tashgari ta'lim.**

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 10 moddasiga asoslangan bolalar va o'smirlar ehtiyojlarini, xohish istaklarini to'laroq ro'yobga chiqarish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida davlat muassasalari, turli mulk shakllariga ega bo'lgan korxonalar, jamoat tashkilotlari ilmiy-badiiy, tabiiy, texnik, sport va boshqa yo'nalishlarga maktabdan tashgari ta'lim muassasalari tashkil etilishi mumkin. Bunday muassasalarning ish faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Xalq ta'lim bo'limlari tomonidan nazorat qilinadi.

Ularning asosiy vazifalari maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va to'garaklar tashkil qilishdir. Umumiy o'rta va kasb - hunar ta'limining rivojlanishi ularning maqsad hamda vazifalarini tobora yaqinlashtirib, birlashtirmoqda.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash

sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijobji hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamondan talablariga muvofiq. oshirilishini ta'minlashlari kerak. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturini** amalga oshirish bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asning erkin fikrli, o'z Vatani va xalqini manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga erishish umumiy demokratik yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirish bilan bog'liqdir. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturini** amalga oshirish, hayotga tadbiq qilish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim.

Hozir O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridan tashgari muassasalar quyidagilardir:

1. O'quvchilar saroylari va uylari
2. Yosh texniklar stansiyalari
3. Yosh tashabbuskorlar stansiyalari
4. Yosh turistlar stansiyalari
5. Yosh sportchilar muassasalari
6. Bolalar klublari va markazlari
7. San'at maktablari
8. Kutubxonalar
9. Sog'lomlashtirish va hokazolar.

Bolalar va o'smirlarni yakka tartibda ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashgari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. O'zbekiston xalq ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
2. O'zbekistonda ta'lim tizimini tashkilashtirish va rivojlanirishga asosan davlat talabi.
3. O'zbekistonda qaysi ta'lim turlarini bilasiz?
4. O'zbekiston o'quv muassasalarini aniqlab bering.

## Tayanch so‘zlar:

Xalq ta’limi tizimi, struktura, yo‘riqnomasi, istiqlol, buyuk, muvaqqat Nizom, tamoyil, tashkilotlar, turlar, boshqaruv prinsiplari, rahbarlik prinsiplari, ma’naviy yangilanish, milliy ong, ishlab chiqarish.

## O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi sistemasi

### O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi

uchun), mustaqil uzluksiz ta’lim tizimi hisoblanadi. Oliy ta’lim mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va Kadrlarni tayyorlash bo‘yicha milliy dasturi asosida amalga oshiriladi.


Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’limning uzluskligi va uzviyiliqi oliy ta’lim sifatining muhim omilidir.

Oliy ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish fondi tashkil etildi. Fond mablag‘i yangi darsliklar yaratish va o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga, o‘quv binolari va yotoqxonalarni ta’mirlash va modernizatsiyalashga yo‘naltiriladi.

Oliy ta’limning maqsadi oliy ma’lumotli mutaxassislarining zamonaviy talablarga javob beradigan toifali, raqobatbardosh, tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha fanlar sohasida mustaqil ishlaydigan, respublikamizni ilmiy –texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tomondan ta’minlaydigan va yuqori ruhiyatli, madaniyatli va axloqiy sifatli kadrlarni tayyorlashni ta’minalashdir.

O‘zbekiston xalq ta’lim tizimi respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi hisoblanadi.

Xalq ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi.



Fan-texnika taraqqiy etayotgan hozirgi davrda davlat xalq ta’limi tiziminining barcha tarmoqlarini muttasil takomillashtirish, uni oqilona uyushtirish va boshqarishning me’yoriy masalalariga katta ahamiyat berilmoqda.

Azaldan, O‘zbekistonda bolalar ta’lim-tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni ilmga qiziqtirish axloqan pok, vijdonli, mehr-shafqatl qilib voyaga yetkazishga ota-bobolarimiz jiddiy qarashgan.

Masalan, «Qobusnom», «Axloqiy Muxsiniy», «Kalila va Dimna» kabi asarlarida odob-axloq qoidalariga rivoyatlar keltirilgan.

Ma’rifatparvar olim Abu Nasr Forobiy «Fanlar tasnifi» degan asarida arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani tarbiyaviy fan deb atagan. Chunki ular tufayli yoshlar manaviyatga-ma’rifatga ega ruhda tarbiyalanadi.

«Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilan shakllana boradi, tarbiya esa amaliy ish, tajriba davomida hayotdan, tabiatdan va jamiyatdan shakllana boradi. Bu tarbiya nazariyasi uzluksiz tarzda voyaga yetkazishga asoslangan va maktab islohotidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

1991 yil 1-sentabrda Respublikamiz hayotida tarixiy voqeа yuz berdi. Istiqlol e’lon qilindi.

Eng avval birinchi navbatda Respublikamizning xalq ta’limi sohasida islohot o‘tkazish masalasi ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston «Ta’lim to‘grisidagi» qonun ta’lim tiziminining yangilanishiga sabab bo‘ldi.

## **Quyidagilar uzlusiz ta'limning asosiy tamoyillari hisoblanadi:**

- ta'limning ustuvorligi – uni rivojlantirish birinchi galdegisi vazifalari, bilimning, ma'lumotlilikning va yuqori salohiyatning qadrliligi;
- ta'limni demokratiyalashtirish- ta'lim va tarbiya usullarini tashsha da ta'lim muassasasi mustaqilligini kengaytirish, ta'lim boshqarishda davlat-jamoatchilik tizimiga o'tish;
- ta'limni insonparvarlashtirish- inson qobiliyatini yuzaga chiqarish, uning turli ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatini uyg'unlashshtirish;
- ta'limni gumanitarlashtirish – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni, yuqori darajada axloqiylikni, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'limni milliy yo'nalganligi – uning millat tarixi, xalq an'analari va urf-odatlari hamda O'zbekiston xalqlari madaniyatini boyitish, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan bog'liqligi;
- iqtidorli yoshlarni alohidalash – ularga yuqori saviyada bilim, ko'nikma va malaka olishlari, qobiliyatlarini o'stirishlari uchun sharoit yaratish.

Fan Kadrlar tayyorlash milliy modeli doirasida:

- kadrlar tayyorlash tizimida foydalanish uchun tabiat va jamiyat rivojlanishining qonuniylari to'g'risidagi g'oyalarni uyg'unlashtiradi va ular haqida yangi nazariy va amaliy bilimlar yaratadi;
- ta'lim- informatsiya tarmog'ida foydalanish uchun bilimning turli sohalariga taalluqli ma'lumotlar jamg'armasini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishning Kadrlar tayyorlash milliy modeli doirasidagi vazifa quyidagicha:

- iqtisod raqobatbardoshligini ta'minlash uchun mutaxassislar ro'yxati, miqdori va sifatini belgilash;
- o'z tasarrufida mavjud bo'lgan moddiy-teknikaviy, xodimlar, moliyaviy va boshqa resurslarni berib, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishda uzlusiz ta'lim tizimiga ko'maklashish;
- turli shakllarda ta'lim va Fan uyg'unlashishini rivojlantirish (o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish mujassamlari, markazlar, texnoparklar,

texnomintaqalar va h.k).

Uzlusiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi ko'pgina tomonlarini belgilovchi muhim unsurlardan biri Davlat ta'lim standarti (DTS) dir. U ko'p o'Ichovli yo'riqnomalar bo'lib, yo'nalish(bakalavriat) yoki ixtisoslik (magistratura) umumiy tavsifi, ta'lim-kasbiy programma tayyorlash sifatining nazorati va h.k. talabni o'zida aks ettiradi.

Ta'lim standarti ta'limning maqsadi, qimmati, uning mazmuni va natijasi (tayyorlov darajasiga bo'lgan talab), ta'lim tarbiya programmaviy xususiyati, ta'lim jarayonining tuzilish tarixi, uning maqsadga erishish darajasini bosqichma-bosqich va yakuniy diagnostika mo'ljallangan ko'lam hamda vaqtini, ta'lim va ma'lumotlilik darajasini belgilaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq DTS ishlab chiqish tamoyillarining asosiyлari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- gumanitar va insonparvarlash;
- nazariylashtirish (fundamentalizatsiya );
- umumta'limiy va kasbiy tayyorlov;
- ta'lim – kasbiy programma dolzarbligi ;
- talabalarning akademik zarbdorligi;
- fanlar qismlari va guruhlarining uyg'unligi;
- mustaqil davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- sifatning ko'p bosqichli nazorati.

Ta'limning uzlusizligi uning tashkiliy va funksional ma'nodagi uzlusizligining asosi hisoblanadi.

### **1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratikligi.**

Buni mohiyati shundaki, barcha xalqqa berilayotgan ta'lim-tarbiya insonlarning moddiy va ma'naviy kamolotini, aql-zakovatini o'stirish, insoniy faoliyatni va nihoyat vatanparvar bo'lib yetishishlarini maqsad qilib qo'yadi.

**2. Ta'lim tizimining uzlusizligi va izchilligi.** Mustaqil O'zbekistonda xalq ta'limi muassasalarida berilayotgan ta'lim-tarbiya bilan uzlusiz o'zaro bog'liqidir. Har bir boshlang'ich ta'lim o'quv reja va dasturlari asosida keyingi bosqichlar oldingilarining davomi sifatida amalda bo'ladi. Bu esa o'z navbatida bir maktab yoki o'rta maxsus ta'lim muassasasidan ikkinchisiga, bir oliy o'quv yurtidan ikkinchisiga ko'chib o'tish imkonini beradi. Ta'lim o'quv rejasi va

dasturi asosida tizimli izchil faoliyatda bo‘ladi.

### 3. Davlat ta’lim tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi.

Respublikada barcha ta’lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. U ilmiy asoslarga ega bo‘lib, fan, texnika madaniyati eng muhim muvaffaqiyatlari va inson aql-zakovati tufayli takomillashib boradi. Ular o‘quvchilarni ob‘yektiv dunyoni vosita bilish, tegishli xulosalar chiqarish va biror bir kasbni ongli egallashga yo‘naltiriladi.

### 4. Ta’limda umumiy insoniy va milliy-ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi.

Ta’lim tizimiga barcha ta’lim-tarbiya maskanlarida berilayotgan bilim ajdodlarimizning minglab yillar mobaynida shakllangan an’analariga tayanadi.

### 5. Davlat ta’lim standartlari qoidasida xalqning ta’lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi.

Yangi qonunning 4-moddasida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, turar joyidan qat’iy nazar barchaning ta’lim olish uchun teng huquqlari kafolatlanadi.

### 6. Tayanch ta’limning majburiyligi.

1930 yilda boshlang‘ich mакtablar; 1949 yilda yetti yillik mакtablar; 1958 yilda sakkiz yillik mакtablar; 1970 yilda o‘rtal umumiy majburiy ta’limga asos solindi. 1984 yildan boshlab 11 yillik majburiy ta’limga o‘tildi. 1991-1992 yildan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlar o‘z faoliyatini davom ettirmoqda

### 7. Ta’lim ma’naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan o‘quv reja va dasturlarni tasdiqlaydi.

Ularni bajarilishini nazorat qiladi. Olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlar yoshlarni ma’naviy tetik, jismoniy baquvvat, aqlan pok va mehnatsevar ruhda tarbiyalaydi.

### 8. Biliмdonlik va iste’dodni rag‘batlantirish.

Muassasalarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish (stipendiya, maqtov yorliqlari, moddiy yordam) asosida tashkil etiladi.

Misol: Sharipov Po‘lat III kurs pedagogika-psixologiya fakultetining talabasi Yu.Rajabiy nomli stipendiya bilan taqdirlangan. (Ma’rifat yo‘lida 23-oktyabr 2001 yil gazetasidan).

### 9. Ta’lim muassasalarida Chet tillarni o‘rganish.

Din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish.

Xalq ta’limi va yangi qonun asosida o‘quvchilarning bilim va iste’dodlarining vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish uchun barcha

sharoitlar yaratilmoqda. Din va madaniyat tarixi bo‘yicha maktab va o‘rtal maxsus ta’lim muassasalarini rejalariga yangi fanlar kiritilgan.

### 10. Ta’lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarining ta’siridan hosil bo‘lishi

yosh avlodga dunyoviy bilim berish tom ma’noda hayotga va bilimga turushga tayyorlash, yoshlarni chalg‘itmaslik, guruhbozlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ta’lim-tarbiya muassasalarini siyosiy guruhlar va ijtimoiy-siyosiy harakatlardan holi deb topildi.

### 11. Tarbiyanuvchilar va ta’lim oluvchilarni hurmatlash.

Ta’lim tizimida barcha pedagoglarga davlat talablari darajasida o‘qitish majburiy hisoblangan fanlardan reja va o‘quv dasturlari asosida olib borish, tarbiyanuvchi va ta’lim oluvchilarning insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilish mas’uliyati yuklatiladi.

### 12. Pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash.

Yangi qonunda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash lozimligi belgilab qo‘yilgan. O‘qituvchilar-tarbiyachilar sha’nini himoya qilish, ta’lim shakli usuli va vositalarini tanlash, tashabbuslarga keng yo‘l ochish. Tanlangan o‘qituvchi olimlarimizni davlat tomonidan orden, medallar bilan mukofotlash, ularni qishloq va shahar, tuman, viloyat va respublika oliy organlariga deputatlilikka saylash umumxalq vazifasi deb topilgan. Shu bilan birga ular zimmasiga axloq-odob qoidalariga rioxqa qilish, o‘quvchisi va talaba shaxsini hurmatlash mas’uliyati yuklatilgan.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Shaxslarga, ta’lim xizmati talabgori sifatida, davlat ta’lim standartlari orqali sifatlari ta’lim va kasbiy tayyorgarlik kafolatlanadi.

Shaxs – ta’lim xizmati ko‘rsatuvchi sifatida, tegishli darajada malaka hosil qilib o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda bilim malaka va ko‘nikmalarini shakllantiradi va boshqalarga beradi.

Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta’lim tizimining kadrlar tayyorlash salohiyatini tubdan yaxshilash;

- tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

- ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan qolda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

- maxsus, kasb-hunar ta'limning markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

- ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, chet el investitsiyalari qo'llanishlarining kengayishi;

- milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual mersosi asosida ta'limning barcha darajalari va ta'lim oluvchilarining ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- ta'limni boshqarishning me'yoriy tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;

- ta'lim asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- uzlusiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiya-lashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet elda hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

- ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarining huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzlusiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

- muktab va o'quv muassasalaridan tashqari ta'lim.

**Quyidagilar uzlusiz ta'limning asosiy tamoyillari hisoblana-di:**

- **ta'limning ustuvorligi** – uni rivojlantirish birinchi galdeg'i vazifalar, bilimning, ma'lumotlilikning va yuqori salohiyatining kadrliligi;

- **ta'limni demokratiyalashtirish** – ta'lim va tarbiya usullarini tanlashda ta'lim muassasasi mustaqilligini kengaytirish, ta'lim boshqarishda davlat-jamoatchilik tizimiga o'tish;

- **ta'limni insonparvarlashtirish** – inson qobiliyatini yuzaga chiqarish, uning turli ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash, shaxs, jamiyat va atrof-muhit munosabatini uyg'unlashtirish;

- **ta'limni gumanitarlashtirish** – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni, yuqori darajada axloqiylikni, madaniyat va ijodiy fikrashni shakllantirish;

- **ta'limni milliy yo'nalgaligi** – uning millat tarixi, xalq an'analari va urf-odatlari hamda O'zbekiston xalqlari madaniyatini boyitish, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan bog'liqligi;

- **iqtidorli yoshlarni alohidalash** – ularga yuqori saviyada bilim, ko'nikma va malaka olishlari, qobiliyatlarini o'stirishlari uchun sharoit yaratish.

Fan Kadrlar tayyorlash milliy modeli doirasida:

- kadrlar tayyorlash tizimida foydalanish uchun tabiat va jamiyat rivojlanishining qonuniyatlarini to'g'risidagi g'oyalarni uyg'unlashtiradi va ular haqida yangi nazariy va amaliy bilimlar yaratadi;

- ta'lim- informatsiya tarmog'ida foydalanish uchun bilimning turli sohalariga taalluqli ma'lumotlar jamg'armasini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishning Kadrlar tayyorlash milliy modeli doirasidagi vazifa quyidagicha:

- iqtisod raqobatbardoshligini ta'minlash uchun mutaxassislar ro'yxati, miqdori va sifatini belgilash;

- o'z tasarrufida mavjud bo'lgan moddiy-texnikaviy, xodimlar, moliyaviy va boshqa resurslarni berib, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishda uzlusiz ta'lim tizimiga ko'maklashish;

- turli shakkarda ta’lim va Fan uyg‘unlashishini rivojlantirish (o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari, markazlar, texnoparklar, texnomintaqalar va h.k.).

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi ko‘pgina tomonlari belgilovchi muhim unsurlardan biri Davlat ta’lim standarti (DTS) dir. U ko‘p o‘lchovli yo‘riqnomalar bo‘lib, yo‘nalish(bakalavriat) yoki ixtisoslik (magistratura) umumiy tavsifi, ta’lim-kasbiy programma tayyorlash sifatining nazorati va h.k. talabni o‘zida aks ettiradi.

Ta’lim standarti ta’limning maqsadi, qimmati, uning mazmuni va natijasi (tayyorlov darajasiga bo‘lgan talab), ta’lim tarbiya programmaviy xususiyati, ta’lim jarayonining tuzilish tarixi, uning maqsadga erishish darajasini bosqichma-bosqich va yakuniy diagnostika mo‘ljallangan ko‘lam hamda vaqtini, ta’lim va ma’lumotlilik darajasini belgilaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq DTS ishlab chiqish tamoyillarining asosiyлari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- gumanitar va insonparvarlash;
- nazariylashtirish (fundamentalizatsiya );
- umumta’limiy va kasbiy tayyorlov;
- ta’lim – kasbiy programma dolzarbligi ;
- talabalarning akademik zarbdorligi;
- fanlar qismlari va guruqlarining uyg‘unligi;
- mustaqil davom ettirish imkiniyatlarini kengaytirish;
- sifatning ko‘p bosqichli nazorati.

Ta’limni gumanitarlashtirish ta’lim oluvchilarda dunyoni to‘la tasavvur etish, yuksak ma’naviyat, madaniyat va jahon miqyosidagi tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Kadrlar tayyorlash milliy modelida qayd etilgan vazifalarni bajarish, faqat fan, texnika va texnologiyadagina emas, balki tabiatshunoslik, falsafa. etika va estetika, tarix, siyosatshunoslik, huquq, iqtisod, ekologiya va h.k. larga zamonaviy yutuqlar asosida DTS lar ishlab chiqish orqali ko‘zga tutiladi. Hozirgi zamon mutaxassisini keng gumanitar bilimga ega bo‘lishi lozim. Bu uning ma’naviyat va madaniyatini belgilaydi. Axloqiy tayanchga ega bo‘lmagan mutaxassis qabul qilayotgan qarorlari bo‘yicha na o‘ziga va na jamiyat oldida hisob berishga qodir bo‘lmaydi.

Ta’limni insonparvarlashtirish insonni oliy ijtimoiy kadrlar bo‘lib yetishishiga, uning qobiliyatini ochish, turli –tuman ta’limiy ehtiyy-

ojini qondirish, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minalash, inson va atrof-muhit munosabtidagi uyg‘unlikka erishishiga yo‘naltirilgan .Ta’kid etilgan masalalarni hal etish DTS larda inson omili ni hisobga olgan holda fanlar o‘quv dasturini ishlab chiqish va joriy etish orqali hal etiladi.

Ta’limni nazariylashtirish oliy ma’lumotli kadrlar tabiatdagagi barcha jonivor va narsalar , jarayon va hodisalar haqidagi yaxlit tasavvurlari bilimning ilmiy usullari va tizimli yondashish asosida bilimni yaratish, olga siljитish, va yoyishlari mumkin. Mutaxassis uchun jiddiy nazariy tayyororgarlik ko‘p ilm talab qiluvchi va informatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘zlashtirish va samarali tadbiq etish uchun zarur.

Vorislik shuni anglatadiki, uzluksiz ta’limning navbatdagagi bosqichiga chiqish oldingi bosqichdan chiqish tabiiy tarzda bog‘lanishini taqozo etadi.Vorislik tufayli uzluksiz ta’lim tizimi barcha bosqichlarining o‘zaro aloqasi bog‘liqligi ta’minalanadi.Birinchi galda bu zanjirning keyingi bosqich xalqalariga bog‘liq; o‘rta maxsus, kasbiy ta’lim – oliy ta’lim muassasasi tugagandan keyingi ta’lim – malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash.

Ta’limning uzluksizligi uning tashkiliy va funksional ma’nodagi uzluksizligining asosi hisoblanadi.

Kadrlarni oldindan tayyorlash, oqibatda, mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini, mutaxassislarning hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga samarali moslashib ketishini ta’minalashga yo‘naltirilgan.

Oldindan tayyorlashni ta’minalash uchun DTSning barcha tarkibiy unsurlari fan, texnika, texnologiya, iqtisod, ta’lim va b. ning yutuqlarini hisobga olgan holda yo‘nalishlarni yoki ixtisosliklarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Ta’lim- kasb dasturlarining dolzarbligi korxonalar, jamiyat, davlat va mehnat bozori talablarini kuzatib borishni ta’minalash uchun zarur. Bu dolzarblik DTS larda OTM kengashi belgilaydigan kurslar, kadrlar buyurtmachisi bilin OTM belgilaydigan maxsus fanlar qismlari hisobiga ta’minalanadi.Kasb-ta’lim dasturlari qismlarining dolzarbligi talqinlarini ta’lim berilayotganlar mustaqil tanlaydilar.

Talabalar akademik safarbarligi (ta’lim yo‘nalishi yoki ixtisosligi ni o‘zgartirish imkoniyati) quyidagicha ta’minalanadi:

- bakalavriatda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar qismlarini ta'limning barcha yo'naliishlari, matematika va tabiiy fanlar qismlarini yaqin yo'naliishlar uchun uyg'unlashtirish hisobiga:

- magistraturada umummetodologik fanlar (Fan falsafiy masalalari, ilmiy ijod metodologiyasi, fan va texnikada tizimli yondashish asoslari va b.) ni bir yo'naliish doirasida.

Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini hosil qilish ikki vazifani hal etishinga qaratilgan:

- talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bu bo'lajak mutaxassislar ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishni rivojlantirish uchun zarur;

- talabalarni bilimni mustaqil egallashga o'rgatish, ularga butun hayot mobaynida o'z kasbiy, ma'naviy va ma'rifiy darajalarini takomillashtirish uchun zarur. SHu maqsadda DTSda bakalavrular uchun mustaqil bilim olishga haftasiga kamida 6 soat, magistrlar uchun haftasiga 16 soat mo'ljallangan.

Sifatning ko'p bosqichli nazorati, DTS da ko'zda tutilgan bo'lib raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Bu oliy ta'lim boshqarishining uch bosqichida amalga oshiriladi

Birinchi bosqichda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi quyidagilarni amalga oshiradi:

- oliy ta'lim muassasasi, uning rahbar va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyalash, uning asosida OTM ni ta'lim yo'naliishlari va ixtisosliklari bo'yicha akkreditatsiyalash masalasi hal etiladi;

- o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligi kadrlar tayyorlash sifatini ekspert baholash.

Ikkinci bosqichda ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlangan davlat idorasi tasarrufida OTM lar bo'lgan vazirlik va muassasalar bilan hamkorlikda nazorat qiladi:

- DTS larda ko'zda tutilgan tayyorlov mazmun va daraja minnumini ta'minlashni;

- DTS larda ko'za tutilgan kasbiy masalalarni hal qilish asosida kurslar tayyorlash sifatini.

Uchinchi bosqichda oliy ta'lim muassasasi, talaba bilim, o'quv va ko'nikmasi o'quv jarayonida, shuningdek ular bilimini fanlar va bitiruv malakaviy ishlari bo'yicha Davlat attestatsiyasi komissiyasi nazoratini amalga oshiradi.

## Maktab va umumiy o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti

DTS ning tashkiliy-boshqaruv funksiyasi ta'lim tizimini sifat va miqdor tavsiflarini tartibga solish, chegaralashdan iborat. Bular vositasida shaxs, davlat, jamiyat, ish beruvchi va b. tomonidan nazorat etish ta'minlanadi.

Har bir ta'lim xizmatini talab etishining ta'limdan o'z maqsad va qadriyati bor:

- shaxs bunday ta'limda o'zining intellektual ehtiyojlarini qondirish va imkoniyatlarini namoyon etishni ko'zlaydi;

- jamiyatga ta'limdan yuqori darajadagi ijtimoiy va axloqiy sara lozim;

- davlat ta'lim tizimidan fuqarolarni o'qitish va tarbiyalashni, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlар ustuvorligi asosida ularda ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishni kutadi;

- kadrlarni talab etuvchilar ta'limdan raqobatbardosh tovarlar ishab chiqaruvchi va hizmat ko'rsatuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni kutadi.

DTS muvofiqlashgan mujassam maqsadni izlashga da'vat etadi. Shundan so'ng mezonlar yordamida standartlarda ko'zda tutilgan maqsadga va sifatga erishish orqali ijtimoiy tartibga solishni boshqarish va ta'limni boshqarish amalga oshiriladi.

Shaxs ta'limiy xizmat iste'molchiligi sifatida DTSga muvofiq tanlov asosidagi kurslar va fanlar ko'lamida o'z ta'limini bevosita boshqaradi, bular DTS ning institutsional tarkiblarini tashkil etadi. Mazzkur tarkibning yo'naliishi, mazmuni va tuzilishi ta'lim muassasasi tomonidan o'z an'analari, ilmiy-pedagog madaniyati hisobiga olgan, atrof ijtimoiy madaniyat va iqtisodiy muhit bilan birga harakat qilgan holda belgilanadi. Shuni ta'kidlash joizki, fanlar va tanlov bo'yicha ko'zda tutilgan kurslar ta'lim kasb dasturidagi barcha fanlar bo'yicha DTS da ko'zda tutiladi.

Davlat boshqaruvi ta'limda DTS ning davlat komponenti – ta'lim umummilliy me'yorlari bilan belgilanadi. Davlat shaxs, jamiyat va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bakalavriat yo'naliishi va magistratura ixtisosliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash mazmuni va darajasi

majburiy minimumiga talablarni shakllantiradi.

Davlat ta'lim standarti bo'yicha ta'lim mazmuni shakllari, vositalari usullari baholanadi. Standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'lim xalqaro darajaga keltiriladi. Demak, ta'lim standartlari o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llannalar nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysundirishdan qat'iy nazar, barcha ta'lim muassasalar uchun majburiy hisoblanadi.

### O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimi kanallari

A. Umumiy o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslarini ishlab chiqib quyidagi me'yoriy hujjatlar asos qilib olinadi.

«Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998 yil 5 yanvardagi 5-sod hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13-maydagi 203-sod qarorlari;

O'zRST 1.0-92 O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

O'zRST 1.1-92 O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimini ishlab chiqish, taqsimlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi;

GOST 1.5.-93 Davlatlararo standartlash ishlarini olib borish qoidalari;

O'zRST 1.9-95 O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

B. Umumiy o'rta maxsus ta'lim maktablar uchun tayanch rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarining me'yoriy hamda umumiy o'rta maxsus ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir.

V. O'quvchilar va talabalarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar. (Umumiy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining asosiy bosqichlarini yana bir bor ta'kidlab o'tiladi).

Ta'limning tashkiliy masalalari Al - Forobiyning "Fan va aql-zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qtish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Pedagogika tarixida, ta'lim xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullaniganligi "Avesto" va boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlarda ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdag'i bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma – bosqich berish masalaliga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al - Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qtish ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan.

Pedagogika tarixida, ta'lim tashkil etishning asosiy shakli Dars hisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda Chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) hizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Ya.A.Komenskiy "Buij didaktika" asarida, o'quv mashg'ulotlarini guruh. shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, 1 guruhlarda gi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'linishga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tus-huntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Bu tarixiy jarayonda pedagogika fani oldida turgan muammolaridan biri ta'limning tashkiliy shakllarini samaradorligani oshirish, ayniqsa, darsni samaradorligini oshirish bilan bog'liq. ilmiy-nazariy uslubiy va amaliy muammolarni hal etuvchi tadqiqotlar olib borishda ko'p ishlar qilindi.

Bu borada mustaqil O'zbekistonimizda kadrlar tayyorlash milliy

dasturini amalga oshirishda ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar tadbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda. Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lган o'quvchilar guruhi tus huniladi. Dars - aniq, maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtida bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.


Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarning asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Har bir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.

2. Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq, muddatda olib borilishi kerak.

3. Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishslash shaklida olib boriladi.

4. Dars, o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi va ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.



foydalanish kabilarni oddindan hal kilib oladi.

2. Har bir dars aniq, g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim.

3. Har bir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan boshlanmog'i, ko'rsatmali vositalar

bilan jihozlanmog'i lozim.

4. Har bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil lozim.

5. Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

6. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi lozim, o'quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

7. Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda olib borilish kerak.


8. Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

9. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil yurtimizdag'i o'zgarishlardan o'quvchi talabalarni xabardor qilish.

10. Darsda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata aytgan murojaatlaridan o'z o'rniда foydalanish.

Dars turlari va ularning tuzilishida ham alohida muammo sifatida qaraladi va o'rganiladi.

Dars bilim, ko'nikma va malakalarini oshiradi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlarida ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarflanadi.



Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat: Tashkiliy qism; vazifani tekshirish;



1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'quv materiallarini mustahkamlash.
- Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darslari.  
O'quvchilarining o'zlashtirishini nazorat qilishi va baholash darslari.
5. Dars turlari, uyg'unlashgan darslar. Ta'lif jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilishi darsidir. Bu darsning tuzilishi quyidagicha:

- Darsni tashkil qilish.
- Yangi bilimlarni bayon qilish.
- Yangi bilimlarni mustaxkamlash.
- Yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish.
- Yangi bilimlarga bog'liq, uy mashg'ulotlarni berish.

6. Darsni yakunlash. Dars turlarining o'zgarish bilan darsning tuzilishida ham 1 o'zgarishlar bo'ladi, Masalan, dars turlari uyg'unlashgan darslarida darsning hamma elementlari mavjuddir:

Uzluksiz ta'larning hamma bosqichlarida ta'larning xos tashkiliy shakllari mavjud.

Jumladan: ikki bosqichli oliy ta'lif tizimida o'ziga xos ta'lif shakllari mavjud, bularga ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq; ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruba matnini tayyorlash va muhokama qilish, o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar oliy ta'larning ko'p qirrali yo'nalishlari va shakllaridir. Oliy ta'lif tizimida ma'ruba o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi.

Ma'ruba tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruba ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'rgatuvchi har bir ma'ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan

boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma'ruba ijobi hamkorlikka tayanb tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruba jarayonida ham ta'limi, ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llardan biri o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

### **Milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy choratadbirlar**

Milliy dasturni amalga oshirish maqsadida:

Milliy dasturning yo'nalish va bosqichlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta'minoti ifodalangan yechim va chora tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi;

Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalari belgilanadi;

Milliy dasturning aniq yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlari jalb etiladi;

Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvi tashkil etiladi;

Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalarini va tadbirlariga tuzatishlar kiritiladi;

Ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarilishini ta'minlash masalalari yuzasidan seminarlar va konferensiylar o'tkazish orqali milliy dasturning principial yondoshuvlari hamda asosiy qoidalarini keng ko'lamda tushuntirish ishlarini olib boriladi;

Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqalarning faol ishtiropi ta'minlanadi;

Ommaviy axborot vositalarida Milliy dasturning bajarilishi muntazam yoritib boriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan respublika komissiyasi tashkil etiladi, bu komissiyaning zimmasiga dasturni bajarishga doir barcha ishlar va tadbirlarni tashkil etish hamda uzluksiz ta'larning tegishli turlari uchun davlat ta'lif

standartlariga qo'yiladigan umumiy talablarni ishlab chiqish;

Umumiy o'rtalim uchun davlat ta'limga standartlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

O'rtalim maxsus, kasb-unar ta'limi tizimi uchun davlat ta'limga standartlarini, akademik litsey va kasb hunar kollejlardan iborat ta'limga tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

Umumiy o'rtalimga ega bo'lgan o'quvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to'la qamrab olish tadbirlarini, bu tizimni hududlarini demografik, jug'rofiy xususiyatlari va kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda joylashtirish, uning moddiy-texnika asosini yaratish;

Akademik litsey va kasb hunar kollejlarda ishlaydigan o'qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta'limga muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlarini ta'minlash;

Oliy ta'limga muassasalarini tizimini milliy dastur talablariga binoan isloq qilish, bu borada tegishli davlat ta'limga standartlarini yaratish va joriy etish; maktabgacha ta'limga va tarbiya muassasalarini faoliyatini takomillashtirish, bolalar tarbiyasida va maktabga tayyorlashda oila, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining mas'uliyatini oshirish;

Ta'limga muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarini jaib etish, ta'limga va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish;

Professor va pedagog kadrlarni rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi ta'limga muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus Respublika jamg'armasini tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash;

Uzluksiz ta'limga tizimida chet tillarini faol o'rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, o'zbekcha-chet tillar lug'atini, davlat tilida maxsus adabiyotlarni nashr etish;

Uzluksiz ta'limga sohasi o'qituvchilariga va pedagog kadrlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, ularni mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish;

Ta'limga muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish akkreditatsiyalash, kadrlar tayyorlashning malaka talablarini aniqlash hamda sifatini baholash ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha ta'limga

tizimi boshqaruviga bog'liq bo'lmagan yagona davlat xizmatlarini tashkil etish;

Ta'limga axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'limga sohasidagi vazifalarini belgilash;

Kasb-hunar ta'limga sohasida kadrlarga bo'lgan talab va taklifini o'rganishni tashkil etish, ta'limga xizmatini ko'rsatish va kasbiy mehnatning raqobatga asoslangan bozorini hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni shakllantirish.

### **Maktab va umumiy o'rtalimga tizimini shakllantirish va rivojlantirish standartlari monitoringi**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida «Ta'limga tizimini shakllantirish va rivojlantirish standartlari umumiy o'rtalim, o'rtalim maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limga tizimini tarkibi qayta qurish va tubdan yanglash, o'quvchi-talabalariga beriladigan ta'limga mazmunining, bilim, ko'nikma va malakalariga, madaniy va ma'nnaviy-axloqiy saviyasiga qo'yiladigan minimal talablarini belgilab beruvchi davlat ta'limga standartlarini ishlab chiqish va joriy etish ko'zda tutilgan.

«Ta'limga tizimini shakllantirish va rivojlantirish standartlari umumiy o'rtalim, o'rtalim maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limga mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarini belgilaydi. DTSning bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'limga muassasalarini uchun majburiydir» deyilgan.

Mamlakatimizda umumiy o'rtalim maxsus ta'limga muassasalarini uchun yaratilgan sinov natijalarini asosida takomillashtirilgan DTSlari Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustidagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlangan holda 1999-2000-o'quv yildan boshlab xalq ta'limga vazirligi majlisining 1999-yil 29-avgustdagi 811 sonli qarori bilan tasdiqlangan yangi o'quv dasturlari bilan bиргаликда bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

DTS monitoringini olib borishning asosiy maqsadi :

- ta'limga muassasalarida DTSning joriy etilishini o'rganish;
- talaba-o'quvchilarining DTS talablariga javob berishini hamda yangi o'quv dasturlar materiallarini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatichlarini aniqlash;

- darslik (o'quv qo'llanma)larning talabga javob berishini o'rganish;
- ta'lif mazmunlarini va metodlarini takomillashtirish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni va yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish;
- ta'lif samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash uchun takliflar berishdan iborat.

**DTS monitoringini olib borish;**

DTS monitoringi xalq ta'lifi vazirligining davlat ta'lif standartlari monitoringi boshqarmasi tomonidan olib boriladi. DTSlari monitoringi boshqarmasi UUT va kasb-hunar ta'lif DTS monitoringini quyidagi tartibda olib boriladi:

1.1. Respublika xalq ta'lifi muassasalarida DTSning joriy etilishi va monitoringi xalq ta'lifi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lifning DTSlari monitoringini olib borish tartibi» asosida amalga oshirilishining nazorat qiladi. (o'quv yili davomida).

1.2. Ta'lif muassasalarida DTS va yangi o'quv dasturlarining joriy etilishini saylanma tarzda nazorat qilib boradi. (o'quv yili davomida).

1.3. DTSda belgilangan talablarning bajarilishini nazorat qilish hamda o'quv dasturlari materiallarini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida saylanma tarzda har bir viloyatdagi ta'lif muassasalarida tashqi nazorat ishlari (test, sinov, yozma ish, diktant, og'zaki so'rov, anketa so'rovi)ni o'tkazadi. (aprel oyida)

1.4. Ta'lif muassasalarida o'quv dasturlari materiallarini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatkichlarini o'rganish maqsadida, saylanma tarzda, tashqi nazorat ishlarini o'tkazadi. (yil davomida)

1.5. Olingan tashqi nazorat ishlari, natijalari asosida DTS talablarning bajarilishi hamda yangi o'quv dasturlari materiallarini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatkichlarini bo'yicha kengashida tahlilnomaga jadval tayyorlaydi. (har yili iyun oyida).

1.6. DTS talablari bajarilishi hamda o'quv dasturlari materiallarini o'zlashtirishdagi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan nazorat natijalari asosida tayyorlangan tahlilnomaga jadvallarini XTB vazirligi monitoring tasviriy oynasida aks ettiradi. (har yili iyul, avgust oyida)

1.7. DTS talablari bajarilishini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan natijalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlariga erishilgan muassasalar ta'lif samaradorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni belgilash, o'quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan Xalq ta'lifi Vazirligi rahbarlariga taklif va tavsiyalar bilan chiqadi. (har yili iyul, avgust oyida)

1.8. UUT DTS monitoringi natijalarini «Ma'rifat» «Ta'lif taraqqiyoti» axborotnomasida e'lon qilib boradi. (doimiy).

Monitoring ish faoliyatida: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi qonunlari; Prezident farmonlari; ta'lif muassasalari farmonlari; ta'lif mazmunini belgilaydigan Vazirlar Mahkamasining qarorlari; xalq ta'lifi vazirligining qarorlari, buyruqlari, tegishli me'yoriy hujjatlar talablari hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimida mavjud ilg'or tajribalar, Yangi pedagogik texnologiyalar, metodik qo'llanmalar, risolalar bankini tashkil etadi va yangilab turadi.

Rivojlangan mamlakatlarda kasb ta'lifi (shu jumladan oliy ta'lif)ning bosh maqsadi - raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va barcha toifadagi malakali xodimlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iborat.

**Raqobatbardosh mutaxassislarsiz raqobatbardosh iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.**

O'zbekistonda mazkur masalani yyechishda Kadrlar tayyorlash milliy modeli asos bo'lib, hisoblanadi.U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'yekti va ob'yekti, ta'lif xizmatini talab etuvchi hamda amalga oshiruvchi;

- davlat va jamiyat - ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimini faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish hamda ish olib borishining boshqarishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularga talabgorlik kafolati;

- uzuksiz ta'lif - o'z tarkibiga barcha ta'lif turini, davlat ta'lif standartlarini, faoliyat ko'rsatish tuzilmasi va muhitini olgan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosi;

- Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va talab etuvchi, ilg'or pedagogik va informatsiyaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi;

- ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan talabni, shuningdek ular

tayyorlanganlik sifat va darajasiga talabni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimlarini moliyalash va moddiy- texnik ta'minlash ishtirokchisi.

Shaxslarga, ta'lim xizmati talabgori sifatida, davlat ta'lim standartlari orqali sifatli ta'lim va kasbiy tayyorgarlik kafolatlanadi.

Shaxs – ta'lim xizmati ko'rsatuvchi sifatida, tegishli darajada malaka hosil qilib o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda bilim malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi va boshqalarga beradi.

Davlat va jamiyat kafolatlaydi:

- fuqarolar ta'limga, kasb tanlash va malaka oshirishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishini;

- akademik litsey yoki kasb – hunar kolleji o'qishga yo'llashni tanlash huquqini majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb ta'lim olishni;

- davlat granti yoki haq to'lash-shartnomaga asosida oliy va OTM ni tugatgandan keyingi ta'lim olish huquqini;

- davlat ta'lim muassasalarini moliyalash;

- o'qitayotganlarning o'qish, yashash va dam olish sharoitlarini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda jamoatchilik boshqaru- vini rivojlantirish;

- ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy muhofazalash va b.ni.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldinda borishlik uchun zarur sharoitlar yaratadi. Bular ta'limning quyidagi turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha; umumiy o'rta; o'rta maxsus; kasbiy; oliy; ta'lim muassasasi tugagandan keyin va maktabdan tashqari o'qituv; malaka oshirish hamda kadrlarni qayta tayyorlash.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Uzluksiz ta'lim masalasini qanday tushunish mumkin?
2. Davlat ta'lim standartini mazmun va mohiyatini tushuntirib bering.
3. O'zbekistonda monitoring sistemasi qanday tashkil qilingan?
4. DTSi monitoringi deb nimani tushunasiz?

#### Tayanch so'zlar

Uzluksiz, sistema, tizim, davlat ta'lim standarti, islohot, natija, bosqichma-bosqich, monitoring, ta'lim markaz, qonunlar.

### III BOB. OLIV TA'LIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI

#### Oliy ta'lim tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari

Boshqarishning asosiy maqsadi tuzilishi va oliy ta'lim muassasalarining tuzil maviy vazifasi o'qitishning, oliy kadrlar tayyorlashning va ilmiy tadqiqotlar oliy darajasini mustahkamlash, shuningdek,

jamiyatga xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim tizimining maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlarda belgilangan ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni samarali boshqarish va ijobjiy hal qilishdir. Ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mas'ul bo'lgan shaxslar o'rtasida, professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar, mehnat sohasi, OTM lar va jamiyat o'rtasida yaqindan hamkorlik zarur. Boshqarishdan asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalarining institutsional vazifasini ta'lim berish, kadrlar tayyorlash ijodiy darajasini ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan mustahkamlashdan iborat bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlariiga muvofiq O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini masalasini rivojlangan mamlakatlar darajasida hal etishga qodir, yuksak darajada ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim tizimining vazifasi hisoblanadi.

Quyidagilar oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq zamонавиy ta'lim-kasb dasturlari asosida sifatli o'qituvchi ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda, tayyorlash;

- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat zamонавиy

yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish;

- ta'limni individuallashtirish, masofadan o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish;

- Mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof-muhitga muhabbat ruhida, milliy uyg'onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqur his etish asosida oliy ta'limning gumanitar yo'nalishini, yoshlar tarbiyasini ta'minlash;

- ilmiy-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar ilmiy-tadqiqotlari hamda ijodiy faoliyatları vositasida fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish, olingan natijalardan ta'lim jarayonida va tarmoqlarda foydalanish iqtisodiyoti;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali uyg'unlanuvchi usullarini amaliyatga tadbiq etish;

- ta'lim xizmati ko'rsatish bozorida, raqobat muhitini yuzaga keltirish;

- rivojlangan mamlakatlar bilan oliy ta'lim sohasida o'zaro foydali aloqalarni rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasalarini takomillashtirish va kengaytirishni boshqarish.

### Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

Oliy ta'lim boshqaruvi tizimi va tarkibiy qismlarining vazifasi qanday?

- davlatga qarashli va davlatga aloqadorsiz oliy ta'lim muassasasi, bular davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim-kasb dasturini amalga oshiradi;

- ilmiy-pedagog muassasalar, bular oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini olib boradi;

- ta'limni boshqaruvchi davlat idoralari, shuninigdek, ular tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlar hisoblanadi.

Qayd etilgan vazifalarni samarali hal etish oliy ta'lim tizimi va uning tarkibiy bo'linmalarini (universitet, akademiya, institut va b. lar) uchun tizim barcha darajadagi rahbariyati boshqaruvni amalga osdirishining mazmuni, tamoyil va usullariga sezilarli darajada bog'liq.

**Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
rektorining 2019/2020 o'quv yili uchun  
NA'MUNAVIY YO'L XARITASI**

Nº	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Moliyalashtirish manbai	Kutilayotgan natija
I. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy hamda innovatsion tendensiyalarni hisobga olgan holda ta'lim muassasasining strategik istiqbolini belgilash					
1.	Xorijagi 1000 ta eng yaxshi oliy ta'lim muassasalarining PhD darajasiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarini o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jaib etish.	Instituting yo'nalishlariga mos keluvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatini aniqlash, xorijiy oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish hamda shartnomalar tuzish, O'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jaib etiladigan professor-o'qituvilar ro'yxatini aniqlash hamda ularni belgilangan muddatlarda o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jaib etish.	2018/2019 o'quv yili davomida		Xorijiy oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantiriladi, o'quv jarayoni va malaka oshirish kursleriga xorijiy mutaxassislar jaib etiladi.
2.	Institut professor-o'qituvchilarini va ilmiy xodimlarini tomonidan PhD hamda DSc bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishlarini va monografiyalarini chop etishlarini kengaytirish. Ularning xalqaro va milliy, ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda, tanlovlarida faol ishtirokini ta'minlash	Oxirgi uch yil ichida katta ilmiy xodim izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar institutini tamomlaganlar ro'yxatini shakllantirish, nomzodlik (PhD) yoki doktorlik dissertatsiya (DSc) larini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni o'rganish hamda ilmiy ishlarini qanday darajada tayyorligini aniqlash, bududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari hamda ta'lim yo'nalishlariga mos mavjud muammolar bo'yicha ishlar ro'yxatini shakllantirish, yosh o'qituvchilarini tayanch doktorantura va doktoranturaga maqsadli o'qishlarini tashkil etish	2018/2019 o'quv yili davomida		Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan nomzodlik va doktorlik dissertatsiya ishlarini himoya qilish ko'payadi, yosh o'qituvchilarni tayach doktorantura va doktoranturaga o'qishga kirishga qiziqishlari ortadi. Mayjud muammolar o'ganiladi hamda taklifler tayyorlanadi.

	<b>II. Iqtidorli yoshlarini saralash (seleksiya) mexanizmlarini joriy etish orqali kadrlar tayyorlashni yo'liga qo'yish</b>			
1.	Elektron ta'lim muhitiga iqtidori talaba-yoshlarni jalb qilish	Institutdagi ta'lim yo'naliishlarida tahsil olayotgan iqtidori talabalarни elektron ta'lim muhitini yaratish jarayoniga jalb qilinadi. Bunda iqtidori talabalar har bir fanni elektron resurslar bilan ta'minlashga yordam beradi	2018/2019 o'quv yili davomida	Talabalar o'z mutaxassislik fanlarini mustaqil o'rganadilar, mustaqil izlanedi va ularda fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllanadilar, fanlarni Chuqur o'zlashtirishga imkon berildi.
3.	Xorijiy ilmiy fondlar va tadqiqot markazlarining grantlarini va buyurtmalari hisobidan mablag'larni jalb etish.	Xorijiy davlatlar tomonidan e'lon qilingan xalqaro grantlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kafedra professor-o'qituvchilari e'tiboriga etazish, kafedra professor-o'qituvchilarning xalqaro grantlar tanlovida ishtirot etishlariga ko'maklashish, davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida bejaraliyotgan amaliy, innovatsion va fundamental loyihiilar tanlovida o'zlarining loyihiilar bilan ishtirot etishlarini kengaytirish.	Doimiy	Professor-o'qituvchilar tomonidan xalqaro loyihiilar tanlovida ishtirot etishlar uchun imkoniyatlar kengayradi. Xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari o'matiladi. Xorijiy mablag'larni jalb etiladi, professor-o'qituvchilarni o'zlarining ilmiy tadqiqot mavzulari bo'yicha loyihiilar bejarilishi orqali nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarni himoya qilish ortadi, ilmiy salohiyati yaxshilanadi
4.	O'quv jarayoniga hamkorlik aloqalari o'matilgan xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining o'qituvchilarini jalb etish hamda xorijiy talabalmi o'qishga qabul qilish ko'lamini kengaytirish	Hamkorlik aloqalari o'matilgan xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalaridan kelib o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslarida dars berish mumkin bo'lgan yetakchi mutaxassislar bilan aloqalarni o'matish, xorijiy mutaxassislarini o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jalb etish rejasini ishlab chiqish, xorijiy talabalmi o'qishga qabul qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash	Doimiy	O'quv jarayoniga xorijiy mutaxassislar jalb etilib, tajriba almashinadi, talabalar va professor-o'qituvchilarni xorijiy tillarni bilish darajasi ortadi, dars o'tish sifati yaxshilanadi.

				Ushbu talabalar keyinchalik institutda ishga qolish uchun tayyorlandi
2.	"Fan olimpiadalari"ni tashkil etish	Toshkent viloyati ta'lim muassasalarining bitiruvchi sinflarida institutda mavjud ta'lim yo'naliishlaridan kelib chiqib, professor-o'qituvchilar tomonidan "Fan olimpiadalari"ni o'tkaziladi	2018/2019 o'quv yili aprel-may oylarida	Toshkent viloyatida mavjud maktab va boshqa ta'lim muassasalarida yaxshi o'qiydigan o'quvchilar mos ta'lim yo'naliishlari bo'yicha o'qishga jalb qilinadi. O'qish davomida ularga kerakli bilimlar berilib, yetuk salohiyati kadr sifatida tayyorlandi
3.	O'rta ta'lim maktablarida uchrashuvlar tashkil etish	Toshkent viloyati maktablarida "fan yo'naliishi"dan kelib chiqqan holda uchrashuvlar tashkil etiladi. Uchrashuvda fanning zamonaviy yutuqlari hamda institutda ushu sohada amalga oshirayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlar beriladi	2018/2019 o'quv yili davomida	Ta'lim muassasalarida yaxshi o'qiydigan o'quvchilar mos ta'lim yo'naliishlari bo'yicha o'qishga jalb qilinadi. O'qish davomida ularga kerakli bilimlar berilib, yetuk salohiyati kadr sifatida tayyorlandi
4.	Ish beruvchilar tomonidan institut bitiruvchilarini ishga qabul qilish bo'yicha oldindan hamkorliklar olib borish.	Kadrlar iste'molchilari hisoblangan korxona, tashkilot va muassasalarning yetakchi mutaxassislarini ishtirokida talabalar bilan uchrashuvlar o'tkazish, kadrlar iste'molchilari tomonidan bitiruvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiledigan talablar bo'yicha takliflar olish, ularning takliflariga asosan o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritish, korxona, tashkilot va muassasalarning yetakchi mutaxassislarini Davlat attestatsiyalariga, bitiruv malakoviy ishlariiga, magistrilik dissertatsiyalari himoyalariiga Davlat attestatsiya komissiyasi tarkibiga jalb etish bo'yicha kelishib olish	Doimiy	Talabalmi ishga joylashtirish bo'yicha ish beruvchilar bilan shartnomalar imzolaniadi, ish beruvchilar tomonidan o'quv rejalarini va fan dasturlarini shakllantirish bo'yicha takliflar olinadi, kadrlar tayyorlash sifati ortadi.

5.	Institut talabalarini xalqaro va respublika olimpiadalarida hamda nufuzli tanlovlarda ishtirok etishlarini ta'minlash.	Iqtidori talabalar ro'yxatini shakllantirish, talabarni o'zlarining qiziqishlariga qarab respublika va xalqaro olimpiadalarda hamda nufuzli tanlovlarda ishtirok etishlarini ta'minlash, xalqaro va respublika olimpidalari hamda nufuzli tanlovlarda natijalarga erishgan talabarni rag'battanlirib borish.	Doimiy		Institut talabalarini xalqaro va respublika olimpiadalarida hamda nufuzli tanlovlarda ishtirok etishlarini ta'minlanadi, talabarni o'zlarining qiziqishlari bo'yicha kafedralarda tashkil etilgan to'garaklarda ishtirok etishlari kengayadi, sport bilan shug'ullanish darajasi ortadi
<b>Ta'lif muassasining xususiyatidan kelib chiqqan holda kadrlarga bo'lgan talablar asosida ta'lif sifatini oshirish mehnatzmini shakllantirish</b>					
1.	Yangicha innovatsion yondashuv orqali talabalarning mustaqil ta'lif olishini ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish.	Ta'lif yo'nalishlari bo'yicha mustaqil ta'limning barcha elementlari elektron tizimga joylashtiriladi, talabalar masofadan turib mustaqil ta'lif mavzularini o'zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratiladi, olingen bilimlami baholash bevosita masofadan turib amalga oshiriladi, institutda elektron kutubxonalar tashkil etiladi. Wi-Fi zonalarini tashkil etiladi.	2018/2019 o'quv yili davomida	Institut mablag'ları	Mustaqil ta'lif olish tizimi to'liq axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Talabalar nazariy va amaliy bilimlarni mustaqil egallaydilar. Talabalar o'z faoliyatida AKT va Internetdan foydalanan darajasini oshirib boradilar. Bilim egallash qobiliyatini mutazam ortadi
5. Davlat ta‘lim standartlari qoidasida hammaning ta‘lim olish uchun imkoniyat yaratilganligi.
6. Tayanch ta‘limning majburiyligi.
7. Ta‘lim ma’naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalishtilgan o‘quv reja va dasturlarini tasdiqlaydi.
8. Bilimdonlik va iste’dodni rag‘batlantirish.
9. Ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘rganish, din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish.
10. Ta‘lim ma’naviy va jismoniy tarbiya dasturlari.
11. Tarbiyalanuvchilar va ta‘lim oluvchilarni hurmatlash.
12. Pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash.
13. Amaldagi qonunlar doirasida mulkchiligining teng huquqligi, ularning mustaqilligi ta‘lim muassasi mustaqil yuridik shaxs bo‘lib qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi.

O‘quv - tarbiya ishlarini o‘quvchilarning barkamol qilib voyaga etishida pedagogik va psixologik jihatdan har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda rejim (kun tartibi) katta ahamiyatga ega. Rejim gumanistik ruhida tarbiyalash maqsad vazifalar, maktab va o‘rtalim muassasalarining o‘quv - tarbiya vazifalari va bolalarning ruhiy tetikligini nazarda tutish lozim. Boshqaruvchi muassasani rejimiga to‘g‘ri amal qilinishi va muassasaning butun hayoti to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi uchun javobgardir.

Ichki tartib qoidalari, bir tomonдан o‘qituvchilarning va boshqa xodimlarning ishini tartibga solsa, ikkinchi tomonidan, o‘quvchilarning ishini tartibga solsa,

ing muktab va o'rta - maxsus ta'lim muassasalarida bo'lgan vaqt-laridagi xatti - harakatlarini tartibga soladi. «Qoidalar»ning to'la matni o'qituvchilar xonasiga, uning texnik xodimlariga oid qismi esa muktab va o'rta - maxsus ta'lim muassasalari binosining kiraverishi-ga osib qo'yiladi. «Qoidalar» mehnat intizomini mustahkamlashga, o'quv - tarbiya ishlariiga vaqtincha to'g'ri foydalanishga imkon beradi.

### Takrorlash uchun savollar:

1. Boshqarishning me'yoriy usullari haqida ma'lumot bering?
2. Ta'lim muassasalarini tartibi to'g'risida fikringizni bahonang?
3. Muassasalarning qonun - qoidalari haqida nimani bilasiz?
4. Muassasalarning Nizomi va uning tartibi asosida ma'lumot bering?

### Tayanch so'zlar:

Metodologiya, ta'lim muassasalar, tizim, boshqarishning asosiy masalalari, usul, uslub, metod, sistema, tartib, qoida, qonunlar, us-toz, shogird.

## V BOB. TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

### Ta'lim-tarbiya tizimini boshqarishning pedagogik asoslari

#### Boshqaruvchining rahbarlik va tashkiliy faoliyati

Har bir muassasaning faoliyatidagi samaradorlik birinchi navbatda jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to'g'ri tashkil etilgan yoki etilmaganligi bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi birinchi navbatda rahbarlikning, boshqaruvchining tashkil etilishi darajasiga bog'liq.

Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo tashkillashtiradigan muammolar va o'z a'zolarining pedagogik -psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Rahbarlik uslublari va uning mazmun mohiyati rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va harakatining taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomonidan strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni ikkinchi tomonidan bu tizimning o'zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar va shu qatori professional faoliyat boshqaruv subyektiining rivojlanishida, mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbarlik uslubi bu rahbarning bo'ysinuvchilarga nisbatan ta'sir ko'rsatishi va ko'zlangan maqsadga erishishga undashishda bo'ysinuvchilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarni quyidagilarga asosan aniqlanadi:

- qarorlar qabul qilish jarayonida bo'ysinuvchilarning ishtiroy etish darajasi:
  - bo'ysinuvchilarning ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi:
  - rahbar tomonidan qo'llanilayotgan ish uslublari, ya'ni u yoki bu masalani hal qilishda uning o'ziga xos yondashishi.
- Liderlik bu-shaxsning shaxsiy avtoritetining odamlar xulq – atvoriga ta'siriga asoslangan guruh jamoadagi tabiiy ijtimoiy psixologik jarayonidir.

Liderlik asosan uch xususiyatga ega:

1. Emotsional lider
2. Ishonchlik lider
3. Informativ lider

Emotsional lider (guruhning yuragi) ya'ni har bir inson unga hamdardlik izlab murojat qilishi, "uning ko'kragiga bosh qo'yib yig'lashi mumkin".

Ishonch lider (guruhning qo'llari) ya'ni u ishni tashkillashtirish, ish yuzasidan muhim o'zaro aloqalarni yuzaga (muhim o'zaro aloqalarni yuzaga) keltirishi, ishning muvaffaqiyatini ta'minlash mumkin.

Informativ lider (guruhning miyasi) ya'ni hamma savollar bilan murojaat qilish mumkin, chunki u hamma narsani biladi tushunadi, tushuntiradi, zaruriyatni ham qilishga yordam beradi.Uchta komponentni ham birlashtirgan rahbar bo'lishi mumkin.

Rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalari quyidagilar: rejalshtirish, tashkillashtirish, nazorat.

Rejalshtirish – bu boshqaruv faoliyatining boshlanishi va assosidir tayyor rejalar nima, qachon va kim tamonidan bajarilishini ko'rsatib turadi.

Rejalshtirish o'tmishtagi rivojlanish, hozirgi sharoitlar tahlil qilish va kelajak real vazifalar qo'yishni nazarda tutadi.

Takomillashtirish -bu tizimni yuzaga keltirish nazarda tutadiki, bunda quyidagi uchta komponent: intiluvchi guruhlar, iqtisodiy munosabatlar va texnik vositalar mantiqiy ravishda bir-biriga bog'langan bo'ladi.

Yaxshi tashkilotchi bu-o'zi yaxshi ishlaydigan emas, balki qo'l os-tidagilar yaxshi ishlaydigan odam yaxshi tashkilotchidir.

Nazorat deganda ish faoliyatini tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, hodisalarни oldindan belgilangan shakli bo'yicha baholash tushuniladi. Nazorat yordamida ijtimoiy – psixologik obyektlarni, ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baxolash) dastlabki klassifikatsilash amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda boshqarishning me'yoriyni yaxshi yo'lga qo'ya olmaydigan va yaxshi yo'lga qo'yadigan rahbarlar orasidagi farqlar keltirilgan

Rahbarlik ko'nikkmalari yaxshi rivojlanmagani	Rahbarlik malakalari yuqori darajasi
Xodimlar xulq – atvori asosida nima yotganligini e'tiborga olmaydi.	Xodimlar xulq – atvori asosan nima yotganligini hisobga oladi
Jazolash bilan bog'liq bo'lgan xatti -harakatlardan qochadi.	Agar zarur bo'lsa, tartib o'rnatadi.
Rahbarlikning eski uslubiga rioya qiladi.	Boshqarishning me'yoriy uslubini jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashdiradi.
O'zining rolini ijro etishiga bo'ladigan ta'sirlar to'g'risida tasavvurga ega emas.	O'z rolini bajarishga nima ta'sir qilishini tushunadi.
Atrofdagilarning salbiy munosabatini paydo qiladi.	Atrofdagilar bilan yaxshi munosabatolarni rivojlantiradi.
Aniqlikka intilmaydi.	Aniq ko'rsatmalar beradi.
Xodimlar ishini o'z holiga tashlab qo'yadi.	Xodimlar ishini muntazam tahlil qilib turadi.
O'rtacha holat bilan kelishib ishlaydi.	Eng yaxshi na'munalarni taqdirlaydi
Ishning tahliliga yetarlicha sistemali yondoshmaydi.	Ishning tahliliga sistemali yondoshadi.
Vakolatlarni kam beradi.	Vakolatni malakali ravishda beradi.
Haddan ziyod salbiy uslubga ega	Salbiy mustahkamlash choralarini tez-tez qo'llashdan qochadi.
Xodimlarning ishini ijobiy baholash imkoniyatini nazar pisand qilmaydi.	Ijobiy teskari bog'lanish sharoitini yuzaga keltiradi.
Qiyin odamlar bilan ishlashni ko'pincha uddalay olmaydi.	Qiyin odamlar bilan maqsadga muvofiq munosabatlar o'matadi.
O'z guruhini himoya qilmaydi.	Agar xavf tug'ilsa o'z guruhini himoya qiladi.

Rahbarlikda ba'zida o'z e'tiborini faqat vazifalarga, ishga qaratgan rahbarni yoki o'z e'tiborini faqat xodimlarga qaratgan rahbarni ko'rish mumkin. Albatta bunday ko'rinishdagi rahbarlarning ikkalasi ham jiddiy chekinish deb baholanadi.

### Boshqaruv uslublari

Rahbarning uslubi – rahbar o'z faoliyatida insonlar bilan qo'l- layotgan o'ziga xos faoliyat usullari tizimidir. Rahbarning uslubi

qarorlar tayyorlash, ularni qabul qilish va amalga oshirish jarayonida xatti – harakatlari, muloqoti, so‘zlar erkinligining berilishi, boshqa insonlarni eshitishda vujudga keladi. Rahbarlik uslublari boshqaruv faoliyatining eng zarur va asosiy tashkil etuvchi unsuri hisoblanadi va rahbar shaxsining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Keltirilgan uslublardan birortasi ham ixtiyoriy sharoitlarda qo‘llanilishiga, universallikka da’vogar bo‘la olmaydi. Shuning uchun rahbarning muhim sifatlaridan biri turli xil uslublardan foydalana olishi, turli xil vaziyatlardan, sharoidan kelib chiqib ularni qo‘llay olishi hisoblanadi. Rahbarlar u yoki bu uslubni tanlashda aniqlangan qator omillarni hisobga olishi zarur.

1. Vaziyat (stres, tinch aniqlanmagan) masalan, vaqt ziq vaziyatlarda avtoritar uslub o‘zini oqlaydi.

2. Topshiriq (aniq tuzilishiga ko‘ra) murakkab yoki soddaligiga qarab.

3. Guruh (a’zolarining jinsi, yoshi, barqarorligi) ga qarab tanlash.

Jamoani boshqarishning me’yoriy asoslari samaradorligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri – boshqaruv uslublaridir. Rahbar qanday uslubda ish ko‘rishiha bog‘liq ravishda jamoadagi shaxslararo munosabatlar, psixologik muhit xarakteri o‘zgarib boradi. Boshqaruv uslublari muammosini o‘rganishga K.Levin maktabiga asos solingan. Boshqaruv, rahbarlik muammosi bilan shug‘ullanadigan aksariyat ko‘pchilik olimlarning e’tirof etishlaricha rahbarlikning quyidagi turlari farqlanadi.

Boshqaruvning avtoritar (yoki direktiv yoki diktatorlik) uslubi: bu uslub uchun rahbar tomonidan barcha qarirlarni qattiq yakka hokimlik asosida qabul qilish (“demokratik minimum darajada”), qarirlarni bajarish ustidan doimiy qattiq, jazolash po‘pisasi bilan, nazorat (“nazorat maksimum darajada”) xodimga nisbatan shaxs sifatida qarashning yo‘qligi. Doimiy nazorat hisobiga bu uslub ishda butunlay ma’qul natijalarga erishishni taminlaydi: (pisixologik bo‘lman kiriteriyalar bo‘yicha: foyda, unumdonlik, mahsulot sifati yaxshi bo‘lishi mumkin), lekin ustunliklarga qaraganda kamchiliklar ko‘p: xato qarorlar qabul qilish ehtimolining yuqoriligi, xodimlar tashabbusini, ijodkorligini bo‘g‘ish, yangiliklarni susaytirish, turg‘unlik, xodimlarning passivligi; Odamlarning o‘z ishidan, o‘zla-

rinning jamoadagi holatidan qoniqmasligi; Noxush psixologik iqlim (“laganbardorlar”, fitnalar) psixologik –stress xolatining yuqoriligini ta’minlab beradi, psixik va jismoniy sog‘lomlik uchun zararlidir. Boshqaruvchining bu uslubi faqat favqulodda xolatlarda ( avariya harbiy jang harakatlari va b.) maqsadga muvofiq va o‘zini oqlagan.

Boshqaruvning demokratik ( yoki kollegial) uslubi: boshqaruv qarori muammoni muhokama qilish, xodimlar fikrlarini va tashabbuslarini inobatga olgan holda qabul qilinadi (“demokratik maksimum darajada ”); qabul qilingan qarolarning bajarilishi ham rahbar tomonidan, ham xodimlarning o‘zları tomonidan nazorat qilinadi (“nazorat maksimum darajada ”); rahbar xodimlarning shaxsiga qiziqish va yaxshi e’tibor bilan qaraydi, uning qiziqishlarini,ehtiyojlarini, xususiyatlarini hisobga oladi.

Demokratik uslub eng samarali uslub hisoblanadi, chunki u to‘g‘ri o‘lchanigan qarorlar qabul qilishning yuqori ehtimolini, mehnatda yuqori ishlab chiqarish natijalariga erishishni, tashhabuskorlikni, xodimlarning faolligini, odamlarning o‘z ishidan jamoaning a’zosi ekanligidan qoniqishni, kollektivda yaxshi psixologik iqlimi va jipslashuvni ta’minlab beradi. Ammo demokratik usulni amalga oshirish rahbar yuqori intellektual, tashkilotchilik, psixologik-komunikativ qobiliyatlarga ega bo‘lgandagina mumkin.

Liberal-anarxistik ( yoki ishga beparvolik, yoki neytral) boshqaruv uslubi, bir tomondan, “maksimum demokratiya” bilan (hamma o‘z pozitsiyasini aytishi mumkin, lekin pozitsiyalarni real hisobga olishga, kelishishga hech kim intilmaydi), ikkinchi tomon dan, “nazoratning minimum” bilan (hatto qabul qilingan qarorlar bajarilmaydi, ularni amalga oshirish ustidan nazorat yo‘q, hamma narsa “o‘z holiga” tashlab qo‘yilgan) xarakterlanadi. Buning oqibatida: mehnat unumdonligi odatda past, odamlar o‘z ishidan, rahbaridan qoniqmaydi, jamoadagi psixologik muhit yomon, hech qanday hamkorlik yo‘q, sidqidildan ishlash uchun stimul yo‘q, ishning bo‘limlari guruhchalar liderlarining ayrim qiziqishlarining natijasidan tashkil topadi, yashirin yoki yaqqol konfliktlar mayjud, mojarolarga kirishuvchi guruhchalar qatlamlari yuzaga keladi.

Rahbarlikning izchil bo‘lman (nomantiqiy) uslubi rahbarning oldindan bilib bo‘lman holda bir uslubdan ikkinchi uslubga o‘tib turishidan namoyon bo‘ladi (goh avtoritar, goh beparvolik, goh

qarorlar tayyorlash, ularni qabul qilish va amalga oshirish jarayonida xatti – harakatlari, muloqoti, so‘zlar erkinligining berilishi, boshqa insonlarni eshitishda vujudga keladi. Rahbarlik uslublari boshqaruv faoliyatining eng zarur va asosiy tashkil etuvchi unsuri hisoblanadi va rahbar shaxsining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Keltirilgan uslublardan birortasi ham ixtiyoriy sharoitlarda qo‘llanilishiga, universallikka da‘vogar bo‘la olmaydi. Shuning uchun rahbarning muhim sifatlaridan biri turli xil uslublardan foydalana olishi, turli xil vaziyatlardan, sharoitdan kelib chiqib ularni qo‘llay olishi hisoblanadi. Rahbarlar u yoki bu uslubni tanlashda aniqlangan qator omillarni hisobga olishi zarur.

1. Vaziyat (stres, tinch aniqlanmagan) masalan, vaqt ziq vaziyatlarda avtoritar uslub o'zini oqlaydi.
  2. Topshiriq (aniq tuzilishiga ko'ra) murakkab yoki soddaligiga qarab.
  3. Guruh (a'zolarining jinsi, yoshi, barqarorligi) ga qarab tanlash.

Jamoani boshqarishning me'yoriy asoslari samaradorligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri – boshqaruv uslublaridir. Rahbar qanday uslubda ish ko'rishiga bog'liq ravishda jamoadagi shaxslararo munosabatlar, psixologik muhit xarakteri o'zgarib boradi. Boshqaruv uslublari muammosini o'rganishga K.Levin mактабига asos solingan. Boshqaruv, rahbarlik muammosi bilan shug'ullanadigan aksariyat ko'pchilik olimlarning e'tirof etishlaricha rahbarlikning quyidagi turlari farqlanadi.

Boshqaruvning avtoritar (yoki direktiv yoki diktatorlik) uslubi: bu uslub uchun rahbar tomonidan barcha qarorlarni qattiq yakka hokimlik asosida qabul qilish ("demokratik minimum darajada"), qarorlarni bajarish ustidan doimiy qattiq, jazolash po'jisasi bilan, nazorat ("nazorat maksimum darajada") xodimga nisbatan shaxs sifatida qarashning yo'qligi. Doimiy nazorat hisobiga bu uslub ishda butunlay ma'qul natijalarga erishishni taminlaydi: (pisixologik bo'limgan kiriteriyalar bo'yicha: foyda, unumдорлик, mahsulot sifati yaxshi bo'lishi mumkin), lekin ustunliklarga qaraganda kamchiliklar ko'p: xato qarorlar qabul qilish ehtimolining yuqoriligi, xodimlar tashabbusini, ijodkorligini bo'g'ish, yangiliklarni susaytirish, tur-g'unlik, xodimlarning passivligi; Odamlarning o'z ishidan, o'zla-

rining jamoadagi holatidan qoniqmasligi; Noxush psixologik iqlim (“laganbardorlar”, fitnalar) psixologik –stress xolatinining yuqoriligini ta’minlab beradi, psixik va jismoniy sog’lomlik uchun zararlidir. Boshqaruvchining bu uslubi faqat favqulodda xolatlarda ( avariya harbiy jang harakatlari va b.) maqsadga muvofiq va o’zini oqlagan.

Boshqaruvning demokratik (yoki kollegial) uslubi: boshqaruv qarori muammoni muhokama qilish, xodimlar fikrlarini va tashabbuslarini inobatga olgan holda qabul qilinadi (“demokratik maksimum darajada”); qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ham rahbar tomonidan, ham xodimlarning o’zları tomonidan nazorat qilinadi (“nazorat maksimum darajada”); rahbar xodimlarning shaxsiga qiziqish va yaxshi e’tibor bilan qaraydi, uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, xususiyatlarini hisobga oladi.

Demokratik uslub eng samarali uslub hisoblanadi, chunki u to‘g’ri o‘lchangan qarorlar qabul qilishning yuqori ehtimolini, mehnatda yuqori ishlab chiqarish natijalariga erishishni, tashshabuskorlikni, xodimlarning faolligini, odamlarning o‘z ishidan jamoaning a’zosi ekanligidan qoniqishni, kollektivda yaxshi psixologik iqlimni va jipslashuvni ta’minlab beradi. Ammo demokratik usulni amalga oshirish rahbar yuqori intellektual, tashkilotchilik, psixologik-komunikativ qobiliyatlarga ega bo‘lgandagina mumkin.

Liberal-anarxistik (yoki ishga beparvolik, yoki neytral) boshqaruv uslubi, bir tomonidan, "maksimum demokratiya" bilan (hamma o'z pozitsiyasini aytishi mumkin, lekin pozitsiyalarni real hisobga olishga, kelishishga hech kim intilmaydi), ikkinchi tomonidan, "nazaratning minimum" bilan (hatto qabul qilingan qarorlar bajarilmaydi, ularni amalga oshirish ustidan nazarat yo'q, hamma narsa "o'z holiga" tashlab qo'yilgan) xarakterlanadi. Buning oqibatida: mehnat unumdorligi odatda past, odamlar o'z ishidan, rahbaridan qoniqmaydi, jamoadagi psixologik muhit yomon, hech qanday hamkorlik yo'q, sidqidildan ishlash uchun stimul yo'q, ishning bo'limlari guruuhchalar liderlarining ayrim qiziqishlarining natijasidan tashkil topadi, yashirin yoki yaqqol konfliktlar mavjud, mojarolarga kirishuvchi guruuhchalar qatlamlari yuzaga keladi.

Rahbarlikning izchil bo'lman (nomantiqiy) uslubi rahbarning oldindan bilib bo'lman holda bir uslubdan ikkinchi uslubga o'tib turishidan namoyon bo'ladi (goh avtoritar, goh beparvolik, goh

demokratik, yana avtoritar va h.k.). Bu mehnat samaradorligining o'ta past bo'lishiga olib keladi.

Rahbar xatti-harakatining shakli va mazmuni mos kelmasligi ham mumkin, masalan, tashqi jihatdan demokratik uslub shakli qo'llaniladi (xodimlarga nisbatan tashqi xush ko'rish, e'tiborlikni namoyon qilish, muammolar muhokama qilinadi), lekin haqiqatda qaror rahbar tomonidan allaqachon yakka holda qabul qilingan bo'ladi (avtoritar uslubni "demokratik" uslub bilan maskirovka qilish).

### **Boshqaruvchining odobi, axloqi va muomala madaniyat**

Rahbarning uslubi va madaniyligi uning o'z qo'l ostidagilar bilan bevosita aloqasida, bularning o'zaro munosabatlarda tarkib topadi. Rahbarlik munosabat uchun demokratizm, jamoatchilik, yuksak javobgarlik va siyosiy onglilik, tashabbuskorlik kabi aqidalar xosdir.

Rahbar pedagoglar jamoasida o'rtoqlariga munosabatlarini shakllantirish uchun javobgardir.

Boshqaruvchining madaniyati bu ishga nisbatan bo'lgan munosabati deb tushinamiz. Tizimni boshqarishning me'yoriy uchun biz bilamizki, rahbar: ichki tartibini tashkil qilishda to'g'rilikka e'tibor berishi; rejalashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yilsa; barcha ishlarni bajaruvchisini tartibga solinsa; har qancha kamchiliklarni to'g'ri yo'lga tushib ketaveradi.

O'tgan mavzularda yaxshi bilamizki, boshqaruv ish faoliyatini to'rt bosqichga ajratib qo'ydik. O'shangang o'xshagan rahbarlik madaniyat ham har xil xususiyatlarga egadir.

Ta'lim muassasalari ishini boshqarishning me'yoriyda huquq va etika mezonzlari asosiy rol o'ynaydi. Rahbarlar bu ikki mezonga to'liq amal qilishlari lozim. Ular o'z rahbarlik ishlardida huquq va etikani gumanizm muloyimlik o'zaro yordam kabi mezonlariga tayanadilar.

Boshqaruvchi ustoz sifatida jamoa ishida o'quv tarbiya jarayonini tashkil qilishda pedagogik mahoratini ko'rsatishi zarur. Ana shuning uchun ham muassasa ishini boshqarishning me'yoriy tizimida rahbarlik uslubi va madaniyatini to'g'ri tashkil qilish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

Ta'lim muassasalarda ta'lim - tarbiya ishlarining samaradorligi KVP jihatdan boshqaruvchilarining qo'l ostidagilar bilan muomala odobiga, rahbarlik qilish madaniyatiga bog'liq ega bo'lishi kerak.

Boshqaruvchining shaxsiyati – uning fazilati va obro' – e'tibori hisoblanadi. Maktab va o'rta - maxsus ta'lim muassasasi direktorining muhim fazilati uning yaxshi o'qituvchi va metodist bo'lishidadir. Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasasi direktori ish faoliyatida o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasining dilkash murabbiysi bo'lishi kerak. Direktorlik fazilat va iste'dodni hech bir oliygoh tarbiyalamaydi. Uni hayotning o'zi, tabiat va jamiyatni kuzatish nuqtai nazarida tarbiyalaydi.

### **Boshqaruvchining odobi va uning kasbiy fazilatlari**

Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarida, o'rta - maxsus va oliv o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim tarbiya beruvchi mutaxassisni o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi. O'qituvchilik eng murakkab, qadimiylashtirishni yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnatga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamondaryoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Boshqaruvchi odobining o'ziga xos qonuniyatlar:

- kasbini va bolalarni sevish;
- o'zi dars beradigan fanni, uni o'qitish nazariyasi va metodikasini, pedagogika, psixologiya va mafkuraga doir chuqr bilimga, yuksak ma'naviy madaniyatga ega bo'lishi;
- shaxsning axloqiy pokligi;
- pedagogik takt, muomala odobi qoidalariga ega bo'lish;
- hamma o'quvchilarga nisbatan xolis niyatli, obyektiv, talabchan, adolatli bo'lishi;
- pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri bilan pedagogik ijodkorlikning uyg'unligi.

Boshqaruvchi odobining manbalariga quydagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta'lim to'g'risidagi qonuni (2020), Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi.

Mamlakatning direktiv hujjatlari Respublika prezidentining asar-

lari, ma'ruzalari, nutqlari; hurmat qilishi.

- umumiy va milliy axloqqa, kasb odobiga doir ilmiy asarlar;
- Qur'oni Karim, Hadisi sharif;
- O'rta Osiyoda yashab ijod etgan donishmandlarning madaniy - ma'rifiy, pedagogik me'rosi;
- O'zbek xalq pedagogikasi asarlari odobnomalar va ularga doir ilmiy pedagogik tadqiqotlar;
- axloqiy tarbiyaga doir boshqaruvchining odobiga doir ta'limotlar;
- maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalari odobnomalar va boshqa fanlarni o'qitish tajribasi pedagogik amaliyotga doir materiallar;
- ta'lim – tarbiya, pedagogik faoliyatni aks ettirgan badiiy asarlar va boshqalar.

O'zbek xalq pedagogikasi asarlarida murabbiy ustoz eng hurmatli mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. "Otaning bolasi bo'lma odam bolasi bo'l. Ustoz – otadek ulug'. Ota – ona bolani dunyoga keltiradi ustoz esa uni yuksaklikka ma'naviy kamolotga yetkazadi".

**Hikoyat.** Naql qilishlaricha podsho o'z a'yonlari bilan ovdan qaytayotganda yo'lda kelayotgan bir bolani ko'rib qoladi. Otidan tushib bolaga salom beradi. Vazir bundan taajjublanib "Shohim nega bunday qildingiz," – deganda u: "Bu ustozimning nabirasi. Ustozga hurmat tufayli unga shunday salom berdim" – degan ekan. Bu naqlida xalqimizning ustozga muallimga bo'lgan hurmat – ehtiromi ifodalangan. "Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim" "Hayot ustozni xalq – muallim" kabi hikmatlar juda o'rini aytilgan.

Hozirgi zamonda rahbarning fazilati asosan uning dadilligidan, tashabbuskorligidan, bilimdonligidan, halol va va'dasiga vafodorigidan ma'lum bo'ladi. Shu nuqtai nazardan hozirgi boshqaruvchilar haqiqiy fazilat va xususiyatlarga ega bo'lishi uchun:

1. Keng siyosiy bilimga ega bo'lish.
2. Pedagogik mahorat va komiliyatga ega bo'ladigan.
3. Kollektivning taskil qila oladigan va ularga nisbatan muomalada bo'lishi.
4. Ota – onalar va jamoatchilik o'rtasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lish.

5. Dunyoqarashi keng, ilmiy – metodik ilmgaga ega bo'lish.
6. O'z fanini yaxshi bilishni.
7. Izlanuvchan omilkor bo'lish va yangiliklarga ijobiy munosabatda bo'lish.
8. Muassasaning hamma sohalarini keng o'rgangan ekanligi.
9. Ishga vijdonan munosabatda bo'lish.
10. Xo'jalik masalalarini to'g'ri hal qiladigan.
11. Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasasi ishini boshqarishning me'yoriy prinsiplari asosida tashkil qilish va amalga oshirish.
12. O'quv rejalarini dastur asosida ishga qo'yish va rahbarlik qilish va boshqalariga katta e'tibor berishi kerak. Shuni alohida qayd qilish kerakki, maktab boshqaruv tizimini to'g'ri tashkil etishda rahbarning obro' – e'tibori nihoyatda kattadir. Obro' – e'tibor chuqur ijtimoiy – iqtisodiy va tarixiy ildizlarga ega bo'lgan mislsiz xususiyatdir.

Obro' – e'tibor nisbiy xususiyat bo'lib uning qo'llanilish sohasi o'zgarib turadi va ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlarga bog'liq bo'ladi.

Maktab va o'rta - maxsus ta'lim muassasa jamoasidagi "psixologik iqlim " pedagogik mehnatning unumdarligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir.

Boshqarishning me'yoriy tizimida boshqaruvchi rahbar maktabdagi hamma ishlarini o'quv – tarbiya sistemasidan boshlab to maktabdan va sinfdan tashqari ishlarigacha pedagogik va psixologik nuqtai nazarda biladigan va tahlil qiladigan bo'lishi kerak. SHuni nazarda tutishmiz kerakki, muassasada pedagoglar mehnati yaxshi tashkil etilsa, ta'lim – tarbiya samaradorligi ham shu darajagacha yuksak bo'ladi. Undan ma'lum bo'ladi har bir rahbar maktabda pedagogik psixologik hayotni bir maromda ushlab tursa, bu maktabda kollektiv mutlaqo parokanda bo'imaydi.

Maktab va o'rta - maxsus ta'lim muassasasi ichki boshqaruvi tizimida pedagoglar jamoasini va uning ayrim a'zolarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimlari ongli mehnat o'quvchining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Maktab va o'rta - maxsus ta'lim muassasasi xodimlarining bir - biri bilan munosabati ikki xil rasmiy va norasmiy usulda amalga

oshadi.

Rasmiy usul o'qituvchi va tarbiyachilarning pedagogik jarayon va ijtimoiy faoliyatidagi ma'muriy jihatdan mustahkamlangan rasmiy aloqalarni ko'rsatib boradi va u pedagoglarni lavozim burchlaridan kelib chiqib o'zaro munosabatlarga ko'ra belgilanadi.

### Takrorlash uchun savollar.

1. Boshqarishning me'yoriy tizimi va manbalari deganda nimani tushunasiz?
2. Ichki boshqaruv tizimida rahbarlik uslubi deganda nima bilasiz?
3. Boshqaruv-madaniyati haqida nimani bilamiz?
4. Rahbarning fazilati va obro' – e'tiborini qanday bo'lishi kerak?
5. Rahbarning shaxsiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang.

### Tayanch so'zlar:

Rahbarlik tizim, jamoa, a'zolar, ish uslubi, boshqarishning me'yoriy uslubi, psixologik iqlim, bilim, tug'ma, faollik, tipologik, intugetiv, sensor, ratsional, emotsional, lider, ishonch, muomala, madaniyat, xulq.

### Ta'lim – tarbiya ishlarni boshqarishning me'yoriy asoslari

#### Ta'limning yo'nalishlari

Ilmiy adabiyotlarda qadim zamonlardan boshlab, pedagogik ta'limning vazifasi turli tipdagi maqtovlar, tarbiya muassasalari uchun o'qituvchilar, tarbiyachilar tayyorlashdan iborat, degan ma-noni anglatib keldi.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda – aniq muddatda va tartibda o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulotlari turlarini tushunamiz. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlari mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari

odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu davrga kelib o'qitishning maxsus tashkiliy shakllari paydo bo'la boshladи.

Ta'limning tashkiliy masalalari al-Farobi "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitishiga e'tibor berilgan.

Sharq mutafakkirlaridan A.Avloniy, al-Farobi, Abu Ali ibn Sino, H.X.Niyoziylar ta'lim jarayonida o'qitishning ahamiyati haqida o'zlarining fikrlarini bildirib o'tganlar.

Bu tarixiy jarayonda pedagogika fani oldida turgan muammolaridan biri – ta'limning tashkiliy shakllarini samaradorligini oshirish va uning boshqarishning me'yoriy bilan bog'liq ilmiy – nazariy, uslubiy va amaliy muammolarni hal etuvchi tadqiqotlar olib borishda ko'p ishlar qilingan. Bu borada mustaqil O'zbekistonimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ini amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi ta'lim yo'nalishlari tadbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda.

Hozirgi paytda ilmiy adabiyotlarda, darslarda pedagogika insoniyatining shakllanishi qonuniyatları haqidagi fan sifatida talqin etiladi. Inson shaxsi yolg'izlik yillarda jadal shakllanishi bilan birga, bu jarayon butun umr bo'yи davom etadi. Ya'ni onaning qornidan boshlab to umrining oxirigacha ta'lim tarbiya topib boradi.

Pedagogika fani sohasidagi ilmiy – tadqiqotlar ko'p yillardan beri davom etib kelmoqda. Natijada pedagogik fanlarning butun bir tizimi vujudga keldi. Shu nuqtai nazardan pedagogik ta'limning yo'nalishlardan kengroq ma'noda quydagilarni o'z ichiga oladi:

1. Barcha tipdagi maktablar, o'quv yurtlari, mактабгача va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari uchun yuqori malakali pedagogik xodimlar tayyorlash.

2. Xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun o'rta - maxsus, kasb – hunar va oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislariga pedagogik (ayniqsa, ijtimoiy pedagogikaga doir) bilimlar berish. Chunki, ular ishlab chiqarishda odamlar bilan muloqotda bo'ladi, ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi.

3. O'qituvchilar, pedagogik xodimlar va turli sohalarda ishlayotgan barcha mutaxassislarining malakasini oshirish jarayonida ularning pedagogik metodik yangiliklardan xabardor qilish pedagogik

**bilimlarni muntazam oshirib borish.**

4. Ota-onalar, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari xodimlarini pedagogik bilimlar bilan qurollantirish (pedagogik bilmlar «universalligi» pedagogik lektorilar, ta’lim – tarbiya mavzularidagi marruzalar, suhbatlар anjumanlar o’tkazish kabi yo’llar bilan).

## **Pedagogik ta'limotning boshichlari**

Jamiyatni insonparvarlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim uch bosqichda amalga oshiriladi.

1. O'qituvchilik, pedagogik va boshqa kasblarni tanlashga tayyorgarlik davrida nedagogik bilimlarni egallash.

2. O'qituvchilik pedagogik kasbiga mutaxassis sifatida tayyorlanish jarayonida pedagogik bilimlarni o'zlashtirish.

3. Malaka oshirish tizimida, mehnat faoliyati va turmush jarayonida pedagogik bilimlarni o'zlashtirish

Birinchi bosqichda pedagogik ta'limgizda, maktabgacha ta'limgizda muassasalarida va o'rta - maxsus ta'limgizda muassasalarida tarbiyaviy ishlar doirasida amalga oshiriladi.

Ikkinchis bosqich pedagogik kasbni va pedagogik bilimlarni professional tayyorgarlikning tarkibiy qismi sifatida egallashdir.

Uchinchi bosqich pedagogik tizim quyidagi yo‘nalishlarda o‘qituvchilar va boshqa pedagogik xodimlarning malakasini oshirish tizimida: maxsus dasturlar asosida; aspirantura, doktorantura, ilmiy pedagogik amaliyotlarda (stajirovkalarda); ota-onalar universitetlari, maktablar, korxonalar va muassasalarda pedagogik lektoriylar, mavzuviy (tematik) ma’ruzalar, pedagogik klublarda, ilmiy-amaliy anjumanlar konferensiyalar, muzokaralar kabi shakllarda pedagogik bilimlarni mustaqil egallash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

## **Pedagogik ta'limni boshqarishning me'yoriy hujjatlar**

Pedagogika o'quv yurtlarida O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi "Ta'lim to'g'risidagi" va boshqa qonunlarga binoan demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida boshqariladi. Vazirlar mahkamasi, vakolatli davlat organlari, mahaliy hokimiyatlar pedagogik ta'lim, pedagogik kadrlar tayyorlash va ularning mala-kasini oshirish sohasida davlat sivosati olib borishni ta'minlaydi.

### Pedagogik tizimning yo‘nalishlarini, pedagogik kadrlarga bo‘lgan

ehtiyojni belgilaydi. Ilmiy metodik rahbarlik, darslik va o'quv qo'llanmalarini Chiqarish, pedagogik kadrlar taylorlash sifati ustidan nazorat kabilarni amalga oshiradi.

Pedagogik tizimni yo'nalishlari juda ko'p ammo hozirgi boshqaruv tizimini texnologik asosda tashkil qilishimiz muddatli bazalarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi ongiga yo'naltirish: bu hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslantirish hisoblanadi.

O'quvchi faoliyatini faollantirish va asoslangan pedagogik yo'nalish – bu ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konseptlaridir.

- O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan – bu o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazarda yondashish.

- O'quv jarayonini samarali boshqarishning me yorli va ushki qilishga asoslangan yo'nalish bu tabaqalashtirilgan, individual-lashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim ya'ni ta'limming jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim kabilar kiradi.

- Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik jarayon – bu o‘quvchilarning tabiiy imkoniyatlari va tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni amalga oshiriladi.

- Rivojlantirish ta'lim jarayon bu o'quvchi shaxsining ijodiy sifatlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, hozirgi pedagogik ta'limning turli yo nansmlari mavjud. Bular: inversion, integrativ, adaptiv va inklyuziv. Bularni alohida tahlil qilamiz...

Ta'lim muassasalardagi o'qitish jarayoni qandaydir tasodim va ayniqsa, pedagogning xususiy fikridan kelib chiqadigan narsa emas. O'qitish jarayoni bilish nazariyasi asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarini aks ettiradi. Hozirgi ilgor pedagogika inson shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirishga tarbiya, o'zini -o'zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribadan iborat tizim sifatida qaraydi. Tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalash kichik tizimlar o'rtasidagi bog'lanish asosida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi tashkil topadi va shu bilan insonning shaxsi shakllandi.

## O'quv – bilish faoliyatining boshqarishning me'yoriy hujjatlari

Talabada ta'lif maqsadiga mos keladigan o'qitish motivlari mavjudligi va o'quv – bilish faoliyatining shakllari to'g'ri tanlaganligining o'zi bilim olishning mo'ljallangan (loyihalashtirilgan) natijalarini egallahni kafolatlay olmaydi. Ta'lif jarayonini boshqarishning me'yoriy usuli ham to'g'ri tanlangan taqdirdagina o'quv jarayoni tugallangan hisoblanadi.

O'quv jarayonini boshqarishning me'yoriy zarurligi insonning tajriba bilan o'zlashtirishning xususiyatidan kelib chiqadi.. Gap shundaki, ko'pgina o'quvchilar o'zlashtirishning 1-darajasida 0,5 (K 1-0,5) koeffitsentda o'zlashtirganlarida ( chala –chulpa o'zlashtirilgan ) yoq – bilib oldim deb hisoblaydilar - "aldanish" sodir bo'ladi, ya'ni bunda talabaning keyingi o'quv – biluv faoliyati samarasiz bo'ladi.

Shuning uchun ham o'quvchi mo'ljallangan barcha ish harakatlari to'liq bajarganini o'zlashtirish sifatini nazorat qilib borish, amallardi xatolarni tuzatib borish zarur.

### Tarbiyaviy yo'nalishlari

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi: Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoa tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirish o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsnar tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy, tarixiy an'analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarasini tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir,

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrllovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tamomlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Buning uchun: - yoshlar-

ni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini nazorat va idora qila bilishni shakllantirish, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish uchun muassasalarda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi zarur:

- o'quvchilarni milliy, umumiy insoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy va dunyoviy bilim-larga egallah va estetik tushunchalarini shakllantirish:

- bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish. Inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko'rish iqtidorini yuzaga chiqarish uchun shart - sharoit yaratish:

- insonparvarlik odobi meyyorlarini shakllantirish, muomala odobibi kabi tarbiya vositalari (yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim.

- vatanzarvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash :

- fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lif – tarbiya:

- mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berish;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish ;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyaviy yo'nalishlarning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

- tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish;

- yoshlarda ijod va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va

o'qituvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish.

**Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va o'zliksiz ishiga va turli yosh-dagi bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim.**

O'smirlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyyotlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi.

(Bu sohada keyingi mavzularda mufassal to'xtalib o'tamiz... )  
Hozirgi... 19.06.2011

Hozirgi zamon ta'lim rivojlanishining eng muhim yo'nalishini tarbiyalash va ta'lim berishning barcha bo'g'inlarini qamrab oluvchi, yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, ya'ni uzluksiz ta'limga o'tish-dan iborat. Uzluksiz ta'limni vujudga kelishi chuqur ijtimoiy belgilangan. Zamonaviy ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti sharoitida mehnatning mazmuni va xarakaterining tez o'zgarib borishi, fanning, texnikaning va madaniyatning barcha sohalaridagi bilimlarning yuqori jadallikda ortishi va rivojlanishi uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish ehtiyojini begilaydi.

Hozirgi davrda fan-texnika taraqqiyoti talabalarni (yoshlarni) bir tarafdan dunyoqarashligini shakllanib, rivojlanib borsada, ikkinchi tarafda ularning milliy g'oyalari va tarbiya mezonlarini past darajaga tushirishda asos bo'lmoqda. Boshqaruv va ta'lim tizimini asosiy ish faoliyatni ana shu yo'nalishini to'g'ri asoslanish va to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi ”Yoshlar ishlari agentligi“ yoshlar ijtimoiy harakati - O‘zbekiston yoshlarining ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, o‘zini-o‘zi bosha qaradigan yoshlar uchun shaxsiy surʼati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 24-yanvar kuni yoshlar masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda "Yoshlar ishlari agentligi" yoshlarimizning suyanchi va tayanchi bo'lsin mavzusidagi so'zlagan nutqi yoshlar harakatini tashkil qilish, tashkilotning maqsad vazifalarini belgilashda muhim ahamiyet kuchi etdi.

Shu uchrashuvdan so'ng bir guruh tashabbuskor yoshlardan iborat harakatni tashkil qilish bo'yicha tashabbus guruhi tashkil topdi va ushbu guruuh o'z faoliyatini harakatning ta'sis qurultoyi bo'lib o'tguna qadar davom ettirdi.

Bu harakat guruh 2001-yil 25 aprel kuni bo'lib o'tgan ta'sis qurul-toyi qarori bilan tashkil topgan.

Ta'sis qurultoyida harakatning dasturi va nizomi qabul qilindi. Harakat dasturida tashkilotning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-vazifalari batafsil yoritilgan bo‘lib, u tashkilotning yoshlar tarbiyasi borasida siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, sport va jismoniy tarbiya, xalqaro faoliyat sohalarida amalga oshiradigan asosiy yo‘nalishlari belgilangan beshta bobdan iborat. Harakat nizomi tashkilot faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha asosiy qoidalar belgilangan o‘n bitta bob, o‘ttiz sakkizta banddan iborat.

Harakat faoliyatining asosiy maqsadi-yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratin ni to'la namoyon etish, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat.

Harakatga uning dasturiy vazifa va maqsadlarini hamda Nizom talablarini tan oladigan, ularni amalga oshirish yo‘lida faol harakat qiladigan, vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida mehnat qilish va kurashish o‘zi uchun hayotiy e’tiqod deb biladigan, o‘qishda mehnatda, harbiy xizmatda, jamoatchilik ishlarida boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan jinsi, irqi millati, tili, dini, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qoida tariqasida, 14 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari a’zo bo‘lishi mumkin.

Harakatning oliy organi kamida besh yilda bir martta chaqiriladigan qurultoy, rahbar organi olti yilda kamida bir marta chaqiriladigan Markaziy kengash, ijroya organi har ikki oyda kamida bir marta chaqiriladigan ijroiya qo'mita hisoblanadi.

Harakatning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan 14 ta (Qoraqalpog'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) viloyat va 209 ta tuman, shahar bo'limlari mavjud bo'lib, ularning yuqori organi - ikki yarim yilda kamida bir marta chaqiriladigan tegishli Konferensiyalardir.

Harakat tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan, 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni birlashtiradigan bolalar tashkiloti tuzilgan. Bolalar tashkiloti harakat Markaziy kengash tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat ko‘rsatib, o‘z faoliyatini tarbiyaning o‘ziga hos yondashuvi va usullaridan foydalangan holda, bo-

lalarning qalbi va ongiga harakatning asosiy maqsad - muddaolarini singdirishga qaratgan.

Harakatning negizi-boshlang‘ich tashkilotlar bo‘lib, ular mam-lakatdagи barcha o‘quv muassasalari, mehnat jamoalari, shuningdek, qurolli kuchlar, huquq-tartibot organlari tizimlarida yoshlarning xo-hish irodasiga asosan tuziladi. Har bir boshlang‘ich tashkilotning bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladigan umumiy hisob yig‘ilishida ko‘pchilik ovoz bilan saylanadigan yetakchi bo‘ladi.

Bugungi kunda harakatning 20 000 ga yaqin boshlang‘ich tashki-lotlari va ularda 4,5 milliondan ortiq a’zolari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar ishlari agentligi” yoshlar ijti-moiy harakati ta’sischilari bayon qilishi qarori bilan (33 ta davlat va jamoat tashkilotlari ta’sischisi) harakatning jamoatchilik asosidagi maslahat kengashi instituti (organi) joriy etilgan. Maslahat kengashi tarkibiga yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, siyosiy partiya, homiy tashkilotlar va yetakchi oliy o‘quv yurtlari vakillari kiritilgan. Harakat tizimlarining barcha yo‘nalish-dagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishda, joylarda vujudga kelayotgan mu-mmo va yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni tezlik bilan yechish, bar-taraf qilishda ko‘maklashish masalalari Maslahat kengashining uning a’zolari orasidan saylangan rais rahbarlik qiladi.

Harakatning moliyaviy manbalari quyidagilardan iborat:

Mamlakatimizdagи va xorijiy homiylardan tushadigan mablag‘lar:

Harakat va uning joylardagi bo‘limlari bilan shartnomalar asosi-da ishlaydigan korxonalarining tadbirdorlik faoliyatidan tushadigan mablag‘lar.

Yoshlar loyihibarini amalga oshirish uchun beriladigan maqsadli kreditlar;

Harakatning matbuot nashrlaridan tushadigan mablag‘lar;

### Takrorlash uchun savollar

1. Ta’lim yo‘nalishlarini kengroq ma’noda tushuntirib bering.
2. Pedagogik ta’limot tushunchasining qaysi bosqichlari mavjud?
3. Pedagogik ta’limni boshqarishning me’yoriy deganda nimani tushinasiz?
4. Faoliyatning asosiy shakllari haqida ma’lumot bering?
5. Tarbiyaviy yo‘nalishlarni maqsad va vazifalarini nimada bila-miz?
6. Ta’lim va tarbiyaviy yo‘nalishlarning bir-biriga bog‘liqligi.

### Tayanch so‘zlar:

Pedagogik ta’lim, ta’lim jarayon, ehtiyyot, bilim, faoliyat, loy-ihalashtirish, axborot, manba, elementlar, sikk, muloqot tarbiya, mundarija, taraqqiyot.

# VI BOB. TA'LIM MUASSASALARINI ICHKI BOSHQARISHNING MEYORIY MASALALARI

**Ichki boshqaruvining tashkiliy masalalari. Ichki boshqarishning asosiy vazifalari**

**Ichki boshqaruvi va pedagogik jamoaning tashkiliy masalalari va o'zaro munosabatlari**

Bizga ma'lumki, maktab ichidagi pedagogik mehnatni tashkil qilish bu kollektivning mehnat natijasiga bog'liq bo'lib, har bir boshliq uni yaxshi yo'lga qo'yishda katta mas'uliyatni his qilishi kerak. Jamoa mehnatiga rahbarlik qilishdagi eng muhim shartlardan biri mehnat xodimlarining oldida turgan vazifalarni yaxshi bajarishga imkon beradigan qilib tashkil etishni ta'minlashdir. Hozirgi yosh avlodga har bir fan asoslardan chuqur va har tomonlama bilim berish, ularni yuqori malakali qilib tarbiyalash vazifalari ko'plab o'qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarning umumiyligi mehnatiga bog'liq.

Maktab va o'rta maxsus ta'lismuassasa direktori pedagoglar jamoasi a'zosi bo'lib, u o'z jamoasi tomonidan chiqarilgan barcha qarorlarni bajarishga majburdir. qarorlarning qabul qilinishida direktor jamoa bilan kengashib ish ko'radi, qarorlarni bajarilishini tashkil etishda esa, direktor yakkaboshchilik prinsipi asosida ish tutadi. Agar maktab va o'rta maxsus ta'lismuassasa direktori jamoani fikr-muhazasini olib, ularni kollektiv orqali muhokama qilib qaror sifatida qayd qilinib qo'yilsa ish protsessida hech qanday xatolikka yo'l qo'ymaganday bo'ladi.

Xodimlar tomonidan mehnat intizomiga rivoja qilish «mehnatni zom» talabi asosida ish yuritish, muassasadagi ish faoliyatiga to'g'ri yondashish boshqaruvchi va pedagogik jamoaning hamkorligini os-hiradi.

Mehnat intizomi mehnatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga asoslanadi. Chunki bizda mehnat- vijdon, shon-shuhrat, shavqat va qahramonlik ishidir.

Pedagoglar jamoasining mehnat burchi, ularning bu burchini

bajarishdagi javobgarligi va mehnat intizomi ta'lismuassasining mehnat ichki tartib qoidalari bilan belgilanadi.

Jamoaning ichki tartib qoidalardan kuzatilgan maqsad jamoa mehnat intizomini mustahkamlash, ishni to'g'ri tashkil etish, ish vaqtidan to'g'ri va unumli foydalanish, ta'limgarbiya ishida eng yaxshi natijalarga erishishni ta'minlashdir.

Maktab va o'rta maxsus ta'lismuassasalar ishini har tomonlama to'g'ri tashkil qilish, uning samaradorlik natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Maqsadlarni tushinish birligini yuzaga chiqarish, so'ngra bu maqsadlarga erishish jarayonida ta'minlash muasasalarini boshqarishning muhim vazifasi bo'lib- bu boshqaruvchining ish faoliyatiga bog'liq.

Maktab va o'rta maxsus ta'lismuassasalarga rahbarlik qilishda pedagoglar jamoasini to'laroq ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rivoja qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- har qanday fikrlarni, muhokama qilinayotgan masalani hal qilishning har qanday usullarni bemalol bayon etish;

- jamoa bo'lib izlanish ruhi o'rta ga qo'yilgan vazifani ko'plashib hal qilish, har bir masalani hal qilish variantlarini ishchanlik bilan muhokama etish;

- jamoaning o'z kuchini his qilishiga imkon beradigan huquqlarini kengaytirish, qabul qilinadigan qarorlar uchun mas'uliyatni oshirish;

- jamoa fikrini hurmat qilish.

Ana shu nuqtai nazarda tashkil qilingan ichki boshqaruv - so'zsiz o'zining yaxshi natijalarini beradi. Lekin, shuni alohida ta'kidlash kerakki, pedagog jamoa ishining darajasini faqat ish-harakat birligi ko'rsata oladi. Ish-harakat tarbiyaviy vazifalarni hal qilishida katta ahamiyatga ega.

Maktab va o'rta maxsus ta'lismuassasa jamoasi deganda, ishbilarmon, tajribasi baland, ma'lumoti turli xilda bo'lgan kishilarni bilishimiz kerak. Har bir o'qituvchi qancha kuch sarflamasada ayrim xodimlar kuchli bo'limasa maktab va o'rta maxsus ta'lismuassasada hech qanday muvaffaqiyat qo'lga kiritilmaydi.

Shu nuqtai nazarda – ichki boshqaruvi tizimida jamoa birligini ta'minlashning ba'zi yo'llarini ko'rsatish lozim:

- a) rahbarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishi, jamoa oldidi

turgan vazifalarni aniq bilishi;

b) rahbarning bu vazifalarni butun xodimlar ongiga yetkaza biliishi, jamoaning bu vazifalarni bir xilda tushinishini ta'minlay olish qobiliyat;

v) jamoa tomonidan talabalarning bir xil tizimining ishlab chiqishi;

g) talabalarning bir xilligini ta'minlashga jamoat tashkilotlarini jaib qilish;

d) bir xil tamoyillarning bajarilishini muntazam o'rganish va uni pedagogik tahlil qilish yo'li bilan zarur masalalarni kiritish.

Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasalar ichki boshqaruvini ana shunday tartib qoidalari asosida tashkil etish hozirgi zamon tabulariga javob beradigan boshqaruv bo'lishi mumkin.

lar kiritib, direktor o'rribbosari, shuningdek guruh rahbarlarining rejasida ayrim o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablari tahlili, bo'sh va qoloq o'quvchilarga yordam berishning aniq formalari o'quvchi konsulantlar bilan ishslash va o'qishda o'zaro yordamni tashkil qilish kabi masalalar o'z ifodasini topishini ham kuzatib boradi.

### Takror uchun savollar:

1. Boshqaruvning pedagogik jamoa bilan o'zaro munosabatlari.
2. Ichki boshqaruvi tizimida jamoa birligi deb nimani tushunasiz?
3. Davlat va nodavlat o'quv muassasalarini ish faoliyati haqida sizning fikrlaringiz.
4. Xodimlar o'rtasidagi ish taqsimoti masalasida fikr yuriting.
5. Boshqaruvchilarning huquqiy vazifalari haqida fikringiz.

### Tayanch so'zlar:

Ichki boshqaruv, boshqaruv tizimi, o'rtalik maxsus ta'limga muassasa, ish taqsimoti, tashkiliy masalalar, xodim, kengash, shaxsiyat, obrus-tibor, o'quv tarbiya ishlari, jamoa, hamkorlik, vazifalar.

### Ichki boshqaruvning asosiy vazifalari

#### Muassasa boshqaruvchilarining vaziflari

Ta'limga muassasalarini bevosita boshqarishning me'yoriy asoslari bu boshqaruvchining faoliyatiga bog'liq.

O'quv-tarbiya ishini tashkil qilish va unga rahbarlik qilishda boshqarishning organlari tomonidan tayinlangan yoki kollegial kengashida saylangan va tegishli ta'limga bo'limida tasdiqdan o'tgan shaxslar egallaydilar. Direktorni tayinlash yoki saylash uning vakolatlari o'rtalik maxsus ta'limga muassasalarini na'munali nizomda aniqlanadi va nizomida belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlardan aytishimiz mumkinki ta'limga muassasalarda butun faoliyatga rahbarlik qiladigan kishi bu direktor hisoblanadi. Bu vazifaga eng yaxshi tajribali o'qituvchilar orasidan uning tashkilotchiligini va ma'lumotini ishbilarmonligini nazarga olib

uch yil pedagogik stajga ega bo'lgan o'qituvchini xalq maorifi tomonidan tayinlanadi.

Direktor o'qituvchilar va xodimlar bilan olib boriladigan ta'limga tarbiya ishlarning tashkil etilishi va sifati to'g'risida ularning sog'ligi muassasaning xo'jalik-moliya ahvoli uchun davlat oldida javobgar bo'ladi.

Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa direktori pedagoglar jamaosiga rahbarlik qilish bilan birga xodimlarni to'g'ri tanlash va ularni joy-joyiga qo'yib birgalikda to'g'ri ish olib borishi kerak. Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa direktorining asosiy vazifalari shundan iboratki ichki boshqarishning me'yoriyda o'ziga rejalab olishi maktabni ishini oldinga tortishida imkon beradi

1 Tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi tadqiqot loyihalash ishlarni yo'lga qo'yib ish tartibini belgilash;

2 Amaliy ish bajarishning belgilangan tartibga va tizimga muvofiq bajarilayotganini tekshirish;

3 Ish me'yoriining buzilishiga yo'l qo'ymaslikni o'z vaqtida barataf etilishini kuzatishi va shu singari ishlarni amalgalash lozim.

Demak maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa ish faoliyatini samarasini asosan to'rt bosqichga ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

1. Olingan axborot asosida qarorlar qabul qilish;

2. Tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini, ularni ijro qiluvchilarga tushuntirish;

3. O'quv-tarbiya jarayoning haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi;

4. Favqulotda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish.

Boshqaruvchi o'z faoliyatida muayyan asosiy prinsiplarga suynadi. Uning faoliyati eng muhim tamoillardan biri milliy g'oya asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalarini hayotga tadbiq etish uchun kurashga tayyor turishdir.

Boshqaruvchining xizmat vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. O'rtalik maxsus ta'limga muassasalar kollektivini boshqarishning me'yoriy.

2. Kadrlarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yishni ta'minlash.

3. O'qituvchilar va xodimlarning g'oyaviy-nazariy saviyasi,

malakasi va pedagogik ijodiyotini oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

4. O'qitishning g'oyaviy-siyosiy yo'naltirilganligi, o'quvchilar bilimlarining sifati va ularni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini nazorat qilishi.

5. O'quvchilar o'z-o'zini boshqarishini faollashtirish, jamoat va boshqa tashabbuskor tashkilotlar ishiga yordam berish.

6. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish.

7. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish.

8. Mehnat qonunchiligi, matabning ichki ish tartibi va nizomiga muvofiq ravishda xodimlarning xizmat doirasini belgilash.

9. Mahalliy jamoat tashkilotlari homiyalar bilan bog'lanishlarni o'rnatish.

10. Ota-onalar bilan ishlashni tashkil qilish.

11. Muassasa o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash.

12. Sanitariya-gigiyena tartibini saqlash, o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar, o'qituvchilar va xodimlarning turli faoliyat turlarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalari ga rioya qilinishini ta'minlash.

13. Xizmat ko'rsatish xodimlarini ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish.

1. Xodimlarni kelishilgan holda rag'batlantirish.

Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasi rahbari pedagoglar jamaasida o'rtoqlariga hamkorlikda bo'lib, o'zaro yordam munosabatini rivojlanitirish uchun javobgardir.

Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa direktori ish faoliyatida o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasining dilkash murabbiysi bo'lishi kerak.

Direktorlik fazilat va iste'dodni hech bir oliyoh tarbiyalamaydi. Uni hayotning o'zi, tabiat va jamiyatni kuzatish nuqtai nazarida paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon rahbarining fazilati asosan uning dadilligidan, tashabbuskorligidan, bilimdonligidan, halol va va'dasiga vafodorigidan ma'lum bo'ladi. Shu nuqtai nazaridan hozirgi direktorlar haqiqiy fazilat va xususiyatlarga ega bo'lishi uchun:

1. Keng siyosiy bilimga ega bo'lishi.
2. Pedagogik mahoratga ega bo'lishi.
3. Kollektivning ishlarini qila oladigan va ularga nisbatan muomalada bo'lishi.

4. Ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lish.

5. Dunyoqarashi keng, ilmiy-metodik ilmga ega bo'lish.

6. O'z fanini yaxshi bilishi.

7. Izlanuvchan omilkor bo'lish va yangiliklarga ijobiy munosabatda bo'lishi.

8. Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasaning hamma sohalari keng o'rgangan ekanligi.

9. Ishga vijdonan munosabatda bo'lish.

10. Xo'jalik masalalarini to'g'ri hal qiladigan.

11. Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa ishini boshqarishning me'yoriy prinsipilari asosida tashkil qilish.

12. O'quv rejalarini dastur asosida yo'lga qo'yish va rahbarlik qilish va boshqalariga katta e'tibor berishi kerak.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa boshqaruv tizimini to'g'ri tashkil etishda rahbarning obro'-e'tibori nihoyatda muhimdir. Obro'-e'tibor chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy ildizlarga ega bo'lgan misilsiz xususiyatdir.

Obro'-e'tibor nisbiy xususiyat bo'lib uning qo'llanish sohasi o'zgarib turadi, ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlariga bog'liq bo'ladi.

Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasa jamaasidagi sof psixologik iqlim pedagogik mehnatning unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir.

Boshqarishning me'yoriy tizimida boshqaruvchi rahbar maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasalaridagi hamma ishlarni o'quv-tarbiya sistemadan boshlab to maktab va sinfdan tashqari ishlargacha pedagogik va psixologik nuqtai nazaridan biladigan va tahlil qiladigan bo'lishi kerak. Shuni nazarda tutishimiz kerakki, maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasalarda pedagoglar mehnati yaxshi tashkil etilsa, ta'limga tarbiya samaradorligi ham shu darajada yuksak bo'ladi. Undan ma'lum bo'ladi har bir rahbar maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasalarda pedagogik-psixologik hayotni bir maromda ushlab

tursa bu maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasalarda kollektiv mutlaqo parokanda bo'lmaydi.

Maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasalar ichki boshqaruvi tizimida pedagoglar jamoasini va uning ayrim a'zolarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'barlantirish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik kengash va uning vazifalari:

Ta'lismuassasalarda o'quv-tarbiya ishlarni va o'qituvchilarning bilim darajasini takomillashtiradigan vosita bu-pedagogik kengash hisoblanadi. Direktor pedagoglar kengashining raisidir. Uning a'zolari esa jamoa hisobida faol xodimlarni nazarga olib tashkil qilinadi. Muassasalar pedagogik kengashi muassasa hayotining jamoa orasida muhokama etish va hal qilish eng muhim organidir. Direktor pedagoglar kengashi a'zolarining tashabbus ko'rsatishlari uchun sharoit yaratish va kengashni kamida har oyda bir marta chiqirib turishini talab qiladi.

Pedagogik kengash rahbarlarining muassasa oldida turgan vazifalarni amalga oshirishiga yordam beradigan tashkilotdir.

Pedagogik kengash kotibi o'qituvchilardan biri butun o'quv yiliga saylab qo'yiladi. Pedagogik kengashning qarori a'zolarning uchdan ikki qismi qatnashgandagina qonuniy hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lgan holda raisning ovozi hal qiluvchi kuchga ega bo'ladi.

Pedagogik kengashning ish mazmuni:

Nizomga muvofiq kengashning faoliyatiga taaluqli ko'p masalalar bilan shug'ullanadi. Majlisning kun tartibiga kengash a'zolining hammasini qiziqtiradigan, muassasalar hayotining barcha sohalari uchun ayniqsa, ta'limgartarbiya ishlari sifatini yuksaltirish va har tomonlama yaxshilash uchun, prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan muhim masalalar kiritilishi lozim. Shunday qilib kengashda eng muhim masalalardan:

- hukumat tomonidan tavsiyalangan direktivalar;
- xalq maorif vazirligidan yuborgan buyruq va farmoyishlar;
- yangi o'quv yiliga tayyorgarlik;
- pedagogik kadrlar bilan ta'minlash;
- o'quv-tarbiya ishlariga oid reja va hisobotlar ko'rib chiqiladi;
- o'qituvchilar, rahbarlar va boshqa xizmatchilarining hisobotlari;
- o'quv tarbiya dasturlarini bajarilishi, o'quvchilarni o'zlashtirish darajalari;

- talabalar odob-axloqi kabilar ko'rib chiqiladi.

Undan tashqari ta'limgartarbiya sohasidagi aktual muassasalar:

- eng yaxshi o'qituvchilar tajribalari;
- Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari;
- sinfdan-sinfga ko'chirish muommolari;
- yakuniy nazoratlar natijalari;
- talabalarni attestatsiyalash va hujjat berish va hokazolarni muhokama qilinadi.

Pedagogik kengash maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasalarda pedagogik kollektivini mustahkamlab maktab ishida qoida-qonunlarni hal qiluvchi organ hisoblanadi. Chunki bularsiz ta'limgartarbiya bobibidagi ishlarida yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Bundan tashqari maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasalarda o'quv-tarbiya ishini yaxshi yo'liga qo'yish uchun otalikka olgan korxonalar va tashkilotlar orqali aloqada bo'lish kerak.

Pedagogik kengashining ish rejasi bir yoki yarim yilga mo'ljallab tuziladi. Rejaga asosan quyidagi masalalarni kiritishi mumkin.

Masalan:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan pedagoglar jamoasining roli.
  2. Ta'limgartarbiya sifatida olib borishning ahvoli va uning yanada yaxshilash yo'llari.
  3. Ta'limgartarbiya asosiy tashkiliy shakli dars, dars samaradorligini oshirishning holati.
  4. Ta'limgartarbiya jarayonida xalq pedagogikasidan foydalilaniladi.
  5. Maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasa faoliyatida umumiy majburiy tayanch ta'limgartarbiya amalga oshirilish ahvoli va uni yanada yaxshilash choralar.
  6. Maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasalarda hamma premetlarning o'qitilish holati va o'quvchilarni bilim olish holati qandayligi.
  7. Maktab va o'rtta maxsus ta'lismuassasalardan tashqari tarbiyaviy ishlarning holatini ko'rish.
  8. O'quvchilarni kompyuter kabinetlarining jihozlanishi.
- Pedagogik kengash ish jarayonida:
- a) Maktabni rivojlantirish rejasini tasdiqlaydi;
  - b) Kollektiv konferensiysi qarorlarini bajarilishini tashkil qiladi;

v) Davlat va jamoat tashkilotlarida o'quv-tarbiya manfaatlarini himoya qiladi;

c) Metodik kengashning tavsiyasiga ko'ra o'qitish va tarbiyalashning mazmunini, metodlarini, vositalarini aniqlaydi, davlat ta'limgastarlari talablariga mos ta'limgastariga erishilishini ta'minlaydi;

d) Jamoani tartibini belgilaydi;

g) Pedagog va boshqa kadrlarni taminlashga asos bo'ladi;

j) Ta'limgastni boshqaruv organlari huzuridagi malaka komissiyasiga malaka toifalarini berish haqida taklif kiritiladi;

z) O'qitish va tarbiyalashni takomillashtirish bo'yicha jamoat tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi;

i) Muassasaga ajratilgan mablag'larning o'rinni ishlatalishini nazorat qiladi.

Kengash ma'muriyati va jamoat tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlikda ishlaydi.

Uning barcha qarorlarini jamoa, ota-onalar e'tiboriga o'z vaqtida etkazzi. Uning qarorlari ma'muriyati va kollektivning barcha a'zolari uchun majburiydir.

Ayrim muassasalarda, odatda o'quv yili oxirida direktor va o'rindbosarlar o'quv yili yakunlarini sinchiklab tahlil qilib, pedagoglar kollektivining kelgusi o'quv yilidagi muhim vazifalarini belgilab oladi.

Ayrim muassasalarda pedagoglar kengashining yangi o'quv yili uchun joriy ish rejani yozgi imtihonlarning natijalarini muhokama qilish bilan bir vaqtida tuziladi, bu esa pedagoglar kengashining hamma a'zolariga reja tuzishda qatnashish imkonini beradi.

Pedagoglar kengashi majlisi bir oyda bir marta yoki bir yilda to'rt marta o'tkazilishi sababli pedagogik kengashning ish rejasiga eng muhim va asosiy masalalarni kiritish to'g'ri keladi. Bu esa majlislarda masalalarning ko'payib ketmasligi uchun nihoyatda muhimdir.

Pedagoglar kengashi o'quv muassasa ishdagi yutuq va kamchiliklarni hisobga olish va qayd etish bilangina chegaralaniq qolmasligi lozim.

Pedagogik kengash ta'limgastariga oid masalalarni tezroq va muvaffaqiyatli hal qilishga kollektivni safarbar qilishi kerak.

Biroq bir tematikaning o'zini hech qanday o'zgarishsiz nohiya va

viloyat xalq ta'limi bo'limiga tavsiya etish noto'g'ri bo'ladi. Bu tematikaning pedagogik kengashda muhokama qilib qaror qilishi kerak. Masalan: muassasa rahbarlari o'z muassasalardagi xodimlarning ish faoliyatini qoniqarli emasligini nazarga olib, pedagoglar jamoa oldiga faoliyatlarini har tomonlama yaxshilash masalasini qo'yishlari mumkin. Shu munosabat bilan pedagoglar kengashi muhokamasiga quyidagi dokladlarni kiritish mumkin:

- «Dars sifatini yaxshilash choralar»;

- «Bolalar bilimini har kuni hisobga olib borish – ularni darslarini o'zlashtirishini yaxshilash vositalaridan biridir».

Darslarni o'zlashtirishni yaxshilash vazifasiga aloqador bo'lgan bir qancha boshqa masalalarni pedagogik kengashda muhokama qilinadi.

Qayd qilib o'tganidek, pedagogik kengashiga masalalarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Ba'zi holatlarda ikkinchi darajali masalalarni yoki kengashning vazifasiga butunlay taalluqli bo'lmagan masalalarni muhokama qiladilar. Pedagogik kengash ishini uning yig'ilishini 3-4 soatdan oshib ketmaydigan qilib rejalashtirish kerak. Shuning uchun rejani bir yig'ilishda bir-ikkitadan ortiq masala muhokama etilmaydigan qilib tuzish kerak.

Keraksiz parallelizm bo'lmasligi uchun qaysi masalalarni metodik birlashmalarida, qaysilarini ishlab chiqarish yig'ilishlarida va qaysi masalani pedagogik kengashda muhokama qilish kerakligini ham aniq belgilab olish zarur.

Shu bilan birga, belgilangan masalalarni qanday muhokama qilishni, bu muhokama oldindan qanday ishlar qilinishi kerakligini puxta o'ylab olish kerak.

Boshqaruvchi o'quv yilining boshida yo'l-yo'riq ko'rsatib beruvchi doklad, o'quv yilining oxirida esa hisobot dokladi qiladi.

Pedagogik kengashi majlisi muhokamasiga qo'yilgan masalalar bilan kengash a'zolari yozma dokladlar yoki ularning tezislarini ko'rib oldindan tanishib chiqishlari lozim.

Har bir kengash a'zosi kun taritibidagi masalani muhokama qilishda faol qatnashibgina qolmay, yil davomida biron aktual ta'limgastariga yaxiy masalaga ma'ruza yoki qo'shimcha ma'ruza qilishi lozim.

Yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan pedagoglar kengash majlislari jonli, qiziqarli va natijali o'tadi.

Pedagoglar kengashida, biron yaxshi tajribani ko'rsatish maqsadida qo'lga kiritilgan yutuqlarni muhokama va tahlil qilish lozim. Bu holat jamoa o'rtasidagi psixologik iqlimning yaxshi bo'lishga va ularning g'oyaviy-siyosiy va dunyoviy bilimlarini shakllantirishga asos bo'la oladi.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Boshqaruvchi va pedagoglar jamoasining hamkorligi haqida nazariy ma'lumot bering.
2. Boshqaruvchining asosiy vazifalarini nomlang.
3. Boshqaruvchi fazilatini asoslab bering.
4. Boshqaruvchi va xodimlar o'rtasidagi ish taqsimotini ajratib bering.
5. Pedagogik kengash va uning vazifalariga sharh bering.

#### Tayanch so'zlar:

Boshqarishning me'yoriy, vazifalar, pedagogik, kengash, masalalar, muhokama, rahbarlik, rejalashtirish faoliyat, tajriba, metodik, uslub, tashkilotchilik, manba, asos, tizim, shakl, holat.

## VII BOB. TA'LIM MUASSASALAR ISHINI REJALASHTIRISH

Rejalashtirish va uni takomillashtirish yo'llari. Ta'lismuassasalar ish faoliyatini rejalashtirish va uning amaliy ahamiyati

#### Xalq maorif tizimini takomillashtirish va pedagogik talablar

Respublikada amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar jamiyat tizimini iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatidan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rinn olishda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ta'limg-tarbiya tizimini isloq qilishda, demokratik davlatlari darajasiga yetkazish va yosh kadrlarni ma'naviy yuksak, axloqi, yuqori bilimga ega qilib tarbiyalashda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil yurtimizda huquqiy-demokratik jamiyatini ko'rish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish maqsadida Respublikamiz Prezidentining tashabbusi bilan mamlakatimizda keng kamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, «Ta'limg-to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni qabul qilishi, maorifchilar oldiga ulkan va mas'uliyatli vazifalarini qo'ydi. Yoshlar o'z zimmalaridagi mas'uliyatni anglab yetishlari zarur.

Prezidentimiz yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor bermoqda. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati, chambarchas bog'lanib uyg'un rivojlansagina O'zbekiston buyuk davlat sifatida jahonda o'z o'rmini egallaydi.

Shu nuqtai nazarda har bir maktablarda boshqarishning me'yoriy xodimlari o'quv-tarbiyaviy va tashkiliy ishlarni o'zaro rejalashtirishni eslatish joizdir. Bu jarayonda iqtidorli rahbar va xodimlar, maslahati asosida ishlarini davom etirish ahamiyatidan xoli emas. Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda muassasalarda ishlarini hozirgi zamон talabi asosida tashkil qilish nihoyat katta ahamiyatga ega. Muassasalardagi ta'limg-tarbiya ishlarini reja asosida olib borish va shu asosda boshqarilish muassasada ichki ishning samaradorligini yanada oshiradi. Reja bilan ishslash oldindan ko'ra bilish bilan

chambarchas bog'liqdir. Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar tuzilgan ish reja pedagoglar ish faoliyati uchun, ularni ishini tartibga solish uchun qonun sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalar ish rejasini to'g'ri yo'lga qo'yib tuzilsa, xatolikga yo'l qo'yishda asrash va ilgari yillarda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni isloq qilishi deb tushunish mumkin.

To'g'ri tuzilgan ish reja nafaqat maktab rahbarini ish faoliyatini sistemaga kiritiladi, balki butun o'qituvchilar va xodimlar ishini yengillashadi va bat afsil amalgalarga qo'yishda katta yordam bera oladi.

### **Rejalashtirishning asosiy maqsadlari.**

Umumiy va o'rta maxsus ta'lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan maxsus ish rejalarini bo'lishi kerak:

Jumladan:

Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining ma'lum davrga mo'ljallab (bir yillik yoki besh yillik) mo'ljallab tuziladigan ish rejasи.

Bu ish rejasи umumma maktab xalq xo'jalik reja ko'rsatkichlari asosida tuziladi. Unda maktabning o'quv moddiy va texnika bazasi, maktab qurilishi, sinflar soni, o'quvchilar va o'qituvchilar soni, o'quv xonalaring soni, bitiruvchilar soni va g'oyalarni nazarda tutadi.

- Muassasaning joriy ish rejasи;
- Bu reja bir yillik o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan ish reja asosida tuziladi. Bu rejaning tarkibiga:

- Ta'lim muassasa direktori uning o'rinnbosarlarining bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan ish rejalarini.

- Maktab va ta'lim muassasalarida predmetlar bo'yicha tashkil etilgan metodik birlashmalarining ish rejasи.

- Sinf rahbarlarining ish rejasи.
- Fan to'garaklari va kun uzaytirilgan guruhlarning rahbarlarining ish rejasи.

- Kutubxonasining ish rejasи.
- Ustaxonachining ish rejasи.
- Ota-onalar komitetining ish rejasи.
- Vrach va hamshiraning ish rejasи.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining kalendar ish rejasи o'quv muassasidagi joriy ish rejasiga kiradi.

Ta'lim muassasadagi ishlar o'zidan o'zi yaxshi bo'lmaydi. O'sha rejadagi masalalarni qaysi darajada amalda bajarilishi muassasa ishini sifati va samaradorligini ko'rsatadi.

Ta'lim muassasalar rejasini amalgalarga oshirishda nimalarga ahamiyat berish kerak:

1. Xalq ta'lim bo'limlari va maktabga yaqin bo'lgan turli muassasalar bilan mustahkam aloqada bo'lish.

2. Boshqarishning me'yoriy va rahbarlik ishiga bilimdon, halol ishbilarmon va yaxshi ma'muriy qobiliyatga ega bo'lgan pedagog xodimlarni jalb etish.

3. Xodimlar o'rtasida ish taqsimotining to'g'ri tashkil etilganligi.

4. Rahbar xodimlardan boshlab to' oddiy xodimlargacha shaxsiy ish reja asosida ishlash.

5. Rahbarning ish rejalarining bajarilishi yuzasidan uzluksiz nazoratni o'rganganligi.

O'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirilayotgan paytda asosan uchta narsaga ahamiyat berishi kerak.

1. Ishning boshlanishida pedagogik nuqtai nazarda tahlil qilib masalalarni ko'rib chiqish.

2. Ishning rejalashtirishning oxirida o'quvchilar va o'qituvchilarga bergen ta'lim va tarbiya darajasini aniq tasavvur qilish.

3. Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar ishini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarmoq uchun, shuncha imkon beradigan pedagogik vositalarining eng ma'qulini tanlash.

Rejalashtirish ikki formada tuziladi.

A) Yozma ravishda

B) Grafik ravishda

Reja qisqa aniq tushunarli va pedagogik maqsadlarga javob beradigan bo'lishi kerak

### **Ta'lim muassasalar ishini rejalashtirishning ahamiyati**

Eng avvalo, direktor o'z o'rinnbosarları, shuningdek, kasaba uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi va Kamalak tashkilotlarining valillari bilan birgalikda o'quv yili oxirida, maktab ishlariga yakun va o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalari ahvolini, ularning tarbiyalanganlik darajasini tahlil qilib, birgalashib o'quv-tarbiya metodik ishlarining hamma bo'linmalari ustidan, mehnat tarbiyasi

va ta'limi, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni, ota-onalar va sinf rahbarlari bilan ishlashni, tashkiliy-pedagogik va ma'muriy-xo'jalik ishlarini tashkil qilish ustidan nazoratni o'z ichiga oluvchi yangi o'quv yili uchun nazoratning eng muhim obyektlarini belgilab oladi.

Yillik rejada tavsiyalarning nazorat qilish va bajarilishining taxminiy muddatlari, masalan umumiy o'rta maxsus ta'lim haqidagi qonnuning amalga oshirilishini nazorat qilish-sentyabr, yanvar, kuni uzaytirilgan gruppalar ishini nazorat qilish-sentyabr, dekabr, mart va hokazolar belgilanadi. Prezidentimiz yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor bermoqda. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati, chambarchas bog'lanib uyg'un rivojlansagina O'zbekiston buyuk davlat sifatida jahonda o'z o'rinni egallaydi.

Umummaktab rejasi asosida o'quv choragiga yoki bir oyga mo'ljallangan kalendar koordinatsiyalashgan ish rejasiga tekshirish muddatlari aniqlangan, qaysi sinflarda yoki qanday fanlar bo'yicha tekshirishlar o'tkazishning aniq savollari ko'rsatilgan maktab ichki nazoratining aniq obyektlari kiritiladi.

Darslarni va fakultativ mashg'ulotlarni kuzatishning rejasi- grafik tarzda rejalashtirish va bir oyga yoki chorakka mo'ljallab tuzish ichki maqsadga muvofiqdir.

Reja-grafik amalda qulay, undan foydalanish oson. Unga qarab maktabdag'i nazorat sistemasini darrov belgilab olish mumkin.

O'quv yili davomida direktor o'rribosari o'rta hisobda 180-200 darsni kuzatadi. Maktab direktorining yosh o'rribosarining darslarni kuzatish tasodifiy bo'ladimi yoki rejali, maqsadga qaratilgan puxta tayyorlangan bo'ladimi, darslarning sifati bu kuzatish qanday tashkil qilinishiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi bilish muhim ahamiyatga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, darslarni nazorat qilishda hamidan ko'proq quyidagi nuqsonlar ko'zga tashlandi: sistemasizlik; darsni tasodifan kuzatishlik, nazarda maqsadga qaratilganligining yo'qligi darsni tekshirish va analiz qilishga direktor o'rribosarining nazariy, ba'zan esa metodik jihatdan ham tayyorlanmaganligi, ahyon-ahyontalik, torlik, o'quv-tarbiya ishlari obyektlarini bir marta kirib kuzulosa qila olmaslik, o'qituvchiga malakali tavsiyalar berolmaslik.

Hozirgi zamon darsga ortib borayotgan talablar maxsus fanalrning yangi, hozirgi yutuqlarini yorituvchi qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish, pedagogika, psixologiya o'qitish metodikasi sohasiga doir yangi yutuqlar bilan tanishish zaruratini paydo qilmoqda, bularsiz rahbar o'qituvchiga malakali yordam ko'rsata olmaydi, darsning mazmuni, uni tashkil qilishni, metodikani va hokazolarni takomillashtirish bo'yicha aniq, ilmiy asoslangan tavsiyalar bera olmaydi.

Nazariy jihatdan tayyorlanib olgach, direktor o'rribosari mazkur masalani o'rganish yoki tekshirishning aniq rejasini, programmasini tuzadi.(Amaliyotida bunday progammalarni esdaliklar deb atash odatga aylangan). Bunda har bir o'qituvchini olib, ularning har biriga tabaqa lashtirilgan holatda yondashish zarur.

Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalar ish rejasining turlari va uning aqidaları.

To'g'ri tuzilgan ish reja nafaqat rahbarlarni ish faoliyatini sistema maga kirlita oladi. Balki butun o'quvchilar va xodimlar ishini yengilashtiriladi va batafsil amal qilishga katta yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida shartli ravishda qabul qilinigan maxsus ish rejalar bo'lishi kerak.

Jumladan:

☒ Muassasalarining ma'lum davriga mo'ljallab tuziladigan ish rejası (yillik, oylik, xaftalik ish rejalariga bo'lindi).

☒ Bu ish rejası xalq xo'jalik reja ko'rsatkichlari asosida tuziladi.U o'quv moddiy texnika bazasi, maktab qurilishi, sinflar soni, o'quvchilar va o'qituvchilar kontengenti, masalasi.

☒ Muassasalarining joriy ish rejası. Umummaktab rejasi asosida o'quv choragiga yoki bir oyiga mo'ljallangan kalendar koordinatsiyalashgan ish rejasiga tekshirish muddatlari aniqlangan, qaysi sinflarda yoki qanday fanlar bo'yicha tekshirishlar o'tkazishining aniq savollari ko'rsatilgan maktab ichki nazoratning aniq obyektlari kiritiladi.

Darslarni va fakultativ mashg'ulotlarni kuzatishni reja-grafik tarzda rejalashtirish va bir oyga yoki bir chorakka mo'ljallab tuzish ichki maqsadga muvofiqdir.

Reja-grafik amalda qulay, undan foydalanish oson. Unga qarab

## VIII BOB. SINFDAN VA TA'LIM MUASSASALARIDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISH.

### Maktab va o'rtalik maxsus ta'limga muassasalarida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni

Erkin, ozod fuqaro – o'z haq-huquqlarini taniydi, o'z kuchi va imkoniyatiga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqe-a-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, erkin, har jihatdan barkamol inson tarbiyasi ishimizning eng muhim natijasi bo'lmog'i kerak.

### Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyasi kunning eng dolzorb mavzularidan biriga aylanib, farzandlarimizni to'laqonli jamiyat a'zosi etib tarbiyalash uchun barcha kuch-quvvatni sarflab, nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni to'g'ri tashkil etishni taqozo etmoqda. Jamiyatimiz yosh avlodni tarbiyalash va unga bilim berish vazifasini o'qish jarayonida amalga oshiradi. O'quvchilar o'qish davomida tabiat va jamiyat to'g'risidagi ilmiy bilimlarning asoslari bilan tanishadilar, ilmiy bilimlarning asoslari esa bolalarda dunyoqarash va kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash uchun, jamiyatning ongli va faol quruvchilariga zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash uchun boy material beradi. Lekin maktab faqat dars vaqtida olib boriladigan ishlarni bilangina chegaralanib qola olmaydi.

O'quvchilar o'qishdan bo'sh vaqtida ular orasida olib boriladigan turli mashg'ulotlar: ekskursiyalar, kechalar, suhbatlar, sport musobaqalari, yosh texniklar to'garaklari, yosh tabiatshunoslar to'garagida olib boriladigan mashg'ulotlar va boshqa shu kabilalar maktabning ta'lim tarbiya ishlari majmuida katta o'rinni tutadi.

Maktabning asosiy o'quv mashg'ulotlaridan bo'lak, darsdan tashqari vaqtlarida o'quvchilar o'rtasidagi yo'lga qo'yiladigan va olib boriladigan muayyan, bir maqsadga qaratilgan o'quvchilarga bilim berishga xizmat qiladigan, turli xil ishlarni deb ataladi.

Bolalarga o'qishdan bo'sh vaqtlarida bilim va tarbiya berish ishlarni, maktab bilan bir qatorda bolalarning sinfdan va maktabdan tashqari maxsus muassasalarini (o'quvchilar saroylari, yosh texniklar stansiyalari, yosh tabiatshunoslar klub, bolalar kutubxonalarini va boshqa shu kabilalar) "Yoshlar ishlari agentligi" YOIH tashkilotlari, sport tashkilotlari (muzeylar, klublar, bolalar kinoteatrлari va boshqalar) ham olib boriladi.

Maktabdan tashqari muassasalar va boshqa tashkilotlarning maktabdagagi mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarida o'quvchilar o'rtasida olib boriladigan, muayyan bir maqsadga qaratilgan, o'quvchilarga bilim va tarbiya berishga xizmat qiladigan turli ishlarni maktabdan tashqari ishlarni deb ataladi. Respublikamiz hukumati sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga hamma vaqt katta ahamiyat berib keladi.

### TANLOV VA OMMAVITY TADBIRLAR O'TKAZISH

Nº	Bajariladigan ishlarni mazmuni	Muddati
1	Umumta'lim fanlari bo'yicha 5-8 sinf o'quvchilari o'rtasida "Bilimlar bellashuvi"ning maktab, shahar, viloyat, respublika bosqichlariga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilar ishtirokini ta'minlash	2018-2019 o'quv yili Dekabr (maktab) Yanvar (shahar) Mart (viloyat) Iyun (respublika)
2	Umumta'lim fanlari bo'yicha 9- sinf o'quvchilari o'rtasida "Fan olimpiyadaları"ning maktab, shahar, viloyat bosqichlariga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilar ishtirokini ta'minlash	2018-2019 o'quv yili XTB jadvali asosida
3	"Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'riktanlovining maktab, shahar, viloyat, respublika bosqichlariga tayyorgarlik ko'rish va o'qituvchilar ishtirokini ta'minlash	2018-2019 o'quv yili XTB jadvali asosida
4	Fanlar bo'yicha "Yangi yaxshi ko'rgazmali qurol" ko'riktanlovining maktab va shahar bosqichida ishtirok etish.	2018-2019 o'quv yili XTB jadvali asosida
5	XTB rejasida seminarlar, ko'riktanlovlar, konferensiyalar, taqdimotlar o'tkazish va ishtirok etish.	2018-2019 o'quv yili XTB jadvali asosida

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi chiqargan qarorida o‘quvchilar o‘rtasida ongli intizomni kuchaytirishni ta’minlash va ularning bo‘s sh vaqtlarini yaxshi o‘tkazishga xizmat qiladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatib berilgan edi. Bu qarorda o‘quvchilarining maktabdan tashqari ishlari maktabning ta’lim-tarbiya vazifalariga bo‘ysundirilishi maktab o‘quvchilarining muvaffaqiyat bilan o‘qishlariga ko‘maklashuvchi va jamiyatning har tomonlama ma’lumoti hamda faol o‘quvchilari qilib tarbiyalashga yordam berish kerak deb aytildi.

Pedagogik texnologiya asosida ta’lim berishni keng yo‘lga qo‘yish va maktablarda ta’lim-tarbiya ishlarini yuqori darajaga ko‘tarish shahar va qishloqlarda bolalarning maktablardan tashqari muassasalari sonini ko‘paytirish to‘g‘risidagi direktivalari munosabati bilan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yanada katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar sohasidagi vazifalar quyidagilardan iborat.

a) o‘quvchilarda vatanparvarlik dunyoqarashini tarbiyalashda siyosiy savyasini oshirish;

b) o‘quvchilarni milliy g‘oya asosida vatanga muhabbat, millatga sadoqat ruhida tarbiyalash;

v) o‘quvchilarni ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, tashabbuskorligini o‘stirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida ongli ravishda ishtirok etishini ta’minlash;

g) o‘quvchilarining olgan bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va amalda qo‘llanish vazifasini to‘g‘ri hal qilishga va o‘quvchilarni maktabni bitirib chiqqandan keyin erkin ravishda biron kasb tanlashga tayyorlashga yordam berish.

d) bolalarning individual ijodiy qobiliyatini, mayl va iste’dodlarini aniqlash va o‘stirish, bolalarning madaniy, fan, texnika, san’at, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarga bo‘lgan qiziqish va havaslarini qondirish, yanada oshirish.

e) o‘quvchilarining bo‘s sh vaqtlarini xushchaqchaqlik va xursand-chilik bilan o‘tkazishlariga va ularning sog‘liqlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan o‘yin kulgilar va boshqa xil o‘yinlarini yo‘lga qo‘yish.

O‘quv yilining boshida sinfdan tashqari ishlarning rejasi tuziladi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi o‘qituvchining ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyatga tatbiq etish, huquqiy-demokratik jamiyatga munosib, o‘z fikrini erkin bayon eta oladigan insonni tarbiyalash, uni ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib yetishishi jamiyatimiz taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shishga tayyorlashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishda: Birinchidan, o‘quv yilining boshida tasdiqlangan ish reja, ma’naviyat va ma’rifat ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari yig‘ilishida bir oylik ish rejasidagi mavzular bayon etilib, har bir xodimga aniq vazifalar topshirilib, o‘tkazish joyi, tartibi, sharoiti, maqsadi, mas’ul xodimlari aniqlab olinadi. Har bir oyning rejasida ko‘rsatilgan muhim va dolzarb mavzularga maktab o‘qituvchilari biriktiriladi. Ikkinchidan, tadbir o‘tkazilishini oyning birinchi kunlarida bolalar umumiylig‘ilishida ish rejasidagi mavzu e’lon qilinib, tadbir o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘riladi.

Sinfdan tashqari bir oylik rejasining 2 haftalik qismini namuna sifatida keltiramiz.

Mavzu: “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlikning zarari va ularning oqibatlari”.

t.b.	Hafta kunlari	Haftaning bosh mavzusi	Har kunlik mavzu	O‘tkaziladigan joyi	O‘tkazish vaqtি	Mas’ul shaxs
1	Dushanba	Voyaga etmaganlar o‘rtasida giyohvandlikning zarari va ularning oqibatlari	“Giyohvandlikka qanday kurashish kerak?” Tarbiyaviy soatlar	Sinf-xonalar	Jadval asosida	Sinf rahbarlari va tarbiyachilar
2	Seshanba		“Giyohvandlik va uning oqibatlari” mavzusida eng chiroli va mazmunli insho ko‘rik-tanlovi	Sinf-xonalar	Darsdan tashqari	Ona tili va adabiyoti o‘qituvchilar

3	Chorshanba		“Giyohvandlikning zarari – mening nighimda”	Maktab hovlisida	Darsdan tashqari	“Yoshlar ishlari agentligi” tashkiloti, bolalar yetakchisi
4	Payshanba		“Biz – sog’lom avlod bolalarimiz” (100 m. yugurish va estafeta o’yinlari)	Maktab sport maydoni	O’qituvchining bo’sh vaqtida	Sinf rahbarlari, j/t murabbiylari, sport maktabi trenerlari
5	Juma		IIB va meditsina xodimlari bilan suhabat o’tkazish	Maktab hovlisida	Darsdan tashqari	“Yoshlar ishlari agentligi” tashkiloti, sinf rahbarlari, bolalar yetakchisi
6	Shanba		Yakuniy yig’ilish	Maktab klubu	Mashg’ulotlar tugagandan so’ng	Maktab ma’muriyatini va sinf rahbarlari

### Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda rahbarning vazifalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodologiyasining o’ziga xos xususiyatlari yana shundaki, bu ishlarning majburiy rejasi yo’q. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi turli to’garak uchun dasturlar nashr qiladi, lekin ular na’unaviy hisoblanib, maktablar va maktabdan tashqari muassasalar, tegishli to’garaklarning rahbarlari, mahalliy sharoitni va imkoniyatlarini hisobga olib, o’zlarini uchun aniq reja tuzadilar. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning dastur va rejasi odatda har bir to’garak, har bir suhabat, ma’ruza va ekskursiya uchun alohida-alohida tuziladi. Biroq bunda mashg’ulot o’tkazish mo’ljallangan bolalarning havas-mayllari, talablari e’tiborga olinadi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg’ulotlarning mazmuni texnika, biologiya, san’at, jismoniy tarbiya kabi bilimlarning tegishli sinflar uchun maktab programmasida ko’rsatilgan doiradan tashqari chiqadigan sohalarni o’z ichiga olishi mumkin, ammo bu mashg’ulotlar bolalarning maktabda olgan bilimlariga tayanishi shart va bu bilimlarini chuqurlashtirish hamda kengaytirishga o’quvchi-

larning bu bilimlarini amalda va ijtimoiy foydali faoliyatida qo’llashlariga yordam berish lozim. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar maktabning o’quv ishlari bilan chambarchas bog’langandir, ammo mashg’ulotga qo’shimcha, o’quv jaryonining davomi deb hisoblash xatodir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar bolalarning tashabbuslari va havaskorliklari asosida yo’lga qo’yiladi va olib boriladi. Muassasa o’quvchilari to’garaklar va turli ommaviy ishlarda faol qatnashishlari va tashkiliy ishlar sohasida malaka va ko’nikma orttirishlari, intizom saqlashga odatlanishlari kerak.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni olib borganda bolalarning yosh individual xususiyatlari va bilim darajalarini, albatta, e’tibor ga olish lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuni o’quvchilarning bilim va hayotining turli sohalariga bo’lgan qiziqishlari, talablari va mayllarini qondirish kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar quyidagi masalalarni o’z ichiga olishi kerak.

- a) siyosiy masalalar;
- b) ilmiy bilimlar berish masalalari;
- v) texnika masalalari;
- g) agrobiologiya masalalari;
- d) jismoniy tarbiya masalalari;
- e) adabiyot-san’at masalalari;
- j) umummadaniy va maishiy masalalar;
- i) ommaviy ishlar masalalari.

Sinfdan va maktabdan tashqari mashg’ulotlarda muassasa bolalidagi mavjud havaslarga ko’zda tutib qolmay, balki shu bilan birga ularda yangi-yangi havaslar uyg’otish va o’stirish kerak. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, kichik yoshdagagi bolalar ko’proq o’ynashga qiziqadilar. O’rta va katta yoshdagagi bolalar esa, ko’p hollarda mehnatga va ijtimoiy foydali ishlarga qiziqadilar. O’quvchi bolalarning, ayniqsa, o’rta yoshdagagi bolalarning qiziqishi niyoyatda beqaror va noaniq bo’ladi. Ular goh u, goh bu ishga qiziqib ketadilar. Bir ishni oxiriga yetkazmasdan ikkinchi bir ishga urinib ketadilar. Shuning uchun sinfdan va maktabdan tashqari mashg’ulotlar biron maqsadni ko’zlovchi, amaliy natijaga olib keladigan havaslarni tarbiyalashga yordam berishi kerak.

Ana shunday havas bolalarni shug’ullanadigan ishlariga ijobjiy

ta'sir ko'rsatadi, ularda iroda va xarakterlarni tarbiyalaydi. Shuningdek, matonat bilan boshlangan ishini oxirigacha yetkazish qobiliyatini o'stiradi. Bolalarning hammasi shaxsning har taraflama kamol topishiga hamda o'g'il va qiz bolalarni amaliy ishga tayyorlashda juda muhimdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning shakllari quyidagicha  
a) ommaviy ishlar (musabaqa, ko'rgazmali kechalar, ertaklar eksursiyalar, spartakiada va boshqalar);  
b) to'garaklar ishlari (yosh fiziklar, matematiklar, tabiatshunoslar drama va hokazo to'garaklar).

O'quvchilarning mustaqil individual mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish (bunda o'quvchilar fan va texnikaning birorta sohasini o'rGANISH uchun mustaqil ishlaydilar yoki mustaqil ravishda turli modellar yasaydilar va hokazo).

Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy ishlarni  
O'quvchilar bilan shaxs

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy shakllaridan biri ommaviy ishlardir. O'quvchilarning juda ko'pi ishtirok etadigan, ularga bilim beradigan ishlarning juda ko'pi ishtirok etadigan, ularga bilim beradigan ishlardir.

Sinfdan tashqari ommaviy ishlar deb ataladi. Sinfdan tashqari ommaviy ishlar matabda va ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunday ishlarda bitta sinf, bir necha sinf yoki butun matab o'quvchilari qatnasha oladi. Ommaviy ishlarni matabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar saroyi, yoshlar uylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar stansiyalari, ekskursiya-turistik stansiyalari va hokazo). Shuningdek, "Yoshlar ishlari agentligi" YOIH tashkiloti, sport jamiyatlari olib boradi. Maktabdan tashqari ommaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasalarning to'garaklarida qatnashuvchi o'quvchilar, shuningdek, tuman, shahar, viloyatdagi maktablarning o'quvchilari ham ishtirok etishlari mumkin.

Sinfan va maktabdan tashqari ommaviy ishlarning xarakterli xususiyati shundaki, bu ishlar hayotda ro'y berayotgan hamma muhim hodisa - voqealarga va faktlarga bog'lab o'tkaziladi, bolalarga shu hodisa va voqealar to'g'risida to'g'ri tasavvur beriladi. Bolalarda havas uyg'otadi, qiziqish neysa qilib qo'shadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari har bir ommaviy ishga puxta tayyorgarlik ko'riliши нийматда муминлік. Оммавиый ишнинг муваффақияти унинг uyushqoqlik bilan o'tkazilishiga bog'liqdir.

Ommaviy ishning tematikasi tarbiyaviy vazifalarga o'quvchilarning madaniy talab va qiziqishlariga muvofiq bo'lgandagina ommaviy ishlar muvaffaqiyat qozonadi.

Ommaviy ishlarning mazmuni g'oyaviy jihatdan yuksak va bolalar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Ommaviy ishlarning dasturi, hajmi va og'ir-yengilligi jihatdan shu yerdagi o'quvchilarning kuchi yetadigan, ularni charchatib qo'ymaydigan, balki ularning bo'sh vaqtlarini yaxshi dam olib o'tkazishlariga yordam beradigan bo'lishi kerak.

Ommaviy ishlarga tayyorgarlik ko‘rishda va uni o‘tkazishda o‘quvchilarning unda faol va ko‘ngilli suratda qatnashishlariga suyanmoq kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy ishlar juda xilma-xildir. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy ishlar olimpiada, turli musobaqalar, spartakiada musobaqalari, kechalar, ertaklar, bayramlar, ekskursiyalar va yurishlar, texnika va ilmiy ijodiyotlar, ko‘rgazmalar, mevali va manzarali daraxtlar o‘tqazish, hosilni yig‘ib-terib olish tarzida o‘tkaziladi. Ommaviy-siyosiy tarbiya ishlari. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy-siyosiy tarbiya ishlariga Respublikamiz va «Yoshlar ishlari agentligi» YOIH tashkilotining yosh avlodga siyosiy tarbiya berish ishlarining sifatini yana ham yaxshilashni talab to‘g‘risidagi qarori asos qilib olinishi lozim. O‘quvchilar bilan individual tartibda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar turlicha bo‘lishi mumkin. Shunday ishlardan ba’zi birlarini ko‘rsatib o‘tamiz.

- 1) O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari o'qishlariga rahbarlik qilish;
  - 2) O'quvchilarni musiqa, ashula va san'atning boshqa turlariga individual tartibda o'rgatish.
  - 3) Yosh texniklarning individual tartibda olib boriladigan qurish-tuzish ishlariga rahbarlik qilish.
  - 4) yosh tabiatshunoslar bajaradigan ishlardan yakka topshiriqlar berish va hokazo.

O'quvchilarning jismoniy tarbiyaning ayrim turlariga o'rgatish ularning yoshi, tabiatshunoslik va texnika borasida uylarida bajaradigan ishlariga rahbarlik qilish o'quvchilar bilan fan va adabiyotning ma'lum bir sohasida ish olib borish individual tartibda ma'ruzalar tayyorlash, insho yozish va hokazolar o'quvchilar bilan ish vakka tartibda olib boriladigan ishlardandir.

ta'sir ko'rsatadi, ularda iroda va xarakterlarni tarbiyalaydi. Shuningdek, matonat bilan boshlangan ishini oxirigacha yetkazish qobiliyatini o'stiradi. Bolalarning hammasi shaxsning har taraflama kamol topishiga hamda o'g'il va qiz bolalarni amaliy ishga tayyorlashda juda muhimdir.

Sinfdan va mактабдан ташқари ишларнинг шакллари quyidagicha:  
a) оммави ишлар (musabaqa, ko'rgazmali kechalar, ertaklar, eksursiyalar, spartakiada va boshqalar);  
b) то'гараклар ишлари (yosh fiziklar, matematiklar, tabiatshunoslar drama va hokazo to'garaklar).

O'quvchilarning mustaqil individual mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish (bunda o'quvchilar fan va texnikaning birorta sohasini o'rganish uchun mustaqil ishlaydilar yoki mustaqil ravishda turli modellar yasaydilar va hokazo).

Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy ishlar.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy shakllaridan biri ommaviy ishlardir. O'quvchilarning juda ko'pi ishtirok etadigan, ularga bilim beradigan ishlar sinf va maktabdan tashqari ommaviy ishlar deb ataladi.

Sinfdan tashqari ommaviy ishlar maktabda va ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunday ishlarda bitta sinf, bir necha sinf yoki butun maktab o'quvchilari qatnasha oladi. Ommaviy ishlarni maktabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar saroyi, yoshlar uylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar stansiyalari, ekskursiya-turistik stansiyalari va hokazo). Shuningdek, "Yoshlar ishlari agentligi" YOIH tashkiloti, sport jamiyatlari olib boradi. Maktabdan tashqari ommaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasalarning to'garaklarida qatnashuvchi o'quvchilar, shuningdek, tuman, shahar, viloyatdagi maktabalarning o'quvchilari ham ishtirok etishlari mumkin.

Sinfan va muktabdan tashqari ommaviy ishlarning xarakterli xususiyati shundaki, bu ishlar hayotda ro'y berayotgan hamma muhim hodisa - voqealarga va faktlarga bog'lab o'tkaziladi, bolalarga shu hodisa va voqealar to'g'risida to'g'ri tasavvur beriladi. Bolalarda havas uyg'otadi, qiziqish paydo qiladi va katta taassurat qoldiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari har bir ommaviy ishga puxta tayyorgarlik ko‘rilishi nihoyatda muhimdir. Ommaviy ishning muvaffaqiyati uning uyushqoqlik bilan o‘tkazilishiga bog‘liqdir.

Ommaviy ishning tematikasi tarbiyaviy vazifalarga o‘quvchilarning madaniy talab va qiziqishlariga muvofiq bo‘lgandagina ommaviy ishlar muvaffaqiyat qozonadi.

Ommaviy ishlarning mazmuni g‘oyaviy jihatdan yuksak va bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Ommaviy ishlarning dasturi, hajmi va og‘ir- yengilligi jihatdan shu yerdagi o‘quvchilarning kuchi yetadigan, ularni charchatib qo‘ymaydigan, balki ularning bo‘sh vaqtlarini yaxshi dam olib o‘tkazishlariga yordam beradigan bo‘lishi kerak.

Ommaviy ishlarga tayyorgarlik ko‘rishda va uni o‘tkazishda o‘quvchilarning unda faol va ko‘ngilli suratda qatnashishlariga suyanmoq kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy ishlar juda xilma-xildir. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy ishlar olimpiada, turli musobaqalar, spartakiada musobaqalari, kechalar, ertaklar, bayramlar, ekskursiyalar va yurishlar, texnika va ilmiy ijodiyotlar, ko‘rgazmalar, mevali va manzarali daraxtlar o‘tqazish, hosilni yig‘ib-terib olish tarzida o‘tkaziladi. Ommaviy-siyosiy tarbiya ishlari. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy-siyosiy tarbiya ishlariga Respublikamiz va «Yoshlar ishlari agentligi» YOIH tashkilotining yosh avlodga siyosiy tarbiya berish ishlarining sifatini yana ham yaxshilashni talab to‘g‘risidagi qarori asos qilib olinishi lozim. O‘quvchilar bilan individual tartibda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar turlicha bo‘lishi mumkin. Shunday ishlardan ba’zi birlarini ko‘rsatib o‘tamiz.

- 1) O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari o'qishlariga rahbarlik qilish;
  - 2) O'quvchilarni musiqa, ashula va san'atning boshqa turlariga individual tartibda o'rgatish.
  - 3) Yosh texniklarning individual tartibda olib boriladigan qurish-tuzish ishlariga rahbarlik qilish.
  - 4) yosh tabiatshunoslar bajaradigan ishlardan yakka topshiriqlar berish va hokazo.

O'quvchilarning jismoniy tarbiyaning ayrim turlariga o'rgatish ularning yoshi, tabiatshunoslik va texnika borasida uylarida bajaradigan ishlariga rahbarlik qilish o'quvchilar bilan fan va adabiyyotning ma'lum bir sohasida ish olib borish individual tartibda ma'ruzalar tayyorlash, insho yozish va hokazolar o'quvchilar bilan ish yakka tartibda olib boriladigan ishlardandir.

Sinfdan tashqari ishni shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, bu o‘qish o‘quvchilarda vatanparvarlik dunyoqarashni tarkib topishiga yordam beradigan bo‘lsin. O‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlarini maktab kutubxonasi bilan birgalikda yo‘lga qo‘yish zarur. Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya qilingan kitoblar ro‘yxatini maktab kutubxonalarida ko‘zga ko‘rinarli joylarga osib qo‘yish kerak.

